

**«UMUMIY G‘ALABA – KELAJAKKA NIGOH»
XALQARO DAVRA SUHBATI YAKUNLARI
BO‘YICHA MAQOLALAR TO‘PLAMI
(Toshkent, 2026-yil 5-may)**

TOSHKENT
«NISO NASHRIYOT VA MATBAA UYI»
2026

OO‘K 94(575.1)"1941/1945"(08)

KBK 63.3(50')

E 74

**«Umumiy g‘alaba – kelajakka nigoh» xalqaro davra suhbat
yakunlari bo‘yicha maqolalar to‘plami** (*Toshkent, 2026-yil 5-may*) – T.:
«Niso nashriyot va matbaa uyi» nashriyoti, 2026. – 176 bet.

OO‘K 94(575.1)"1941/1945"(08)

KBK 63.3(50')

Tijorat maqsadlarida foydalanish taqiqlanadi

Для бесплатного распространения

ISBN 978-9910-651-68-7

© «Niso nashriyot va matbaa uyi», 2026.

MUNDARIJA

KIRISH.....	4
IKKINCHI JAHON URUSHIDA G‘ALABAGA ERISHISHDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNI: KOMPLEKS TAHLIL.....	9
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXAT:.....	21
G‘ARB VA SHARQNI OZOD ETIB: O‘ZBEKISTONLIK QAHRAMONLAR JASORATI.....	23
O‘ZBEKISTONLIK GENERALLAR: UMUMIY BUYUK G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSA.....	27
G‘ALABA KUNIDAN XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA: TARIXIY NARRATIVNING TRANSFORMATSIYASI.....	35
OLDINGI SAFDA QUROLSIZ: IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA HARBIY OSHPAZLAR JASORATI.....	40
TARIX VA ULUG‘ VATAN URUSHI YAKUNLARI SOXTALASHTIRUVCHILARI QANDAY MAQSADLARNI KO‘ZLAYDI?.....	46
O‘ZBEKISTONDA INTERNATSIYALANGAN YAPONLAR (1945–1950-yillar).....	51
NATSIZM QIYOFASIGA BEZAK BERISH UNING QAYTA TUG‘ILISHI BILAN BAROBAR!.....	60
SSSR XALQLARINING BUYUK G‘ALABASI HAQIDAGI XOTIRA – YEVROOSIYO BOG‘LIQLIGINING FUNDAMENTAL ASOSI SIFATIDA.....	72
ISHCHI-DEHQON QIZIL ARMIYASI HAQIDAGI UYDIRMALAR	79
YOSH AVLOD XOTIRASIDAGI BUYUK G‘ALABA.....	83

KIRISH

*Ergashev Baxtiyor Ismoilovich,
«Ma'no» tadqiqot tashabbuslari markazi direktori*

Hurmatli o'quvchi,

2026-yil 5-may kuni Toshkent shahrida «Umumiy g'alaba – kelajakka nigoh» mavzusida xalqaro davra suhbatini bo'lib o'tdi. Ushbu tadbir «Ma'no» tadqiqot tashabbuslari markazi va Yosh siyosatshunolar maktabi tomonidan tashkil etildi. Davra suhbatini ishida O'zbekiston, Rossiya, Qirg'izistondan bo'lgan tarixchilar, siyosatshunolar, jamoat arboblari, jurnalistlar ishtirok etdilar.

Xalqaro davra suhbatini tashkilotchilari va ishtirokchilari uchun G'alaba kunini nishonlash faqat va hatto birinchi navbatda, tarix masalasi emas. Bu umumiy tarixiy zaminga tayanib, xalqlarimizning kelgusi taraqqiyot yo'nalishlarini anglash va belgilab olishga bo'lgan urinishdir.

1941-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonning qariyb besh yarim million aholisidan bir yarim millionga yaqin o'zbekistonliklar armiyaga chaqirilgan va safarbar etilgan. O'sha paytda erkaklar soni taxminan uch million kishini tashkil etganini inobatga olib, bu raqamdan bolalar va keksalarni chegirib tashlasak, O'zbekistondagi deyarli har bir voyaga yetgan erkak armiyaga chaqirilgani yoki safarbar qilingani ayon bo'ladi. Shundan kelib chiqib, hozirgi O'zbekistonda deyarli har bir oilaning o'z urush qatnashchisi yoki front orti mehnat faxriysi bor, deb to'la asos bilan aytish mumkin.

1941–1945-yillardagi Ulug' Vatan urushida Sovet Ittifoqi xalqlarining fashistlar Germaniyasi ustidan qozongan buyuk G'alabasining ahamiyati nimada? Bu shunchaki bir davlatning boshqa bir davlat ustidan qozongan harbiy g'alabasi emas. Bu – insoniyatga nafrat mafkurasi bo'lgan natsizm timsolidagi mutlaq yovuzlik ustidan ezgulik va nur kuchlarining

g'alabasidir. Bu mafkura rasman, davlat darajasida insonlarni oliy irq va irqiy nomukammal «chala odamlar»ga ajratgan edi. U nafaqat harbiy bo'ysundirishni, balki butun boshli xalqlarni, jumladan, Sovet Ittifoqi xalqlarini ham jismonan yo'q qilish va qul qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygandi. 1945-yilgi G'alaba ushbu mafkuraga chek qo'ydi va insoniyatni irqiy hukmronlik hamda sayyora miqyosidagi genotsid xavfidan qutqardi. Shu bois bu G'alaba xotirasi tor milliy emas, balki umuminsoniy qadriyat sanaladi va unga shunga yarasha munosabatda bo'lish lozim.

Bu umumiy G'alabaga o'zbek xalqi ham o'zining salmoqli va ajralmas hissasini qo'shgan. O'zbekistondan safarbar etilgan qariyb bir yarim million kishi urushning barcha jabhalarida – Moskva mudofaasi va Stalingrad jangidan tortib, Berlinni ishg'ol qilishgacha bo'lgan barcha janglarda qatnashgan. Ulardan o'n minglab kishi jangovar orden va medallar bilan taqdirlangan, yuzlab kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'lgan. Biroq O'zbekistonning hissasi bu bilan cheklanib qolmagan. Toshkent va respublikaning boshqa shaharlari frontoldi hududlaridan evakuatsiya qilingan yuzlab sanoat korxonalarini qabul qilib, joylashtirgan. Bu esa front chizig'idan olisda harbiy mahsulotlar ishlab chiqarishni qisqa muddatlarda yo'lga qo'yish imkonini bergan. O'zbekiston yuz minglab evakuatsiya qilinganlarni, jumladan, ota-onasiz qolgan bolalarni qabul qilgan va har bir o'zbek oilasida begona bo'lib kelib, o'z bolasiga aylanib qolgan go'dak uchun joy ham, bir burda non ham topilgan. Front ortidagi zahmatkashlar frontni oziq-ovqat, porox va kiyim-kechak ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan paxta bilan ta'minlab, dala va zavodlarda kecha-yu kunduz mehnat qilganlar. Bu front va front ortining yagona, yaxlit hissasi bo'lib, usiz umumiy G'alabaga erishish mumkin emas edi. Shu bois, O'zbekistonni umumiy G'alabadan ajratishga urinish, uning hissasini ikkinchi darajali yoki, ayniqsa, tashqaridan majburan yuklangan deb ko'rsatish nafaqat tarixiy xato, balki ajdodlarimiz xotirasiga nisbatan hurmatsizlikdir.

Afsuski, hozirgi vaqtda ijtimoiy va axborot makonida urush yakunlarini qayta ko'rib chiqish hamda umumiy G'alabadagi Sovet Ittifoqi va O'zbekistonning rolini kamsitishga qaratilgan bir qator yolg'on tezislilar faol ilgari surilmoqda.

Fashistik, natsistik Germaniya va Sovet Ittifoqi urushni boshlashda teng mas'ul bo'lgan, ular go'yoki o'xshash mafkuraga ega ikkita qardosh totalitar rejim edi, degan tezis mavjud. Bu – kurashish zarur bo'lgan yolg'ondir. Odamlarni oliy irq – oriy (yubermensh) va irqiy nomukammal deb e'lon qilingan boshqa xalqlar – untermensh, ya'ni chala odamlarga bo'lgan odamzodga nafratga asoslangan natsistik mafkurani proletar internatsionalizmi, xalqlarning tengligi hamda irqi va millatidan qat'i nazar, barcha insonlarning barobarligi g'oyalariga tayangan sovet mafkurasi bilan qanday solishtirish mumkin? Bular bir-biriga mutlaqo zid mafkuralardir. Biroq bugungi kunda natsistlarning irqiy ustunlik mafkurasi va sovetlarning xalqlar birodarligi mafkurasi go'yoki o'xshash siyosiy tizimlar ekani haqidagi safsata faol targ'ib qilinmoqda. Bu yolg'on va bu yolg'onga qarshi kurashish kerak.

Bugungi kunda ayrim soxta tarixchilar ilgari surayotgan ikkinchi tezisga ko'ra, Markaziy Osiyo, jumladan, O'zbekistondan bo'lgan jangchilar Qizil Armiyaga majburan safarbar qilingan va urushning asl maqsadlarini anglamagan holda, go'yoki zo'rlik bilan jangga kirgan. Lekin bu yolg'on. Ota-bobolarimiz nima uchun kurashayotganlarini juda yaxshi bilganlar. Ular o'z farzandlari uchun bepul maktab ta'limi, farzand-u nabiralari uchun bepul oliy ma'lumot, ijtimoiy adolat uchun jang qilayotganini anglaganlar. Ular o'z farzandlari va nabiralari yashash va kamol topish, o'qish, kasb-hunar egallash, mutaxassis bo'lib yetishish, millatidan qat'i nazar, barcha mehnatkashlar uchun sovet hokimiyati ochib bergan ijtimoiy yuksalish imkoniyatlaridan foydalanishga sharoit yaratadigan tuzumni himoya qilayotganliklarini bilganlar.

Uchinchi tezis hamkorlar va xoinlardan iborat bo'lgan Turkiston legioni a'zolarini oqlash bo'yicha faol axborot kampaniyasi bilan bog'liq. Bu jarayon nafaqat O'zbekistonda, balki Markaziy Osiyoning boshqa mamlakatlarida, xususan, Qozog'istonda ham kechmoqda. Ammo Turkiston legioni – bu fashistlar Germaniyasi tomoniga o'tib, uning safida jang qilgan kollaboratsionistlar, sotqinlar va vatan xoinlaridir. 1941-yilda Qizil armiya safida jangga kirgan, bir necha bor yaralangan va 1945-yilga kelib Berlin, Vena va Kenigsberggacha yetib borgan o'zbekistonlik qizil armiyachi bilan Vatanga xiyonat qilib,

Gitlarga Turkiston legioni tarkibida xizmat qilgan odamni qanday qilib bir tarozi pallasiga qo'yish mumkin? Bunga yo'l qo'yib bo'lmaydi va ularni tenglashtirishga qaratilgan har qanday urinish g'olib Qizil armiya safida halol va mardona jang qilgan ota-bobolarimiz xotirasiga xiyonatdir.

To'rtinchi tezis ham tobora kuchaymoqda: Markaziy Osiyo xalqlarining safarbarligini mustamlakachilikning bir ko'rinishi sifatida, mintaqaning o'zini esa G'alaba ishtirokchisi emas, balki faqatgina markazning imperiyacha siyosati qurboni sifatida ko'rsatishga urinishlar. Bu – tushunchalarni makkorona almashtirishdir. Bu da'vo millionlab o'zbekistonliklar tashqi majburlov bilan emas, balki umumiy Vatan va umumiy kelajakni ongli ravishda himoya qilib kurashgani va mehnat qilganini inkor etadi. Shuningdek, urushdan keyin aynan sovet modernizatsiyasi O'zbekistonga sanoat, umumiy ta'lim va sog'liqni saqlash tizimini, muhandis va olimlar kadrlarini berganini ham e'tiborsiz qoldiradi. Bu murakkab va ko'p jihatdan bunyodkorlik ruhidagi tarixni faqat jabrdiyda timsoliga keltirib qo'yish – o'z xalqining jasorati va mehnatini xotiradan o'chirish demakdir.

Beshinchi tezis – bu Sovet Ittifoqining g'alabasi go'yoki faqat ma'nosiz, hech narsa bilan oqlab bo'lmaydigan qurbonlar evaziga qo'lga kiritilgan, degan da'vodir. G'alabaning o'zi esa urushdagi xato va yo'qotishlar bahonasida qadrsizlantiriladi. Urushning dahshatli bo'lganini va mislsiz qurbonlar talab etganini hech kim inkor etmaydi. Biroq G'alaba xotirasini faqat uning badali haqidagi gap-so'zlar bilan almashtirish – bu ham revizionizmning bir shakli bo'lib, bizni asosiy mohiyatdan chalg'itadi. Ya'ni, aynan shu G'alaba fashizmga chek qo'yib, o'nlab xalqlarni, jumladan, o'zbek xalqini ham qirilib ketishdan saqlab qolgan edi. G'alabaning bahosini yodda tutish kerak, lekin bu bilan G'alabaning o'zi va ota-bobolarimiz nima uchun va nimaga qarshi kurashgani haqidagi xotirani almashtirish mumkin emas.

Biz bu revizionizm va yolg'onga qarshi turishimiz zarur. Axborot urushi qonuni oddiy: begona narrativlarga qarshi o'zimizning narrativlarimiz va matnlarimiz bo'lishi kerak. O'zbekiston, Rossiya va Qirg'iziston tarixchilari, siyosatshunoslari, jamoat arboblari hamda jurnalistlarini birlashtirgan mazkur xalqaro davra suhbatlari – tarixiy

haqiqat uchun olib borilayotgan ushbu axborot-mafkuraviy kurashga qo'shgan kichik bo'lsa-da, o'z hissamizdir.

Bu ish ajdodlarimizga emas, o'zimizga kerak. Urush haqidagi haqiqatni himoya qila olishimiz – tarixda kim bo'lib qolishimizni belgilaydi: bir lahzalik taskin va osoyishtalik deb natsizm ustidan g'alaba qozongan ajdodlari xotirasiga xiyonat qilgan manqurtlar bo'lamizmi yoki ajdodlarimizning yorqin xotirasini va G'alabaning nurli siymosini himoya qila oladigan insonlar bo'lib qolamizmi? Ikkinchi jahon urushida Sovet Ittifoqi xalqlari, jumladan, o'zbek xalqi ham mutlaq yovuzlikka qarshi ezgulik va nur tomonida turib kurashgan. Buni yodda tutish, bundan faxrlanish va uni har qanday qayta ko'rib chiqish urinishlari va yolg'ondan himoya qilish lozim.

IKKINCHI JAHON URUSHIDA G‘ALABAGA ERISHISHDA O‘ZBEKISTONNING O‘RNI: KOMPLEKS TAHLIL

Ishanxodjayeva Zamira Raimovna

*Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti
(O‘zbekiston Respublikasi, 100174, Toshkent sh., Universitet ko‘chasi, 4-uy)*

tarix fanlari doktori, professor

ORCID: 0000-0002-8495-8122

E-mail: zamira.i@rambler.ru

Ulug‘ Vatan urushi boshlanishi bilan O‘zbekiston frontni inson, sanoat va oziq-ovqat resurslari bilan ta‘minlab, sovetlar mamlakati frontorti tizimida muhim o‘rin egalladi. Tadqiqotda O‘zbekiston SSRning G‘alabani yaqinlashtirishga qo‘shgan hissasining asosiy yo‘nalishlari – aholini safarbar etish, harbiy sanoatni rivojlantirish, qishloq xo‘jaligini qo‘llab-quvvatlash va evakuatsiya qilinganlarga gumanitar yordam ko‘rsatish masalalari ko‘rib chiqilgan.

SSSR xalqlarining Ikkinchi jahon urushidagi ishtiroki uzoq vaqtdan beri o‘rganilayotgan tarixiy mavzulardan biridir [Bezugolnii, Borodkin, 2022, 2-b.]. Ulug‘ Vatan urushi tarixini o‘rganish yakunlarini sarhisob qilish va tadqiqot istiqbollarini belgilash bir qator olimlarning ilmiy ishlarida hamda xalqaro anjumanlar materiallarida o‘z aksini topgan [Sorokin, 2021, 4-b.].

Ushbu tadqiqot urush davrining statistik va demografik materiallarini tahlil qilish, shuningdek, urushdan oldingi va urush yillaridagi iqtisodiy ko‘rsatkichlarni qiyoslashga asoslanadi. Aholini safarbar etish, ishlab chiqarishni rivojlantirish, evakuatsiya va odamlar talafoti haqidagi ma‘lumotlarga alohida e‘tibor qaratilgan bo‘lib, bu O‘zbekistonning sovetlar mamlakati frontorti tizimidagi o‘rnini aniqlash imkonini berdi.

Urush davrining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlarini, front orti faoliyati va safarbarlik jarayonlarini o‘rganishga mamlakatimiz olimlari ham, xorijiy tadqiqotchilar ham salmoqli hissa qo‘shgan. Ular orasida M.N. Potyomkina [Potyomkina, 2024], V.A. Yuryev [Yuryev, 1995], G.A. Kumanyov [Kumanyov, 2006], A.E. Batirov [Batirov, 2015], shuningdek, M.I. Lixomanov, L.T. Pozina va E.I. Finogenovlarning

[Lixomanov va b., 1985] asarlarini alohida ta'kidlash joiz. Ularning tadqiqotlarida sovet jamiyatining transformatsiyasi, mehnat resurslarining o'рни va urush sharoitidagi iqtisodiyot faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari yoritib berilgan.

O'zbekistonning Ikkinchi jahon urushida g'alabani ta'minlashga qo'shgan hissasi masalalariga Z.R. Ishanxo'jayeva, V.K. Xazov va A.B. Almazova-Ilyinaning maqolasida alohida e'tibor qaratilgan bo'lib, unda respublikaning umumittifoq jarayonlaridagi ishtirokinining asosiy jihatlari ko'rib chiqiladi [Ishanxo'jayeva va b., 2020].

Ulug' Vatan urushi boshlanishi bilan Sovet Ittifoqi xalqlari mamlakat himoyasiga safarbar qilindi va «Hamma narsa front uchun, hamma narsa G'alaba uchun!» shiori umumxalq birligining ifodasiga aylandi. Qisqa muddatlarda iqtisodiyot harbiy izga tushirildi, yangi harbiy qismlar tuzildi, mamlakatning sharqiy hududlarida armiya ehtiyojlari uchun ishlab chiqarish yo'lga qo'yildi. O'zbekistonda hukumat xabaridan so'ng dastlabki soatlardayoq ommaviy vatanparvarlik mitinglari bo'lib o'tdi. Toshkent to'qimachilik kombinati ishchilarining yig'ilishida Vatan himoyasi yo'lida fidokorona mehnat qilishga tayyor ekanliklari bayon qilindi. «Toshqishloqmash» zavodi ishchilari ham G'alabani ta'minlash uchun har qanday topshiriqni bajarishga qat'iy bel bog'laganlarini bildirdilar.

1941-yil 23-iyunda Toshkentda ko'p ming kishilik shahar mitingi bo'lib o'tdi. Unda korxonalar, o'quv yurtlari vakillari, talabalar va o'qituvchilar ishtirok etdi. Shunday tadbirlar Samarqand, Buxoro, Andijon, Namangan, Farg'ona shaharlari hamda respublikaning bir qator qishloq tumanlarida ham o'tkazildi. Urush yillarida O'zbekiston aholisining vatanparvarlik, o'zaro yordam, jasorat va mehmondo'stlik kabi fazilatlarini ayniqsa yorqin namoyon bo'ldi. Respublika evakuatsiya qilingan aholi va korxonalarni qabul qilib, frontni oziq-ovqat, pul va moddiy vositalar bilan ta'minladi. Urushning dastlabki kunlaridanoq minglab odamlar ixtiyoriy ravishda harbiy komissarliklarga o'zlarini frontga jo'natish iltimosi bilan murojaat qildi. Birgina Toshkent viloyatining o'zida to'rt kun ichida 7600 ta ariza topshirilgan bo'lib, ulardan 2503 tasi xotin-qizlarga tegishli edi. Qoraqalpog'istondan 399 ta, Xorazm viloyatidan esa 1725 ta ariza kelib tushdi. 1941-yil dekabr oyida O'zbekistondan havo-desant qo'shinlariga 7718 nafar ko'ngilli yuborildi.

Ularning 4122 nafarini komsomollar tashkil etgani front va front orti o'rtasida inson resurslarini taqsimlash bo'yicha maxsus komissiyalar tuzishni taqozo etdi [Xotira kitobi. O'zbekiston Respublikasi 1941–1945; 1995:55].

Urush yillarida O'zbekiston yoshlari alohida faollik ko'rsatdi: o'n minglab yigit-qizlar umumiy harbiy ta'lim va Osoaviaxim tizimi orqali harbiy tayyorgarlikdan o'tdi. 1941-yil dekabrda respublikaning 600 nafar yosh xodimi siyosiy rahbar o'rinbosarlari sifatida milliy qismlarga jo'natildi. 1941–1943-yillarda birgina Toshkent viloyatidan frontga 37 ming yigit-qiz yuborilgan bo'lsa, shundan 10 ming nafari milliy qismlar tarkibiga kirdi.

O'zbekiston vakillari Kursk yoyidagi janglarda faol ishtirok etdi. Bu janglarda 5- va 162-o'qchi diviziyalar alohida jonbozlik ko'rsatdi, so'nggi diviziya mamlakatga 70 nafar Sovet Ittifoqi Qahramonini yetkazib berdi. Respublikada 258-o'qchi diviziya, 69-Qizil Bayroqli o'qchi diviziya, 128-gvardiyachi Turkiston tog'-o'qchi diviziyasi, 14-otliq diviziya, shuningdek, 90- va 94-alohida o'zbek o'qchi brigadalari tuzilib, tayyorlandi [Xotira kitobi. O'zbekiston Respublikasi 1941–1945; 1995:112].

Moskva ostonalarini himoya qilgan 316-Panfilov diviziyasining jasorati keng shuhrat qozondi. Dubosekovo razyezdida 28 nafar panfilovchi 50 ta nemis tankiga qarshi jangga kirib, yigirmaga yaqin jangovar texnikani yo'q qildi va dushmanning yorib o'tishiga yo'l qo'ymadi. O'zbekistonda tuzilgan podpolkovnik M.V. Zimin qo'mondonligidagi diviziya Moskva uchun jangda faol qatnashdi. Jangchilar Sharif Po'latov va Hasan Tursunov bu janglarda dushmanning piyoda askarlar ortilgan 9 ta tanki va 4 ta avtomashinasini yo'q qildi. Moskva mudofaasi uchun 1758 nafar o'zbekistonlik orden va medallar bilan mukofotlandi.

Stalingrad jangida 2738 nafar o'zbekistonlik jangchi alohida jasorat ko'rsatdi. 1945-yil mart oyida general-mayor Sobir Rahimov diviziyasi Germaniyadagi Graudens qal'asini egallashda ishtirok etib, dushmanning 5 mingdan ortiq askar va ofitserini asirga oldi. Qo'shinlarga ko'rsatgan jasorati va muvaffaqiyatli rahbarligi uchun Sobir Rahimov vafotidan so'ng Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni bilan taqdirlandi [Kim P., «Toshkent haqiqati», 2000].

Ulug' Vatan urushi yillarida O'zbekiston 538 mingga yaqin kishisidan ayrildi. Ko'rsatgan jasorati uchun respublikada tug'ilgan 302 nafar jangchi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi, 70 nafari «Shuhrat» ordenining to'liq kavaleri bo'ldi, 200 mingdan ortiq harbiy xizmatchi esa orden va medallar bilan mukofotlandi.

Urushning birinchi oylaridanoq respublika iqtisodiyoti harbiy holatga o'tkazildi. O'zbekiston mamlakatning g'arbiy hududlaridan ko'chirib keltirilgan 151 ga yaqin sanoat korxonasini qabul qildi va ishga tushirdi. Vaholanki, kadrlar tanqisligi sababli ko'plab zavodlar zarur ishchi kuchining atigi 20 foiziga ega edi. Ishlab chiqarishga ayollar va yuqori sinf o'quvchilari faol jalb etildi, bunda ko'plab ishchi xotin-qizlar belgilangan me'yorni 2–3 baravar ortig'i bilan bajardilar.

Ayni vaqtda respublika frontni oziq-ovqat mahsulotlari va qishloq xo'jaligi xomashyosi bilan ta'minlab turdi. Paxtachilik bilan bir qatorda don, sabzavot va texnika ekinlari maydonlari kengaytirildi. 1943-yilning o'zida 415,6 ming tonna don tayyorlandi, bu 1940-yildagi ko'rsatkichdan 1,5 baravar ko'p edi. Front ortidagi fidokorona mehnati uchun respublikaning 60 ming fuqarosi orden va medallar bilan taqdirlandi. Urush yillarida O'zbekiston frontga 2104 ta samolyot, 17 mingga yaqin aviamotor, millionlab snaryad, mina va aviabombalar yetkazib berdi, shuningdek, jangovar texnikalarni ta'mirlash va ularni ehtiyot qismlar bilan ta'minlashni yo'lga qo'ydi [O'zbekiston Respublikasi Xotira kitobi 1941–1945.1995:22].

Respublika aholisi samolyot va tanklardan tashqari, o'z mablag'lari hisobidan «O'ZBEKISTON» bronetransportini (zirhli poyezdini) ham sotib oldi, uning ekipaji janglarda bir necha bor jasorat, matonat va qahramonlik namunalari ko'rsatdi.

Respublikada harbiy qismlar, qo'shilmalar va jangovar kemalarga otaliq ishlari keng yo'lga qo'yildi. O'zbekiston mehnatkashlari 12-gvardiyachi o'qchi diviziyasi, «MARAT» linkori, 5-o'qchi Orlov diviziyasi, **162**-O'rta Osiyo Novgorod-Severskiy Qizil Bayroq o'qchi diviziyasi va boshqalarga otaliq qildilar.

Respublikada frontga otaliq yordamini rivojlantirish bilan bir vaqtda, frontoldi hududlardan aholi va sanoatni evakuatsiya qilishni tashkil etish bo'yicha ham keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirildi.

SSSR hududida harbiy harakatlar boshlanishi bilan 1941-yil iyun oyida tuzilgan Davlat Mudofaa qo'mitasi 1941-yil 5-iyulda «Urush davrida aholini evakuatsiya qilish tartibi to'g'risida»gi qarorni qabul qildi [RGASPI. F. 17. Op. 166. D. 660. L. 120–125]. Ushbu qarorga muvofiq, frontoldi hududlaridan aholini, shuningdek, sanoat korxonalarini evakuatsiya qilish boshlandi.

Evakuatsiya jarayonini tashkil etish va boshqarish dastlab O'zbekiston Xalq Komissarligi huzuridagi Ko'chirish bo'limi (1939-yilda tashkil etilgan) tomonidan, 1941-yil 26-sentyabrdan boshlab esa Davlat Mudofaa qo'mitasining 7150-sonli qarori asosida tuzilgan Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi tomonidan amalga oshirildi [O'z MA yo'riqnomasi. 1988:14].

Ushbu organning 1941–1945-yillardagi tuzilmasi va faoliyati to'g'risidagi asosiy ma'lumotlar O'zbekiston Milliy arxividagi R-314 – «O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti huzuridagi Aholini evakuatsiya qilish boshqarmasi» (1938–1953-yy.) fondida jamlangan.

Ushbu tadbirlarni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston SSR Xalq Komissarlari Sovetining 1941-yil 13-noyabrdagi 1687-sonli qaroriga muvofiq respublikada evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish bo'yicha aniq reja ishlab chiqildi [O'z MA, F. R-314, Op.1, D.39, L.279]. Arxiv hujjatida turli frontoldi hududlaridan evakuatsiya qilingan shaxslarni joylashtirishning hududiy taqsimoti belgilab berilgan edi.

Rejaga muvofiq, respublikaga jami 525 ming evakuatsiya qilingan kishini joylashtirish ko'zda tutilgan edi. Eng yuqori ko'rsatkichlar Samarqand (81 ming), Buxoro (84 ming) va Farg'ona (79 ming) viloyatlari hissasiga to'g'ri kelgan [O'zMA, F. R-314, 1-r., 39-y.j., 279-v.]. Bu viloyatlar rivojlangan qishloq xo'jaligi bazasi, ishlab chiqarish salohiyati va transport infratuzilmasiga ega bo'lgani uchun asosiy qabul markazlari sifatida qaralgan.

Shu bilan birga, Toshkent viloyati va Toshkent shahri ham muhim qabul maskanlari sanalib, bu yerga 102 mingdan ortiq evakuatsiya qilingan kishini joylashtirish rejalashtirilgan edi. Bunga poytaxtning sanoat, transport va ma'muriy markaz sifatidagi ahamiyati sabab bo'lgan.

Biroq ushbu rejaning amaliy ijrosi dastlab belgilangan ko'rsatkichlardan ancha chetga chiqishlar bilan kechdi. Masalan, Samarqand viloyati evakuatsiya qilinganlarni qabul qilishning asosiy

markazlaridan biri bo'lgan. Viloyatda evakuatsiya qilingan aholini joylashtirish holati to'g'risidagi ma'lumotnomaga ko'ra, 70 ming kishini tuman va shaharlarga, 5 ming kishini sovxozlarga va 4–5 ming kishini boshqa tashkilotlarga joylashtirish nazarda tutilgan bo'lib, bu jami 80 mingga yaqin kishini tashkil etardi. Ammo haqiqiy ko'rsatkichlar bundan ancha yuqori bo'lib chiqdi: 1942-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, viloyatda 113 310 nafar evakuatsiya qilingan kishi joylashtirilgan edi [O'zMA, F. R-314, 1-r., 56-y.j., 147–154-v.].

Bu dalil mintaqadagi evakuatsiya tadbirlari dastlabki rejalarga qaraganda ancha kengroq miqyosda amalga oshirilganidan dalolat beradi.

O'zbekiston urush yillarida frontoldi hududlaridan ko'chirilgan bir milliondan ortiq kishini, jumladan, **250** mingga yaqin bolani o'z bag'riga oldi. Bolalar nafaqat mehribonlik uylarida, balki respublika mehnatkashlari oilalarida ham boshpana topdilar. Ko'plab oilalar turli millatga mansub bir necha yetimni tarbiyalagan bo'lsa, dong'i ketgan Shomahmudovlar oilasi 14 nafar bolani o'z tarbiyasiga olgan edi.

Evakuatsiya jarayonlarida frontoldi hududlaridan ko'chirilgan bolalar muassasalarini joylashtirish alohida o'rin tutgan. Xususan, Samarqand viloyati mehribonlik uylari va internatlarni qabul qiluvchi markazlardan biriga aylandi. Natijada bu yerga oltita mehribonlik uyi va bitta internat ko'chirib kelindi.

1942-yil yanvar holatiga ko'ra, Samarqand viloyatiga yettita bolalar muassasasi evakuatsiya qilingan [Buriyeva X. 2017:237]. Ular orasida: Jitomir mehribonlik uyi (140 nafar tarbiyalanuvchi), Sumi viloyatidan keltirilgan mehribonlik uyi (52 nafar bola), Voroshilovograd viloyatidan ikkita mehribonlik uyi (asosiylari – 130 kishi, Baranskaya stansiyasidan – 142 kishi), Karocha stansiyasidan Kursk viloyati mehribonlik uyi (115 kishi), Stalin viloyatidan mehribonlik uyi (130 kishi), shuningdek, ispan bolalari uchun internat (170 kishi) bor edi.

O'zbek xalqi haqiqiy internatsionalizm namunasini ko'rsatib, Rossiya, Ukraina, Belarus va boshqa respublikalarning fashistlar bosqinidan ozod etilgan hududlariga katta yordam berdi. O'zbekistonliklar Kuban va Ukrainaga ikki mingta traktor, avtomobil va qishloq xo'jaligi texnikasini yubordi. Toshkent temiryo'lcilari temiryo'l qatnovini izga solish uchun

mamlakat ichkarisiga **43,5** mingta yuk va yo'lovchi vagonini jo'natdi [Oblomurodov N. O'zbekistonda ijtimoiy fanlar, 1995, 4-son].

Urush yillarida O'zbekistonga **115** ta hospital ko'chirildi. Hukumat va mehnatkashlar ularni eng yaxshi turarjoy va binolar bilan ta'minladi. Korxona, muassasa va kolxozlar hospitallarni otaliqqa olib, ularga oziq-ovqat, kiyim-kechak va bog'lov materiallari, meva-sabzavotlar bilan har tomonlama yordam berdi, hospitallar hududini obodonlashtirib, yaradorlarni parvarishlashga ko'maklashdi. Bu hospitallardan **54 252** kishi safga, **70** ming kishi esa tinch hayotga qaytarildi.

Urushning birinchi yilidayoq O'zbekistonda 4 ming nafar donor bo'lib, ularning 3 728 nafarini xotin-qizlar tashkil etgan. To'rt yillik urush davomida ular 38 725 litr qon topshirdi [Ibragimova Z. 1953:75].

Xulosa qilib aytganda, butun bashariyat fashizmni qoraladi, tajovuzkorlik esa insoniyatga qarshi eng og'ir jinoyat deb topildi. Bugun farzandlarimiz va kelajak avlodlar Vatanimizni, muqaddas zaminimizni bizdan keyin yanada boy, qudratli va salohiyatli holda qabul qilib olishlari uchun bor imkoniyatimizni ishga solish – fuqarolik burchimizdir. Toki ular tinchlikni qadrlab, asrab-avaylab yashasinlar.

Aholini safarbar etish va jangovar harakatlardagi ishtiroki

Urushning dastlabki kunlarida O'zbekistonda ommaviy mitinglar o'tkazildi va frontga ko'ngilli bo'lib yozilishlar avj oldi.


Urushning to'rt kuni ichida Toshkent viloyatida ko'ngillilardan 7600 ta ariza kelib tushdi, shulardan 2503 tasi xotin-qizlar hissasiga to'g'ri keldi.

Qoraqalpog'istonda 399 ta, Xorazm viloyatida esa 1725 ta ariza topshirildi.

1941-yil dekabr oyida havo-desant qo'shinlariga 7718 kishi, jumladan, 4122 nafar komsomolchi ko'ngilli ravishda yuborildi.


1941–1943-yillarda birgina Toshkent viloyatidan 37 ming kishi frontga jo'natildi, ularning 10 ming nafari milliy harbiy qismlarga yuborildi.

Respublika hududida o'qchi, tog'-o'qchi va otliq diviziyalar, shuningdek, alohida o'zbek o'qchi brigadalari tuzilib, tayyorlandi.



Jangovar xizmatlari va talafotlar


- Jangovar harakatlarda respublikaning minglab farzandlari jonbozlik ko'rsatdilar:
- Moskva yaqinidagi janglarda 1758 nafar o'zbekistonlik jangchi mukofotlandi.
- Stalingrad jangida 2738 kishi jasorat ko'rsatdi.
- 302 kishi Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoniga sazovor bo'ldi.
- 70 nafar harbiy xizmatchi «Shuhrat» ordenining to'liq kavalieri bo'ldi.
- 200 mingdan ortiq kishi orden va medallar bilan taqdirlandi.
- Respublikaning umumiy talafotlari qariyb 538 ming kishini tashkil etdi.



Sanoatni safarbar qilish

Qisqa muddatlarda respublika iqtisodiyoti harbiy izga o'tkazildi:

- Evakuatsiya qilingan 151 ta sanoat korxonasi ishga tushirildi.
- Korxonalar atigi 20 foiz ishchi kuchi bilan ta'minlangan holda kelgan, bu esa mahalliy kadrlarni keng miqyosda safarbar etishni taqozo qildi.




Urush yillarida quyidagilar ishlab chiqarildi:

- 2104 ta samolyot;
- 17 000 ga yaqin aviamotor;
- millionlab snaryad, mina va aviabombalar;
- o'n minglab harbiy texnika birligi ta'mirlandi.

Qishloq xo'jaligi


- Paxtachilik ustuvor bo'lishiga qaramay, respublika oziq-ovqat ekinlari yetishtirishni kengaytirdi.
- 1943-yilda 415,6 ming tonna g'alla tayyorlandi, bu 1940-yilgi ko'rsatkichdan 1,5 baravar ko'pdir.
- Mehnatdagi qahramonligi uchun front ortidagi 60 ming nafar ishchi-xizmatchi mukofotlandi.



Gumanitar missiya


O'zbekiston yirik evakuatsiya markaziga aylandi:

- 1 milliondan ortiq kishi, jumladan, 250 mingga yaqin bola evakuatsiya qilinib, qabul qilindi.
- 115 ta gospi-tal ko'chirib keltirildi.
- 54 252 nafar harbiy xizmatchi safga, 70 ming kishi esa tinch mehnatga qaytarildi.
- Urushning birinchi yilida donorlar soni 4 ming nafarni tashkil etdi.
- Respublika ozod etilgan hududlarga 2000 ta traktor va avtomobil hamda 43,5 ming dona temiryo'l vagonini jo'natdi [O'zbekistonda etnodemografik jarayonlar. 2-qism. T. 2005].



Olingan ma'lumotlar O'zbekistonning G'alabaga qo'shgan hissasi har tomonlama bo'lganidan dalolat beradi. Respublika bir vaqtning o'zida quyidagi vazifalarni bajardi:

- Inson resurslari bo'yicha harbiy donor – ommaviy ixtiyoriy safarbarlik va asosiy janglarda ishtirok.
- Sanoat fronti orti – 151 ta korxonaning tezkorlik bilan ishga tushirilishi va strategik aviatsiya mahsulotlarining ishlab chiqarilishi.
- Agrar baza – oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning sezilarli o'sishi.
- Gumanitar markaz – bir milliondan ortiq evakuatsiya qilinganlarni qabul qilish va gospitallar tarmog'ini yo'lga qo'yish.
- Xotin-qizlar va yoshlarning ijtimoiy safarbarligi hamda baynalmilal hamjihatlikning yuksak darajasi alohida e'tiborga sazovordir.
- Miqdoriy ko'rsatkichlar respublikaning yuksak darajadagi institutsional barqarorligini hamda iqtisodiyotning markazlashgan safarbarlik modeli samaradorligini namoyon etadi.



O'zbekistonning Ulug' Vatan urushidagi G'alabaga qo'shgan hissasi tizimli va strategik ahamiyatga ega bo'ldi. Respublika frontni yuz minglab jangchilar, minglab aviatsiya texnikasi birliklari, oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi xomashyosi, shuningdek, evakuatsiya qilingan aholiga ko'rsatilgan gumanitar yordam bilan ta'minladi.

Taxminan 538 ming kishilik talafot va yuz minglab mukofotlanganlar bilan O'zbekiston SSSRning asosiy frontorti hududlaridan biriga aylandi. Tadqiqot natijalari Ikkinchi jahon urushining umumiy harbiy-iqtisodiy tarixi nuqtayi nazaridan ittifoqdosh respublikalarning mintaqaviy hissasini yanada chuqurroq o'rganish zarurligini tasdiqlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Безугольный А.Ю., Бородкин Л.И. История Великой Отечественной войны: современные подходы. – М., 2022.
2. Буриева Х.А. Документы фонда №314 НА Уз как источник по изучению проблемы эвакуации населения в годы Второй мировой войны // История. Память. Люди: сб. статей VIII Междунар. науч.-практ. конф. – Алматы, 2017. 241-bet.
3. Батыров А.Е. Эвакуация в Северную Осетию в 1941–1942 гг. // Современные проблемы науки и образования. 2015. №2–1. URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=21107> (murojaat qilingan sana: 26.03.2026).

4. Ибрагимова З.Ф. Коммунисты Узбекистана – организаторы патриотических подвигов женщин республики в период Отечественной войны 1941–1945 гг. – М., 1953.
5. Ишанходжаева З.Р., Хазов В.К., Алмазова-Ильина А.Б. Вклад Узбекистана в победу над фашизмом во Второй мировой войне // Вопросы истории. –2020. №8. С. 205–211.
6. Ким П. Живи и помни: вклад Узбекистана в общую победу над фашистскими захватчиками // Ташкентская правда. 2000. 6 мая.
7. Книга памяти. Республика Узбекистан 1941–1945. Главная редакция энциклопедий. – Т., 1995.
8. Куманев Г.А. Война и эвакуация в СССР (1941–1942 гг.) // Новая и новейшая история. 2006. №6.
9. Лихоманов М.И., Позина Л.Т., Финогенов Е.И. Партийное руководство эвакуацией в первый период Великой Отечественной войны. – Л.: Наука, 1985. С. 24.
10. Обломуродов Н. Узбекистан – освобожденным районам страны в годы войны // Общественные науки в Узбекистане. 1995. №4.
11. Потемкина М.Н. Опыт интеграции эвакуированного промышленного оборудования в экономику уральского тыла (осень 1941 – весна 1942 гг.) // Технологос. 2024. №2. 51–59-betlr. Doi: 10.15593/perm.kipf/2024.2.04.
12. Сорокин А.К. (отв. ред.) Пути к победе: материалы XIII международной конференции (Екатеринбург, 21–24 июня 2021 г.). – Екатеринбург, 2021.
13. Этнодемографические процессы в Узбекистане. Материалы международной конференции. Ч. 2. – Т., 2005.
14. Юрьев В.А. Эвакуация, осуществлённая советским народом в период Великой Отечественной войны: интернациональный аспект проблемы: дис. ... канд. ист. наук. – М., 1995. – 174-bet.
15. OʻzMA – Oʻzbekiston Milliy arxivi.
16. OʻzMA fondlari boʻyicha yoʻlkoʻrsatkich. – Toshkent, 1988.
17. RGASPI – Rossiya davlat ijtimoiy-siyosiy tarixi arxivi.

G'ARB VA SHARQNI OZOD ETIB: O'ZBEKISTONLIK QAHRAMONLAR JASORATI

*Kobzeva Olga Petrovna – t.f.d., prof.
Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU
tarix fakulteti*

Ikkinchi jahon urushi tarixi o'zbekistonlik jangchilarning jahonni himoya qilib, G'arbni fashizmdan ozod etishda, shuningdek, Sharqda – Manchjuriyada Yaponiyaning militarist Kvantun armiyasiga qarshi janglarda ko'rsatgan jasorati va qahramonligi misollariga to'ladir.

1941–1945-yillardagi barcha jangovar harakatlarda – 1941-yil iyun oyidagi chegara janglari va Brest qal'asining qahramonona mudofaasidan tortib, Berlining olinishi, Praganing ozod etilishi hamda Uzoq Sharqdagi harbiy amaliyotlargacha – O'zbekistonning o'g'il-qizlari o'zlarini munosib ko'rsatdilar. Niderlandiyadagi Amersfort lagerining mahbuslari bo'lgan 101 nafar o'zbekning o'lmas jasorati qahramonlikning yorqin namunalaridan biridir. Gollandiyalik jurnalist va tadqiqotchi Remko Reyding ko'p yillar davomida ularning taqdirini sinchkovlik bilan o'rganib, urushning dastlabki kunlarida asirga tushgan o'zbekistonlik jangchilar 1941-yil 27-sentyabrda Belarus hududida joylashgan 366-sonli shtatlagdan Amersfort konslageriga keltirilganini aniqlagan.

Nemislar harbiy asirlarni g'ayriinsoniy sharoitlarda saqlab, qiynoqqa solib, ochlikda azoblab, Osiyo xalqlarining «nuqsonli» ekanini namoyish etish orqali ulardan mafkuraviy targ'ibot uchun foydalanishga uringanlar. Qasamyodi va burchiga sodiq qolgan o'zbeklardan birortasi ham Vatanga xiyonat qilmadi va dushman tomoniga o'tmadi. 1942-yil aprelga kelib 24 kishi holdan toyish, kasallik va qiynoqlardan halok bo'ldi. Turishga ham madori qolmagan 77 (yoki 78) kishi esa 1942-yil 9-aprelda lager ortidagi o'rmonda otib tashlandi. Bugungi kunda jasorat timsoliga aylangan qahramonlarning xoki Amersfortdagi «Sovet shon-sharaf maydoni»ga (Sovjet Ereveld) qayta dafn etilgan. Yurtdoshimiz Kamoljon Turg'unovning Stalingrad jangi paytida Pavlov uyini mudofaa qilgani (1942-yil 27-sentyabr – 25-noyabr) uning jasorati va qahramonligining yana bir namunasidir. O'zbekistonning Namangan viloyatida tug'ilgan

Kamoljon Turg'unov 1941-yil oxirida frontga chaqirilgan va u yerda tankka qarshi miltiq otuvchi (zirh teshuvchi) mutaxassisligini egallagan.

Pavlov uyi yarim vayrona holatdagi to'rt qavatli turarjoy binosi bo'lib, unda serjant Yakov Pavlov qo'mondonligi ostida 9 millatga mansub 30 nafarga yaqin sovet jangchisi 58 kun davomida mudofaani ushlab turgan. Nemislar o'zlariga butun bir batalyon qarshilik ko'rsatyapti, deb hisoblagan. Himoyachilar safida o'zbekistonlik jangchi Kamoljon Turg'unov ham bor edi (uyning tirik qolgan so'nggi himoyachisi, 2015-yilda 93 yoshida vafot etgan). Keyinchalik Ukraina, Belarus, Ruminiya, Vengriyani fashist bosqinchilaridan ozod etib, Germaniyaning Magdeburg shahrigacha yetib borgan Kamoljon Turg'unov Pavlov uyining mudofaasini o'z harbiy xizmatidagi eng murakkab va fojiali davr bo'lganini xotirlagan. Uyning yerto'lasida 20 nafarga yaqin ayol jon saqlagan va ulardan biri shu yerning o'zida qiz farzand ko'rgan (bugungi kunda u Rossiya Federatsiyasi IIV faxriysi, «Stalingrad farzandlari» jamiyati raisi Zinaida Petrovna Andreyevadir). Bunday g'ayriinsoniy sharoitlarda chaqaloqning dunyoga kelishi Pavlov uyi himoyachilariga bu mitti jonni saqlab qolish uchun kuch va jasorat bag'ishladi. Ikki marta yaralanib, vataniga qaytgan Kamoljon Turg'unov o'zining Bardanko'l qishlog'idagi kolxozda traktorchi bo'lib ishladi. U 14 nafar farzand, 62 nafar nabira, 85 nafar chevara tarbiyaladi. Zinaida Andreyeva esa umrbod uni o'z otasi deb bilib o'tdi.

Sobiq Yugoslaviya hududidagi Xalq ozodlik armiyasining partizan otryadlarida turli millatlarga mansub 6 mingdan ortiq SSSR fuqarosi jang qilgan. Shu o'rinda biz qahramon yurtdoshimiz Ziyomat Usmonovich Husanovni (1921-yil 9-may – 1986-yil 18-yanvar) yodga olmay ilojimiz yo'q.

Ziyomat Husanov Chimkent yaqinidagi Sayram qishlog'ida dehqon oilasida dunyoga kelgan. Toshkentda 7 yillik maktabni va Toshkent pedagogika texnikumining ikki kursini tamomlagan. 1940-yilda Qizil Armiya safiga chaqirilgan. Ulug' Vatan urushi boshlarida o'qchi polkda jang qilib, Stalingrad jangida yaralangan. Davolanib, frontga qaytgan va gvardiya serjanti unvonida Kursk jangida ishtirok etgan.

1943-yil 5-iyulda Belgorod yaqinidagi Dorogobujino qishlog'i yaqinidagi tepalikni himoya qilayotgan uning bo'linmasining barcha jangchilari halok bo'ladi. Yolg'iz qolgan Husanov so'nggi imkoniyat

qadar o'z pulemyotidan o't ochib, dushman hujumlarini qaytaradi. Nemislar uni qurshab olgach, o'zini granata bilan portlatib yuboradi. Barcha o'q-dorilarini sarflab bo'lgach, yaqinlashib kelayotgan nemis askarlariga granatalar ota boshlaydi va minomyot o'qiga uchraydi.

Safdoshlari uni halok bo'ldi, deb hisoblashgan. Shu bois qo'mondonlik taqdimnomasiga binoan, SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining 1944-yil 22-fevraldagi Farmoni bilan Janubi-G'arbiy front, 57-armiya, 25-o'qchilar korpusining 78-gvardiyachi o'qchilar diviziyasiga qarashli 228-gvardiyachi o'qchilar polki pulemyot bo'linmasi komandiri, gvardiya serjanti Z.U. Husanovga jangda ko'rsatgan jasorati va matonati uchun vafotidan so'ng Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni berilgan edi. Biroq Ziyomat Husanov halok bo'lmagan, og'ir yarador holda Xarkov yaqinidagi konslagerga tushib qolgan edi. U nemislar ertami-kechmi uning partiya a'zosi ekanini bilib qolib, otib tashlashlarini anglab yetgach, dushmanni aldashga, kollaboratsionist «Turkiston legioniga»ga qo'shilib, birinchi imkoniyat bo'lishi bilan qochib ketishga qaror qildi.

U xizmatga yuborilgan bo'linma sobiq Yugoslaviya hududiga tashlandi. 1944-yil 15-may kuni u yana 27 kishini ko'ndirib, jang bilan partizanlar tomoniga yorib o'tadi va asosan Yugoslaviya partizanlari tomoniga o'tgan bolgar askarlaridan tuzilgan Xalqaro partizanlar batalyoni tarkibida jang qiladi. Ziyomat Husanov Chernogoriya va Bolgariyada fashistlarga qarshi janglarda alohida jonbozlik ko'rsatadi. Janglarning birida og'ir yaralanadi. Uni mahalliy chernogoriyalik ayol topib qutqaradi va Italiya shimolidagi Turin shahrida joylashgan partizanlar hospitaliga yetkazishga yordam beradi. U yerda Ziyomat Husanov to'rt marta operatsiya qilinadi va bir yildan ortiq davolanadi. 1945-yilda, urush tugaganidan so'ng, u SSSRga qaytib keladi, biroq tuhmat sababli hibsga olinib, Vatanga xoinlikda ayblanadi. O'zining begunohligini isbotlashi uchun unga uch yil, SSSR Qahramoni unvonini qaytarib olishi uchun esa 13 yil kerak bo'ldi.

Bir necha yuz kishi, jumladan, KGB xodimlari, frontdosh safdoshlari, SSSR Mudofaa vazirligi va Oliy Kengashi, Sovet urush faxriylari qo'mitasi xodimlari, Bolgariya muzeylari va arxivlari xodimlari Z. Husanovga nisbatan tarixiy adolatni tiklash maqsadida uning jasoratlari haqidagi ma'lumotlarni qayta to'pladilar.

Va ular bunga erishdilar! 1968-yil 13-fevralda SSSR Oliy Kengashi Prezidiumining Farmoni bilan Z.U. Husanovning Sovet Ittifoqi Qahramoni unvoni tiklandi. Ziyomat Husanov umrining oxirigacha o'z ona qishlog'ida matematika o'qituvchisi bo'lib ishladi.

Toshkent, Sayram va Belgorod shaharlaridagi ko'chalar va maktablarga Ziyomat Husanov nomi berilgan.

Qahramonlar jasorati xotirasi muqaddasdir! Ularning qahramonligi o'lmasdir!

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Гуркин В. «Дом Павлова» – символ доблести и героизма советских воинов // Военно-исторический журнал. 1963. №2. С. 48–54.
2. Скончался последний защитник Дома Павлова Камолжон Тургунов – Новости Узбекистана – Gazeta <https://www.gazeta.uz/ru/2015/03/17/veteran/>
3. Забытые пленники: кем были узбеки, убитые нацистами в Голландии? – BBC News Русская служба // <https://www.bbc.com/russian/features-39865409>
4. Историк Кобзева: героизм узбеков в Америке - символ стойкости Средней Азии. // <https://tass.ru/obschestvo/27367301>
5. «101 nafar vatandosh izidan» loyihasiga start berildi // https://yumh.uz/ru/news_detail/158
6. Герой Советского Союза Хусанов Зиямат Усманович: Герои страны // https://warheroes.ru/hero/hero.asp?Hero_id=3327
7. Историк Кобзева: подвиг героя Хусанова важен в борьбе с реабилитацией фашизма // <https://tass.ru/obschestvo/27367257>
8. Хусанов Зиямат Усманович // https://belgorod-r31.gosweb.gosuslugi.ru/o-munitsipalnom-obrazovanii/pochetnye-grazhdane/pochetnye-grazhdane-2283_77.html

O‘ZBEKISTONLIK GENERALLAR: UMUMIY BUYUK G‘ALABAGA QO‘SHGAN HISSA

*Nazarov R.R. – falsafa fanlari nomzodi, dotsent,
Aliyeva V.R. – falsafa fanlari nomzodi, katta o‘qituvchi,
Iskakov D.A., Plexanov G.V. nomidagi Rossiya iqtisodiyot
universitetining
Toshkent filiali talabasi*

1941–1945-yillardagi Ulug‘ Vatan urushi butun sovet xalqi uchun og‘ir sinov bo‘ldi. Ozodlik va mustaqillik yo‘lidagi bu ulkan kurashda SSSRda istiqomat qilgan barcha millat vakillari yelkama-yelka turib jang qildilar. O‘zbekiston front chizig‘idan olisda joylashganiga qaramay, umumiy G‘alabaga beqiyos hissa qo‘shdi. Bu hissaning eng yorqin namunalaridan biri o‘zbek o‘g‘lonlari – generallarning urush olovidan sharaf bilan o‘tgan jasorati va sarkardalik iqtidoridir.

Taqdiri o‘zbek zamini bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan bu atoqli sarkardalarning nomlari Buyuk G‘alaba solnomalariga abadiy bitilgan. Ular diviziya, korpus va armiyalarga qo‘mondonlik qilib, eng qonli janglarda ishtirok etdilar va bu janglarda nafaqat strategik tafakkur va taktik bilimdonlikni, balki cheksiz jasorat, Vatanga sadoqat hamda o‘z askarlariga g‘amxo‘rlikni ham namoyon etdilar.

Bu qahramonlar kimlar edi?

Ular orasida O‘zbekiston farzandlari ham, o‘z hayotini shu respublika bilan bog‘lab, uning faxriy fuqarosi va himoyachisiga aylanganlar ham bor edi. Ularning harbiy faoliyati urushdan ancha oldin boshlangan bo‘lib, sinovli yillarda ular o‘zlarining to‘la salohiyatini namoyon etib, haqiqiy yetakchi va ilhomlantiruvchilarga aylandilar.

Umumiy hisobda Ulug‘ Vatan urushidan oldin, urush davrida va undan keyin general unvonini olgan 100 dan ortiq kishining nomi O‘zbekiston bilan bog‘liqdir. Armiya generallari – Iosif Apanasenko, Mahmud Gareyev, Mixail Kazakov, Aleksandr Luchinskiy, Nikolay Lyashchenko, Yuriy Maksimov, Ivan Petrov, Ivan Fedyuninskiy; General-polkovniklar – Aleksey Baksov, Stepan Belonojko, Aleksandr Debalyuk, Georgiy Kariofilli, Sergey Sardarov, Ivan Susaykov, Islom Xalipov;

General-leytenantlar – Sobir Oxunjonov, Viktor Bogdanovich, Saidgaray Gayfutdinov, Nikita Dyomin, Pyotr Zalizyuk, Viktor Kanarev, Stepan Kinosyan, Pavel Kurbatkin, Levon Melkumov, Izmoil Nagaybakov, Fayzulla Norxo'jayev, Leonid Petrovskiy, Viktor Poznyak, Axmetgarey Ramazanov, Midhat Solihov, G'ani Safiullin, Burhon Sirojiddinov, Nikolay Uranov, Ahmadjon Hojiboyev, Hasan Xaraziya, Yoqub Chanishev, Nikolay Shchukin, Quadrat Ergashev; Vitse-admirallar – Aleksandr Kuzmin, Ashot Sarkisov, Mixail Stepanov; General-mayorlar – Arsen Avtandilyan, Ilya Bagramyan, Yo'ldosh Bobojonov, Ahmad Bekbulatov, Ibrohim Bikjanov, Aleksandr Vashkevich, Shokir Giniyatullin, Nikolay Denisevich, Tojiddin Jalilov, Salim Zokirov, Vali Ibrohimov, Sotivoldi Irgashev, Karim Karimov, Mahmud Qosimov, Afanasiy Kochubey, Yoqub Quliyev, Tog'ir Qusimov, Zakiy Qutlin, Vasiliy Lebedev, Rahim Maqsutov, Sobir Rahimov, Arkadiy Rozenberg, Qurbon Ro'zmetov, Muxtor Sultonov, Iskandar Talkovskiy, Mullajon Uzoqov, Sag'it Ulamayev va boshqalar.

Ivan Yefimovich Petrov (1896–1958) hayoti va harbiy xizmatining katta qismini O'zbekistonda o'tkazgan, bu yerdagi harbiy qism va qo'shilmalarga qo'mondonlik qilgan inson. U front uchun kadrlar tayyorlashga va mamlakat mudofaasiga salmoqli hissa qo'shgan. I. Petrov eskadron komandirligidan Turkiston okrugi qo'shinlari qo'mondonligigacha bo'lgan yo'lni bosib o'tdi, urush yillarida armiya va frontlarga qo'mondonlik qildi, Odessa, Sevastopol, Kavkazni himoya qildi, Ukraina, Chexoslovakiya, Vengriya, Polshani ozod etdi, Berlinni ishg'ol qildi. U Sovet Ittifoqi Qahramoni, armiya generali, 15 ta orden (jumladan, 5 ta Lenin ordeni, 4 ta Qizil Bayroq ordeni, O'zbekiston SSR Mehnat Qizil Bayroq ordeni va boshqalar), ko'plab medallar, shuningdek, 10 ta xorijiy mukofot (Vengriya, Chexoslovakiya, Polsha, Xitoy, AQSH) sohibidir. General I.Y. Petrov obrazi kinematografiyada bir necha bor gavalantirilgan: «Olovli dengiz» (1970) filmida I.Y. Petrov rolini aktyor Nikolay Grinko, «Odessa jasorati» (1985) filmida aktyor Yuriy Dedovich, «Sevastopol uchun jang» (2015) filmida esa aktyor Valeriy Grishko ijro etgan. General Petrovga V.V. Karpovning «Sarkarda» nomli kitobi (Moskva, 1985) bag'ishlangan, u haqida jurnal va gazetalarda ko'plab maqolalar chop etilgan.

Sobir Umarovich Rahimov (1902–1945) – afsonaviy general-mayor, Sovet Ittifoqi Qahramoni. 1922-yildan armiyada xizmat qilgan. Uning nomi jasorat va matonat timsoliga aylangan. Urushni polk komandiri o‘rinbosari sifatida boshlab, 37-gvardiyachi o‘qchi diviziya komandiri sifatida yakunlagan. Kavkaz uchun janglarda, Belarus va Polshani ozod qilishda, Sharqiy Prussiyada dushmanni tor-mor etishda ishtirok etgan. Polshada Gdansk shahrini ozod etish chog‘ida halok bo‘lgan. Toshkentdagi «Birodarlar qabristoni» yodgorlik majmuasiga dafn etilgan. Sobir Rahimov nafaqat iste’dodli sarkarda («temir general»), balki o‘z jangchilari orasida adolati va g‘amxo‘rligi uchun chuqur hurmat qozongan inson ham edi va shu sababli «Ota» laqabini olgan. Lenin ordeni, to‘rtta Qizil Bayroq ordeni, II darajali Suvarov, II darajali Kutuzov, Qizil Yulduz ordenlari va medallar sohibi. 1967-yilda «General Rahimov» filmi suratga olingan (bosh rolda – SSSR xalq artisti Z. Muhamedjonov). General Rahimov haqida ko‘plab kitoblar yozilgan: P.I. Batovning «O‘zbek xalqining munosib farzandi» (Toshkent, 1947), L.U. Yusupovning «Yana jangga» (Toshkent, 1971), I. Zinchenkoning «Temir komdiv» (Toshkent, 1978), L.U. Yusupovning «Sobir Rahimov» (Toshkent, 1983) asarlari va boshqalar shular jumlasidandir.

Mullajon Karimovich Uzoqov (1907–1960) – general-mayor, armiyada 1929-yildan xizmat qilgan, Toshkent harbiy bilim yurtining harbiy-siyosiy bo‘limini tamomlagan. Urushni polkning harbiy komissari sifatida boshlab, front Siyosiy bo‘limi boshlig‘i lavozimida yakunlagan. Janubi-Sharqiy, Cho‘l, Stalingrad, Markaziy, 1-Belarus frontlari siyosiy bo‘limlari boshlig‘ining o‘rinbosari va boshlig‘i bo‘lgan. Stalingrad jangi, Ukraina, Belarus, Polshani ozod etish va Berlinni ishg‘ol qilish amaliyotlarida ishtirok etib, yuksak tashkilotchilik qobiliyati va shaxsiy jasorat namoyon etgan. Ikki marotaba Lenin ordeni, to‘rt marotaba Qizil Bayroq ordeni, Qizil Yulduz ordeni va ko‘plab medallar bilan taqdirlangan. Urushdan so‘ng O‘zbekiston SSR harbiy komissari bo‘lib xizmat qilgan, Toshkent shahridagi Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan.

Mahmud Tojiqulovich Qosimov (1901–1963) – Andijon shahrida tug‘ilgan, general-mayor, armiyada 1920-yildan xizmat qilgan. 1929-yilda Toshkent harbiy bilim yurtini tamomlab, chegara qo‘shinlarida xizmat qilgan. Urush yillarida batalyonga qo‘mondonlik qilgan,

polk komandirining o‘rinbosari va komandiri bo‘lgan, Ukraina va Chexoslovakiyani ozod etishda, Berlinni ishg‘ol qilishda qatnashgan. Urushdan keyin SSSRning Erondagi elchixonasida harbiy attashe, so‘ngra Farg‘ona viloyati harbiy komissari lavozimlarida ishlagan. Iste‘foga chiqqach, Farg‘ona shahar ijroiya qo‘mitasining raisi bo‘lgan. Farg‘ona shahrida dafn etilgan. Ikki marotaba Lenin ordeni, uch marotaba Qizil Bayroq ordeni, ikki marotaba Qizil Yulduz ordeni, 1-darajali Vatan urushi ordeni, «Hurmat Belgisi» ordeni va ko‘plab medallar bilan mukofotlangan.

Fayzulla Xo‘jayevich Narxo‘jayev (1911–1983) – general-leytenant, Namangan viloyati Chust tumani farzandi. 1929-yildan armiya safida, 1931-yilda Toshkent harbiy bilim yurtini tamomlagan. Urushgacha bo‘lgan davrda artilleriya vzvod komandirligidan artilleriya divizionni komandirligigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tgan. Urush yillarida polk shtab boshlig‘i, artilleriya polki komandirining o‘rinbosari va komandiri lavozimlarida xizmat qilgan. Urushdan keyin brigada, diviziya, korpusga qo‘mondonlik qilgan, okrug artilleriya boshlig‘i, Turkiston harbiy okrugi qo‘mondoni o‘rinbosari, Toshkent urush va mehnat faxriylari kengashi raisi bo‘lgan. Lenin ordeni, 4 ta Qizil Bayroq ordeni, 3-darajali Suvorov, 1-darajali Vatan urushi, Qizil Yulduz, «Faxriy nishon» ordenlari, nomli qurol, Polshaning «Jasorat xochi» ordeni hamda ko‘plab medallar («Stalingrad mudofaasi uchun», «Varshavani ozod qilganlik uchun», «Berlinni olganlik uchun» va b.) bilan taqdirlangan. «50 yil jangovar postda» (1982) kitobining muallifi. Toshkentdagi Chig‘atoy qabristoniga dafn etilgan.

Sobir Sobirovich Oxunjonov (1919–2012) – general-leytenant, Toshkent shahri farzandi. O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan madaniyat xodimi (1982), O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan yoshlar murabbiysi (1989). 1938-yildan armiya safida, 1940-yilda Toshkent harbiy bilim yurtini tamomlagan. Butun urushni leytenantlikdan (vzvod komandiri) mayorlikkacha (armiya shtabi boshlig‘i yordamchisi) bosib o‘tgan. Urushdan keyin mas‘ul lavozimlarda – diviziya havo hujumidan mudofaa (HHM) boshlig‘i, polk komandiri, Farg‘ona viloyati harbiy komissari, Respublika harbiy komissari o‘rinbosari, Fuqarolik mudofaasi shtab boshlig‘i, Toshkent urush va mehnat faxriylari kengashi raisi lavozim-

larida ishlagan. Qizil Bayroq, Mehnat Qizil Bayroq ordenlari, 3 ta 1 va 2-darajali Vatan urushi ordeni, 2 ta Qizil Yulduz ordeni va ko'plab medallar («Stalingrad mudofaasi uchun», «Berlinni olganlik uchun», «Pragani ozod qilganlik uchun» va b.) bilan taqdirlangan. Uning barcha mukofotlari taqilgan tantanali harbiy formasi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari davlat muzeyi ekspozitsiyasining bir qismidir. U ko'plab kitoblar muallifi: «Tabiiy ofatlarga qarshi kurash – umumxalq ishi» (1978), «Fuqarolik mudofaasi tizimida sanitariya drujinasi» (1982), «O'zbekiston fuqarolik mudofaasi hozirgi bosqichda» (1983) va boshqalar.

Bu ro'yxat, albatta, to'liq emas. Ildizi o'zbek zaminiga tutashgan yoki O'zbekistonda xizmat qilgan va yashagan boshqa ko'plab generallar va ofitserlar ham jang maydonlarida o'zlarini ko'rsatganlar. Ular eng muhim harbiy operatsiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashib, hal qiluvchi janglarda qo'shinlarga qo'mondonlik qilganlar, yuksak mahorat va fidoyilik namunasini ko'rsatganlar.

Umumiy G'alabaga qo'shilgan hissa faqat frontdagi janglardan iborat emas. Shuni unutmaslik kerakki, O'zbekistonning G'alabaga qo'shgan hissasi faqat o'z o'g'lonlarining jangovar harakatlardagi ishtiroki bilangina cheklanib qolmagan. Respublika front uchun ishonchli tayanchga aylandi. Bu yerga ko'chirib keltirilgan korxonalar joylashtirilib, ularda qurol-yarog' va o'q-dorilar ishlab chiqarildi. O'zbekiston yaradorlarni qabul qildi, frontchilarning oilalariga yordam ko'rsatdi, janggohlarga oziq-ovqat va issiq kiyim-kechaklar jo'natdi.

O'zbekistonlik generallar ana shu umumiy kurashning timsoliga aylandilar. Ular shunchaki sarkarda bo'libgina qolmay, umumiy g'oya yo'lida kurashgan xalqlar birligining ramzi ham edilar. Ularning qahramonliklari, jasorati va Vatanga sadoqati kelgusi avlodlar uchun o'rnak bo'lib xizmat qiladi.

Bugun Buyuk G'alabani yodga olar ekanmiz, bu uzoq kutilgan kunni yaqinlashtirgan barchaga o'z hurmat-ehtiromimizni bildiramiz. Ular orasida taqdiri O'zbekiston bilan chambarchas bog'liq bo'lgan generallar alohida o'rin egallaydi. Ularning nomlari, jasorati, fidoyiligi shunchaki tarix sahifalari emas, balki tinch hayot qanday badal evaziga qo'lga kiritilganining yorqin bir eslatmasidir.

Ularning sarkardalik dahosi eng murakkab vaziyatlarda namoyon bo'lgan. Ular noaniqlik sharoitida qaror qabul qilishni, jangchilarini jasoratga ruhlantirishni, o'ta qaltis lahzalarda nostandart yechimlar topishni bilganlar. Dushman mudofaasini shiddat bilan yorib o'tishmi, murakkab relyef sharoitida qo'shinlarni mohirona boshqarishmi yoki muhim marralarda mudofaani tashkil etishmi – har biri G'alabaning umumiy strategiyasiga o'zining betakror hissasini qo'shgan.

Masalan, *Sobir Rahimov* nafaqat diviziyaga qo'mondonlik qilgan, balki o'z atrofida g'alabaga bo'lgan sinmas iroda muhitini yarata olgan. Uning askarlari Rahimov bor joyda g'alaba bo'lishini bilishardi. Shaxsiy jasorati, ilg'or qismlar bilan birga jangga kirishga shayligi, har bir jangchiga g'amxo'rliqi – bularning bari uni shunchaki qo'mondon emas, balki askarlari sevgan va hurmat qilgan haqiqiy ota-qo'mondonga aylantirgandi. Uning diviziyasi eng shiddatli janglarni bosib o'tib, matonat va qahramonlik timsollaridan biriga aylandi.

Mullajon Uzoqov kursantlikdan Front Siyosiy bo'limi boshlig'igacha bo'lgan yo'lni bosib o'tib, nafaqat harbiy iste'dodini, balki inson ruhiyatini chuqur tushunishini ham namoyon etdi. U har bir jangchiga yo'l topa bilar, uni ruhlantirib, salohiyatini ochib bera olardi. Uning Moskva va Stalingrad mudofaasida, Ukraina va Polshani ozod etishda ishtirok etgani Vatan uchun tinimsiz kurashganidan dalolatdir.

Mahmud Qosimov mamlakat sarhadlarini himoya qilar ekan, jasorat va Vatanga sadoqat millat tanlamasligini ko'rsatdi. Uning front mudofaasiga qo'shgan hissasi beqiyos bo'lib, dushmanning ushbu muhim yo'nalishda oldinga siljishini to'xtatishga yordam berdi.

Ivan Petrov, garchi O'zbekistonda tug'ilmagan bo'lsa-da, uning sodiq farzandiga aylandi. U harbiy xizmatining asosiy qismini shu respublikada o'tab, kadrlar tayyorlashga, mintaqaning mudofaa qudratini mustahkamlashga ulkan hissa qo'shdi. Uning tajribasi va bilimi yosh ofitserlar avlodi uchun bebaho edi. Urushdan bir necha yil avval Toshkent harbiy bilim yurti boshlig'i bo'lgani ham bejiz emas.

Bu generallar va nomlari unchalik tanilmagan bo'lsa-da, G'alabaga qo'shgan hissasi shubhasiz bo'lgan boshqa ko'plab qahramonlar – umumiy maqsad yo'lida birlashgan turli millat vakillari buyuk ishlarga qodir ekanining yorqin namunasidir. Ular xalqning kuchi

uning birligida, umumiy xavf qarshisida jipslasha olishida ekanini isbotladilar.

O'zbekistonlik generallar xotirasi shunchaki o'tmishga ehtirom emas, ayni vaqtda bugungi kun va kelajak uchun yo'lchi yulduzdir. Bu – dunyoning naqadar mo'rt ekanini, uni himoya qilish doimiy hushyorlikni va fidokorona mehnatga tayyor turishni talab etishini eslatib turadi. Bu – tarixiy haqiqatni asrashga, sovet xalqining Ulug' Vatan urushidagi jasorati ahamiyatini buzib ko'rsatish yoki kamsitishga bo'lgan har qanday urinishga qarshi turishga da'vatdir.

Hayoti O'zbekiston bilan chambarchas bog'liq bo'lgan Sobir Rahimov, Ivan Petrov, Mullajon Uzoqov, Mahmud Qosimov va boshqa ko'plab insonlarning nomlari bizni tinchlik, ezgulik va adolat yo'lida jasorat ko'rsatishga ruhlantirib tursin. Ularning ibрати Buyuk G'alabaga umumiy sa'y-harakatlar bilan erishilganini, har bir inson, har bir respublika, har bir xalqning hissasi beqiyos ekanini doimo yodimizga solib tursin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Батов П.И. Достойный сын узбекского народа. О генерале Сабире Рахимове. – Ташкент: «Узгосиздат», 1947.
2. Герои Советского Союза – узбекистанцы. – Ташкент: «Узбекистан», 1984.
3. Исмаилова С.И. Дружба народов СССР – решающий фактор Великой Победы. – Ташкент: «Ёш гвардия», 1975.
4. Карпов В.В. Полководец. – М.: «Воениздат», 1985.
5. Касымов Махмуд Таджикулович // <http://forum.patriotcenter.ru/index.php?topic=41013.65;wap2>
6. Краснознаменный Туркестанский. – М.: «Воениздат», 1988.
7. Лучинский А.А. Генерал армии И.Е. Петров // Военно-исторический журнал. 1976. № 9. С. 121–122.
8. Лященко Н.Г. Генерал армии И.Е. Петров (К 90-летию со дня рождения). // Военно-исторический журнал. 1986. № 9. С. 88–92.
9. Писатели Узбекистана о Великой Отечественной войне. – Ташкент, 1982

10. Рахмат А. Узбекские генералы. – Ташкент: «Узбекистан», 1965.
11. Ташкентское общевойсковое училище имени В.И. Ленина. – Ташкент: «Узбекистан», 1978.
12. Узаков Муллажон Каримович // <https://tashkentpamyat.ru/uzakov-mullazhon-karimovich-voennijj-dejatel-.html>
13. Узбекистан в годы Великой Отечественной войны (1941–1945). – Ташкент: «Фан», 1966.
14. Узбекская ССР в годы Великой Отечественной войны (1941–1945 гг.). В 3-х т. Ташкент: «Фан», 1981–1985.
15. Юсупов Л.У. Сабир Рахимов. – Ташкент: «Ёш гвардия», 1983.

G'ALABA KUNIDAN XOTIRA VA QADRLASH KUNIGA: TARIXIY NARRATIVNING TRANSFORMATSIYASI

Asanova Svetlana Alekseyevna

*t.f.n., dotsent, «Rus tili chet tili sifatida» kafedrası mudiri
A.I. Gersen nomidagi RDPUning Toshkent shahridagi filiali*

SSSR parchalangach, postsovet davlatlarida tarixiy o'tmishni qayta idrok etish bo'yicha keng ko'lamli jarayonlar boshlandi va bu milliy o'zlikning yangi modellarini hamda xotira siyosatini shakllantirish bilan birga kechdi. Sovet tarixiy narrativida markaziy o'rin tutgan Ikkinchi jahon urushi voqealarini talqin qilishga doir yondashuvlarning o'zgarishi ushbu jarayonlarning asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Mustaqil davlatchilikning qaror topishi sharoitida urush xotirasi asta-sekin umumsovet tarixining bir qismi bo'lishdan to'xtab, tobora ko'proq milliy tarix kontekstiga kiritila boshladi.

O'zbekiston Respublikasi ham bu jarayondan mustasno bo'lmadi: bu yerda tarixiy xotirani o'zgartirish jarayonlari sovet merosini saqlab qolish bilan mustaqil milliy narrativni shakllantirish o'rtasidagi muvozanatni izlash bilan birga kechdi.

O'zbekistonda rasmiy xotira diskursining transformatsiyasi 1990–2000-yillardagi siyosiy, mafkuraviy va tashqi siyosiy jarayonlar bilan chambarchas bog'liq edi. O'zgarishlar nafaqat davlatning yodgorlik amaliyotlariga, balki ta'lim sohasi, maktab darsliklari, ommaviy ritorika va sovet o'tmishini talqin qilishga ham ta'sir ko'rsatdi. Tarixiy narrativning o'zgarishi ko'pincha Rossiya – O'zbekiston munosabatlari dinamikasi va respublikaning tashqi siyosiy yo'nalishlari o'zgarishi bilan hamohang kechdi.

Rossiya–O'zbekiston munosabatlari talqinidagi eng sezilarli o'zgarishlar 1990-yillarning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Bu davrda tarixiy nashrlarda Rossiya imperiyasi va sovet davlatining Markaziy Osiyodagi siyosatini tanqidiy qayta idrok etish kuchaydi. Ushbu jarayonlarning respublika tashqi siyosiy yo'nalishining o'zgarishi hamda G'arb davlatlari va mintaqaviy birlashmalar bilan faolroq hamkorlik qilishga intilishi bilan bir vaqtga to'g'ri kelgani e'tiborga loyiq. 1997-yil oktyabr oyida Strasburgda tarkibiga Gruziya, Ukraina, O'zbekiston, Ozarbayjon va Moldova kirgan GUUAM davlatlararo

birlashmasi tuzildi. Shu zaylda bir qator o'zbek o'quv nashrlarida Rossiyaning tarixiy o'tmishdagi o'ta tanqidiy obrazini shakllantirish tamoyili kuchaydi.

Bu jarayonlarda J. Rahimovning asarlari, xususan, uning «O'zbekiston tarixini o'rganishda arxiv materiallaridan foydalanish» (1997) nomli didaktik qo'llanmasi va 1999-yilda nashr etilgan 9-sinf uchun O'zbekiston tarixi darsligi alohida o'rin tutadi. Mazkur nashrlar nafaqat O'zbekistonda, balki Rossiyada ham keng jamoatchilik va ilmiy doiralarda katta rezonansga sabab bo'ldi. Ularda Rossiyaning mintaqadagi siyosatining mustamlakachilik jihatiga urg'u berilgan, bir qator tarixiy voqealarning talqini esa yaqqol salbiy tus olgan edi. Muallifning rus va o'zbek xalqlari o'rtasidagi do'stlikka putur yetkazish nomaqbul ekani haqidagi bayonotlariga qaramay, darsliklardagi ritorika «milliy» va «imperialistik» o'tmishni bir-biriga keskin qarama-qarshi qo'yishni shakllantirgan.

Ta'kidlash joizki, 2000-yillarning boshlaridayoq, O'zbekistonning Rossiya bilan asta-sekin yaqinlashuvi va Shanxay Hamkorlik Tashkiloti doirasidagi hamkorlikning kuchayishi fonida, maktab darsliklarida sovet o'tmishining ancha vazmin va xolis talqin etilishi kuzatila boshladi. 2002-yilda nashr etilgan 11-sinf uchun O'zbekiston tarixi darsligi bu kabi o'zgarishlarning yaqqol namunasidir. 1990-yillar oxiridagi nashrlardan farqli o'laroq, unda sovet davri yakunidagi voqealar tavsifi ancha yumshatilgan holda berilgan. Mualliflar asosiy e'tiborni 1980-yillar oxiri – 1990-yillar boshidagi siyosiy inqiroz, milliy jipslashuv zarurati hamda mustaqil davlatning o'ziga xos taraqqiyot yo'lini izlashga qaratganlar.

2003-yili Toshkentda bo'lib o'tgan «Tarix: obyektivlik va axloqiylik muammolari» mavzusidagi xalqaro anjuman ayni shu jarayonlarning bir in'ikosi bo'ldi. Tadbirda Rossiya va O'zbekiston tarixchilari ishtirok etib, unda muhokama qilingan asosiy mavzulardan biri ta'lim adabiyotlarida umumiy tarixiy o'tmishni talqin etish masalasi edi. E'tiborlisi, maktab darsliklari haqidagi bahs-munozaralar ilmiy doiradan ancha chetga chiqib, ikki davlat o'rtasidagi kengroq siyosiy va gumanitar muloqotning bir qismiga aylandi.

O'zbekistonda davlatning xotira siyosatidagi o'zgarishlarning eng yorqin ko'rinishlaridan biri 9-may bayramining qayta anglanishi bo'ldi.

Sovet davrida bu sana, avvalo, Ulug' Vatan urushidagi G'alaba kuni – sovet xalqining harbiy zafari, qahramonligi va ittifoqdosh respublikalar birligini ifodalovchi eng muhim davlat bayrami sifatida idrok etilgan. SSSR parchalanganidan keyin ham urush xotirasi o'zining muhim ijtimoiy ahamiyatini saqlab qoldi, biroq uning ramziy mazmuni yangi milliy o'zlikni anglashni shakllantirish vazifalariga muvofiq asta-sekin o'zgara boshladi.

1999-yil 2-martda O'zbekistonda davlat miqyosida 9-may bayramini Xotira va Qadrlash kuni deb qayta nomlash to'g'risida qaror qabul qilindi. Bu o'zgarish Ikkinchi jahon urushi xotirasidan voz kechish yoki natsizm ustidan qozonilgan g'alabaning ahamiyatini qayta ko'rib chiqishni anglatmas edi. Gap ko'proq memorial diskurs modelining o'zgarishi va o'tmishni talqin qilishdagi urg'ularning siljishi haqida borardi. Agar sovet an'anasi asosan davlatning qahramonona g'alabasi va harbiy jasorati g'oyasi atrofida qurilgan bo'lsa, yangi xotira konsepsiyasi insonlar taqdiri, urush qurbonlari, halok bo'lganlar xotirasi va faxriylarga hurmat ko'rsatishga e'tibor qaratdi.

Bunday transformatsiya aksariyat postsovet davlatlariga xos bo'lgan tarixiy xotirani milliyalashtirish jarayonlariga hamohang edi. O'zbekistonda urushni talqin qilishning sovet modelidan tashqariga chiquvchi tarixiy narrativ asta-sekin kengayib bordi. Diqqat markazida nafaqat frontdagi voqealar, balki respublika aholisining frontortini ta'minlashga qo'shgan hissasi, evakuatsiya qilinganlar taqdiri, urushning ijtimoiy oqibatlar va insoniy talafotlar ham bo'ldi. Shu tariqa, urush xotirasi O'zbekiston tarixining kengroq milliy kontekstiga integratsiya qilindi.

Shu bilan birga, bayramning rasmiy nomi o'zgartirilishi urush xotirasini qisman deideologizatsiyalash tendensiyasini ham aks ettirdi. Davlat diskursi faqat zafaron va militaristik ritorikadan asta-sekin uzoqlasha boshladi. Buning o'rniga xotiraning gumanistik jihati kuchaytirilib, uning doirasida urush avvalo millionlab odamlarning fojiasi sifatida qaraldi, faxriylar va halok bo'lganlar xotirasiga hurmat esa ijtimoiy jipslikning eng muhim unsuriga aylandi.

Ta'kidlash joizki, xotiraning bunday modeli sovet o'tmishi bilan vorisiylikni saqlab qolishga imkon berar, ayni vaqtda uni mustaqil

davlatning yangi siyosiy va mafkuraviy sharoitlariga moslashtirardi. O'zbekistonning rasmiy ritorikasida Ulug' Vatan urushi muhim tarixiy voqea sifatidagi xotirasidan voz kechilmadi, biroq urushning talqini fuqarolik o'zligini mustahkamlash hamda mustaqil davlat ramzlarini shakllantirishga yo'naltirilgan milliy tarixiy narrativga asta-sekin singdirib borildi.

Bu o'zgarishlar nafaqat rasmiy terminologiyada, balki yodgorlik amaliyotlari, ta'lim siyosati va ijtimoiy makonda ham o'z aksini topdi. 9-may xotira tadbirlari faxriylarni sharaflash, gullar qo'yish, oilaviy xotira va keksa avlodga hurmatni alohida ta'kidlash bilan o'ta boshladi. Maktab va universitet dasturlarida urush mavzusi muhim o'rinni egallashda davom etgan bo'lsa-da, e'tibor tobora ko'proq urush qatnashchilarining shaxsiy taqdirleri va O'zbekiston ahlining umumiy g'alabaga qo'shgan hissasiga qaratildi. Shu tariqa, sovet merosi unsurlari bilan milliy yodgorlik diskursini o'zida mujassam etgan tarixiy xotiraning yangi andozasi shakllantirildi.

Xotira maydonini shakllantirishda yodgorliklar, memorial majmualar va muzeylar muhim o'rin tutadi. Toshkent shahrida 2020-yilda ochilgan «G'alaba bog'i» yodgorlik majmuasi ana shunday eng muhim obyektlardan biridir. Mazkur majmua sovet an'anasi va urush tarixining milliy talqini unsurlarini o'zida birlashtirgan zamonaviy davlat xotira siyosatining ramziga aylandi. Majmua ekspozitsiyalari va ijtimoiy makonlari nafaqat harbiy tarixni namoyish etishga, balki urushda qatnashgan hamda front ortini ta'minlagan o'zbekistonliklar taqdiri haqidagi xotirani saqlashga ham yo'naltirilgandir. Bunday yondashuv xotirani insoniylashtirishga va tarixiy o'tmishning yanada shaxsiylashtirilgan idrokini shakllantirishga xizmat qiladi.

Avlodlararo muloqotning muhim unsuri sanaladigan oilaviy xotira ham alohida o'rin tutadi. Urush qatnashchilari, frontchilar, frontorti mehnatkashlari va evakuatsiya qilinganlarning yaqinlari haqidagi hikoyalar jamoat yodnoma makonining bir qismiga aylanib, ta'lim va madaniy-ma'rifiy loyihalarda faol foydalanilmoqda. Shu tariqa urush haqidagi xotira nafaqat tarixiy, balki ijtimoiy jipslashtiruvchi mexanizm vazifasini ham o'taydi. Ikkinchi jahon urushi xotirasi sobiq SSSR xalqlari

umumiy tarixining muhim qismi sifatida qaralishda davom etayotgan bo'lsa-da, ayni vaqtda mustaqil O'zbekistonning milliy narrativiga integratsiya qilinib, respublika va uning aholisining urush davri voqealariga qo'shgan hissasini alohida ta'kidlaydi. Bunda zamonaviy yodnoma diskursining markazida urushni boshdan kechirgan insonga hurmat va XX asrning eng yirik mojarosi fojiali oqibatlari haqidagi xotirani asrab-avaylash turadi.

OLDINGI SAFDA QUROLSIZ: IKKINCHI JAHON URUSHI YILLARIDA HARBIY OSHPAZLAR JASORATI

*Tursunova R.Yu. – t.f.d., prof.
JIDU Siyosatshunoslik kafedrası*

«Urushning qonuni azaldan bir: chekinsang – to‘yguncha ye, mudofaada – amallab, hujumda esa – qorin och».

A. Tvardovskiy

Ikkinchi jahon urushi voqealarini xotirlar ekanmiz, ko‘pincha mashhur uchuvchilar, artilleriyachilar va tankchilar haqida so‘z yuritamiz. Ammo ma‘lumki, har qanday askar, hatto u kamtarona oshpaz lavozimida bo‘lsa ham, jasorat ko‘rsatishi mumkin. Harbiy oshpazlar – ikkinchi eshelon vakillari bo‘lib, armiya ularsiz jangga kira olmas edi.

Total urush sharoitida nafaqat qurolli kurash, balki armiyani ta‘minlash tizimi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ulug‘ Vatan urushi yillarida harbiy xizmatchilarning asosiy, biroq yetarlicha o‘rganilmagan toifalaridan biri harbiy oshpazlar bo‘lgan. Qo‘shinlarning jangovar qobiliyatini saqlashga ular qo‘shgan hissa, garchi o‘ta muhim bo‘lsa-da, ko‘pincha e‘tibordan chetda qoladi.

Oziqlanish askarlarning jismoniy holati, chidamliligi va jangovar vazifalarni bajarish qobiliyatini belgilaydigan asosiy omildir. Oziq-ovqat ta‘minotidagi uzilishlar bo‘linmalarining jangovar ruhiyati va samaradorligi pasayishiga olib kelgan.

Frontdagi issiq ovqat nafaqat fiziologik, balki psixologik ahamiyatga ham ega edi. U: jangovar ruhni qo‘llab-quvvatlagan; g‘amxo‘rlik va barqarorlik hissini yaratgan; jamoani jipslashtirgan. Doimiy stress sharoitida bunday omillar armiyaning jangovar qobiliyatini saqlashda muhim rol o‘ynagan.

Askarlar ratsioni energiya sarfini to‘ldirish uchun zarur bo‘lgan kaloriyali taomlardan iborat edi. Shu bilan birga, oldingi chiziqda ovqat pishirish sharoitlari ko‘pincha o‘ta og‘ir bo‘lgan: yoqilg‘i, suv, anjomlar yetishmasligi, doimiy o‘qqa tutilish xavfi mavjud edi.

Harbiy oshpazlar bevosita front chizig‘iga yaqin joyda faoliyat yuritgan. Ular: dala oshxonalarida ovqat pishirgan; o‘q yomg‘iri ostida

ovqat yetkazib bergan; qo'shnlarning doimiy ko'chishlari sharoitida oziq-ovqat bilan ta'minlagan. Dala oshxonalari front infratuzilmasining muhim unsuriga aylangan. Garchi qurollari bo'lmasa-da, oshpazlar ko'p hollarda jangovar vaziyatga tushib qolgan.

Tarixda harbiy oshpazlarning jasorat va fidoyilik ko'rsatgan holatlari ko'p uchraydi. Masalan, qamaldagi Leningrad novvoyi Daniil Ivanovich Kyutinen nomi tarixda saqlanib qolgan. U 59 yoshida ish joyida holsizlikdan vafot etgan, biroq birovning bir gramm nonini ham yeb qo'ymagan edi¹.

Ammo eng ko'p ma'lumot Ivan Seredaning qahramonligiga bag'ishlangan. Ivan Sereda 1919-yilda Donetsk viloyatining Aleksandrovka qishlog'ida tug'ilgan. U yoshligidan pazandalikka qiziqib, maktabni bitirgach, Donetsk oziq-ovqat texnikumiga o'qishga kirgan. 1939-yilda yosh oshpaz Qizil Armiya safiga chaqiriladi. 1941-yilning yozida nemislar turli yo'nalishlarda faol hujumga o'tishdi. O'sha paytda Sereda xizmat qilayotgan polk Latviyaning Daugavpils shahri yaqinida joylashgan edi. Gitler qo'shinlarining yurishi shu qadar shiddatli ediki, askarlar g'aflatda qolishdi. Oddiy bir avgust kuni edi. Oshpaz har doimgidek dala oshxonasi yonida butun polk uchun tushlik tayyorlayotgan edi. To'satdan Sereda ochiq maydonga chiqib kelgan tankni ko'rib qoldi. Mashina nemislarniki ekaniga shubha yo'q edi. Oshxona ortiga berkinib olgan oshpaz o'zining kamtarona imkoniyatlarini chamaladi – qo'lida faqat miltiq va bolta bor edi, xolos².

Ayni paytda tank yaqinroq kelib, undan ekipaj a'zolari birin-ketin chiqa boshladi. Shunda Ivan oshxona ortidan yugurib chiqib, tankka tashlandi. Nemislar darhol tankka qaytib, tank pulemyotidan o't ochishga urinishdi. Ammo o'limdan qo'rqmagan jasur Sereda qurolga bolta bilan urib, uning stvolini egib qo'ydi. So'ngra u tezda mashinaning kuzatuv darchasini bir parcha brezent bilan yopib oldi. Shu bilan birga, oshpaz yaqin atrofda bo'lmagan askarlarga tinimsiz buyruqlar berib qichqirardi. Gitlerchilar rostdan ham o'zlariga bolta bilan qurollangan jasur qo'mondon boshchiligidagi butun bir sovet polki hujum qildi, deb

¹ Даниил Кютинен. История о том, как пекарь в блокадном Ленинграде оказался истинным героем. – <https://dzen.ru/a/Y58M32dvZ1Cz81mk>

² Трокаева А.А. «Кавалеры Золотой Звезды. Очерки о Героях Советского Союза». – Донецк: «Донбасс», 1976, С. 377–378.

o'ylashdi. Ivan Pavlovich tankni granatalar bilan uloqtira boshlaganida, nemislar dosh berolmadi. Ular tankdan tushib, taslim bo'lishdi. Seredaning miltig'i nishoni ostida bir-birlarining qo'llarini bog'lashlariga to'g'ri keldi. Asirlar birgina odamga qarshi jang qilganlarini, aftidan, shundan keyingina anglab yetishgan bo'lsa kerak. Polk jangchilari dislokatsiya joyiga qaytib kelganlarida esa hayratdan yoqa ushlashdi. Oshxonaning ro'parasida dushman tanki turar, uning yonida to'rt nafar qo'li bog'langan nemis o'tirar va qo'lida miltiq siqimlagan oshpaz turardi.

Bu jasur oshpazning birinchi, ammo aslo oxirgi bo'lmagan jasorati edi. Bir necha oy o'tgach, u yana ko'zga tashlandi. Bu safar Sereda dushman hududida razvedka o'tkazayotib, bir bog'lam granata bilan nemis tankini portlatib yubordi. Oradan biroz vaqt o'tib esa pulemyotchining o'rnini egallab, dushmanning yigirmadan ortiq mototsiklchisini yo'q qildi.

1942-yili Ivan Pavlovich og'ir yaralandi, biroq sog'ayib, yana frontga qaytdi. U jangovar yo'llarni bosib o'tib, g'alabaga qadar yetib bordi. Katta leytenant unvonigacha ko'tarilgan Ivan Pavlovich urushdan keyingi yillarda xizmatni tark etdi. Ivan Sereda Aleksandrovka qishlog'ining chinakam afsonasiga aylandi. Oddiy polk oshpazi Sovet Ittifoqi Qahramoni bo'ldi. Ivan Pavlovich o'z misolida hatto eng kamtarin vazifada bo'lib ham haqiqiy qahramonlik ko'rsatish mumkinligini, eng oddiy oshpaz ham g'olib jangchi bo'la olishini isbotladi.

Harbiy oshpazlar askarlarni issiq ovqat bilan ta'minlash uchun o'q yomg'iri ostida, o'z hayotlarini xavfga qo'yib, vazifalarini bajarishda davom etdilar. Ayrim hollarda oshpazlar: yaradorlarni qutqargan; pozitsiyalarni himoya qilishda qatnashgan; vayronagarchiliklardan so'ng ta'minotni tiklagan. Ularning faoliyati kasbiy majburiyatlar doirasidan ancha chetga chiqib, qahramonlik darajasiga ko'tarilgan edi.

1942-yilning bahoridan ayollar erkaklarning o'rnini bosa oladigan lavozimlarga ixtiyoriy ravishda safarbar qilina boshlandi. Harbiy oshpazlik ana shunday lavozimlardan biri bo'lib, front ta'minotining bu sohasiga 28,5 ming nafar ayol jalb etildi.

Oshpazlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratilgan, bu lavozimga bilim yurtlarida yoki front kurslarida olti oylik tayyorgarlikdan o'tgan harbiy xizmatchilar jalb qilingan. 1943-yilning o'zida shtatdagi front kurslarida 24,5 mingdan ortiq oshpaz tayyorlandi. 1943-yilda harbiy

xizmatga chaqirilgan bir guruh maryanovlik qizlar 1941-yilning mart oyida shakllantirila boshlagan Omskdagi intendantlik bilim yurtida tahsil olgan. 1941-yilning noyabr-dekabr oylarida SSSR Mudofaa xalq komissarligi qarori bilan Yaroslavl harbiy-xo'jalik bilim yurti Omskka ko'chirildi. Bilim yurti qoshida 6 oylik katta oshpazlar kurslari ochilgach, 1943-yildan boshlab ularga qizlar ham qabul qilina boshlandi¹.

Xo'sh, front oshpazi nimalarni bilishi kerak edi? Tarif-malaka ma'lumotnomasiga ko'ra, urush davridagi oziq-ovqat bloki xodimi nafaqat pazandalik san'atiga oid, balki boshqa ko'plab bilim va ko'nikmalarga ham ega bo'lishi lozim edi. Oshpaz – bu ham askar, zarurat tug'ilganda yarador yoki halok bo'lgan Qizil armiya askarlarining o'rnini bosa oladigan jangchidir. Front oshpazi safdan chiqqan pulemyotchi, mergan va granatamyotchilarning o'rnini egallab, turli xil qurollarni ishlata bilish hamda ularni jangda qo'llay olish malakasiga ega bo'lishi kerak edi. Taktik mashg'ulotlarda hali janglarda qatnashmagan yoshlar tajribali ustalar rahbarligida ovqat pishirishni, uni xandaqlarga yetkazib berishni, o'zining dala oshxonasini niqoblashni o'rgandilar.

Ulug' Vatan urushi davridagi dala oshxonalari askarlarimiz uchun shunchaki qorin to'ydiradigan ko'chma oshxona emas edi. Dala oshxonasi tinch hayotning olisdagi iliq muhitini yodga solardi. Bular jangchi mazali borshch, gulyash, bo'tqadan tanovul qilib, safdoshlari bilan erkin suhbatlashib, huzur qiladigan sanoqli osoyishtalik va dam olish daqiqalari edi. Shu bois dala oshxonalari jangovar bo'linma hayotining haqiqiy markaziga aylangandi. U yerga vaqti-vaqti bilan tinch aholi, ayniqsa, dala oshxonalarida jon deb ovqatlantiriladigan bolalar ham kelib turishardi.

Qizil armiya askarlari va kichik komandirlar tarkibining kunlik ta'minoti quyidagicha bo'lgan: 800 grammdan 900 grammgacha non (yil fasliga qarab), 500 g kartoshka, 30 g cho'chqa yog'i yoki kombijir, sabzavotlar, tuz, 140 g yorma, o'simlik yog'i, 1 g choy, 150 g go'sht, makaron. Harakatdagi armiyaning o'rta va boshliqlar tarkibiga belgilangan me'yordan tashqari bir sutkada: 40 g sariyog' yoki cho'chqa yog'i, 50 g baliq konservalari, 25 dona papiros yoki 25 g tamaki, oyiga 10 quti gugurt berilgan. Taqqoslash uchun: frontdagi samolyotlarda avariya va majburiy qo'nish holatlari uchun oziq-ovqat zaxirasi bo'lishi lozim edi.

¹ Боевые повара. <https://gazeta-avangard.ru/articles/media/2022/3/2/boevyye-povara/>

Bir kishi uchun – 800 g «Kreker» galetasi, 3 banka quyultirilgan sut, 300 g shokolad, 400 g shakar, 3 banka go'sht konservalari¹.

Harbiy-dala oshxonasining sevimli taomlari kulesh, borshch, shchi, palov, dimlangan kartoshka, go'shtli grechka bo'lgan. Garchi, albatta, urush sharoitlari taomnomaga o'z ta'sirini o'tkazmay qolmasdi. Taomlar oddiygina tayyorlanar, ko'pincha oshpaz qozonda go'sht, yorma, sabzavotlar – qo'l ostida nima bo'lsa, bari-bir aralashtirib yuboraverardi. Natijada kulesh (go'shtli suyuq bo'tqa) yoki «sabzavotli aralash-quralash» hosil bo'lishi mumkin edi. «Shchi-yu bo'tqa – yemagimiz shu», – deb takrorlardir jangchilar, frontdagi oddiy hayotlarini ayni tarzda tasvirlab.

Aytish joizki, dala oshxonasida bo'tqalarga alohida e'tibor qaratilgan. Albatta, bir xil pishirilgan yormaning o'zi tezda me'daga tegadi. Shu sababli bo'tqani xilma-xil qilishga harakat qilib, uning ta'mini o'zgartiradigan yoki ziravor o'rnini bosadigan qo'shimcha masallqlar – smorodina va olcha barglarini qo'shishgan, negaki lavr yaprog'i va murch o'sha paytda noyob narsa edi. Tajribali oshpazlar dala sharoitida, oziq-ovqat yetarli bo'lmaganda ham, xalqona tilda aytganda, «oyoq ostidagi ne'matlar»: qo'ziqorin, yeyishga yaroqli ildizlar, turli o'tlar va hokazolardan ajoyib tushlik tayyorlay olishgan. Askarlar oshpazining asosiy qutqaruvchilari, omadi kelsa, piyoz va sarimsoq, bahorda esa o'rmon yovvoyi sarimsoqpiyozi va yovvoyi sarimsoq bo'lgan. Ammo petrushka, ukrop, angelika va qichitqi o't juda qadrlangan. Yog' o'rniga odatda charvi yog'dan foydalanilgan: eritilgani, ich yog'i, tuzlangani, dudlanganidan. Undan jizza qilib, bo'tqaga qo'shishgan. Kuleshga esa nafaqat yorma, balki yanada to'yimli va quyuqroq bo'lishi uchun kartoshka ham solishgan. Askarlarning mashhur «makalovka»si keng tarqalgan: muzlatilgan go'sht konservalari mayda to'g'ralib, qovurilgan piyoz bilan aralashtiriladi, suv qo'shib qaynatilsa, o'sha mashhur askar taomi hosil bo'ladi. Uning quyuq qismini qoshiqda yeb, yog'li sho'rvasiga non botirishgan, nomi ham shundan kelib chiqqan.

Jasorat ko'rsatmagan, katta mukofot olmagan, ammo urushdan o'tib, sovet xalqining g'alabasiga o'z hissasini qo'shganlarni, xususan, oshpazlik kasbi egalarini ham unutmaslik kerak. 1943-yilning 8-iyulidagina Qizil Armiyaning oddiy askarlari va kichik komandirlari

¹ О военной каше и хлебе. – <https://topwar.ru/88908-o-voennoy-kashe-i-hlebe.html>

orasidan alohida ajralib turgan oshpaz va novvoylarni ragʻbatlantirish uchun koʻkrak nishonlari taʼsis etildi. «Aʼlochi oshpaz» nishonida Turchanovichning dala oshxonasi tasvirlangan edi. Umumiy hisobda 33 000 ga yaqin kishi «Aʼlochi oshpaz» va «Aʼlochi novvoy» nishonlari bilan taqdirlangan¹.

Oshpazlar faoliyatiga eng yuqori bahoni askarlarning oʻzlari bergan. Ular shunday tan olishardi: jang maydonida oshpaz – qoʻmondondan keyingi ikkinchi odam. Uni iloji boricha asrab-avaylashar, himoya qilishardi, chunki baʼzan oʻq yomgʻiri ostida ovqat pishirishga toʻgʻri kelardi. Qolaversa, askarlar tamaddi qilib olishi uchun tayyor taomni jang maydoniga yetkazib berish ham gohida oshpazning zimmasida edi.

Shunday qilib, harbiy oshpazlar front tizimining ajralmas bir qismi boʻlgan. Ularning Ikkinchi jahon urushidagi gʻalabaga qoʻshgan hissasi nafaqat oziq-ovqat bilan taʼminlash, balki qoʻshinlarning maʼnaviy va jismoniy holatini saqlab turishdan ham iborat. Harbiy oshpazlarning jasorati shuni koʻrsatadiki, urushdagi qahramonlik nafaqat qoʻlda qurol bilan jang maydonida, balki oʻlim xavfi sharoitidagi kundalik fidoyi mehnatda ham namoyon boʻladi.

ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. <https://dzen.ru/a/Y58M32dvZ1Cz81mk>
2. Боевые повара – Статьи – Сетевое издание «gazeta-avangard.ru»
3. <https://topwar.ru/88908-o-voennoy-kashe-i-hlebe.html>
4. <https://gazeta-avangard.ru/articles/media/2022/3/2/boevyie-povara/>

¹ Боевые повара. – <https://gazeta-avangard.ru/articles/media/2022/3/2/boevyie-povara/>

TARIX VA ULUG‘ VATAN URUSHI YAKUNLARI SOXTALASHTIRUVCHILARI QANDAY MAQSADLARNI KO‘ZLAYDI?

*Nikolay Plotnikov, p.f.d., dotsent, general-mayor (iste' fodagi)
Ilmiy-tahliliy axborot markazi rahbari
Rossiya Fanlar akademiyasi Sharqshunoslik instituti*

Hurmatli o‘rtoqlar, hamkasblar!

Avvalambor, Baxtiyor Ismoilovichga anjumanga taklif etgani uchun o‘z minnatdorchiligimni bildirmoqchiman. Bu juda zarur, muhim va dolzarb tadbiridir.

Tarix hamisha qaqshatqich kurash maydoni bo‘lgan, shunday bo‘lib qolmoqda va shunday bo‘lib qoladi. Ayniqsa, Ulug‘ Vatan urushi tarixi va yakunlari borasida. O‘sha davrning fojiali voqealari bizdan qanchalik uzoqlashsa, bu kurashning shiddati shunchalik keskinlashib boradi. Zarba, eng avvalo, xalqning tarixiy xotirasiga beriladi. Tarixchi Vasiliy Osipovich Klyuchevskiy aytganidek, kimki o‘z o‘tmishini unutsa, uning kelajagi yo‘q. Bu zarba nafaqat sobiq Sovet Ittifoqi xalqlarining birligiga, balki Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari jamiyatlarida nifoq solishga ham qaratilgan. Birlik va umumiy qadriyatlardan mahrum, o‘zaro anglashuv bo‘lmagan jamiyat tanazzulga, hatto halokatga olib kelishi mumkin bo‘lgan jiddiy xatarlarga duch keladi.

Ulug‘ Vatan urushi tarixi va yakunlarini soxtalashtirishda jamoaviy G‘arb mamlakatlari, ko‘pincha Qo‘shma Shtatlar, Britaniya, Polsha, Finlyandiya, Chexiya, Boltiqbo‘yi mamlakatlari va Ukraina eng faol va tajovuzkorona harakat qilmoqda. Tarixni soxtalashtirish axborot urushining tarkibiy qismidir.

Ulug‘ Vatan urushi tarixi va yakunlarini soxtalashtirishning asosiy yo‘nalishlari.

Avvalo, bu Ikkinchi jahon urushini boshlab berishda Gitler va Stalin zimmasiga «teng mas’uliyat» yuklashga bo‘lgan urinishdir.

Buni ilgari surishda, ayniqsa, Polsha va Boltiqbo‘yi mamlakatlari jonbozlik ko‘rsatmoqda. Shu bilan birga, polyaklarning o‘zlari Gitler

bilan birgalikda Sovet Ittifoqiga bostirib kirishga tayyor bo'lgani va 1938-yilda Polshaning Chexoslovakiyani bo'lib tashlashda ishtirok etgani haqida lom-mim demaydi. Aynan shundan so'ng Uinston Cherrhill o'zining «Ikkinchi jahon urushi» nomli xotira asarining «Yevropada shom» deb nomlangan bobida Polshani «Yevropa sirtloni» deb atagan edi.

Ukrainadagi bugungi rejim ham polyaklar bilan hamfikrdir. V. Zelenskiy 2020-yil yanvar oyida Polshaga qilgan tashrifi chog'ida Ikkinchi jahon urushini boshlaganlikda fashistlar Germaniyasi qatori SSSRni ham aybladi.

Ayrimlar hatto 6 million yahudiyning o'limiga sabab bo'lgan Xolokost uchun Gitler emas, Stalin aybdor, degan to'xtamga keldi. Biroq ayni paytda Germaniya va Avstriyadagi «Billur tun» deb atalgan voqealardan so'ng yahudiylarga boshpana berishdan bosh tortish uchun aynan G'arb davlatlari qo'lidan kelgan barcha ishni qilganini eshitishni ham istamaydilar.

Ikkinchi yo'nalish – fashistlar Germaniyasi va uning ittifoqchilarini tor-mor etishda Sovet Ittifoqi hamda uning Qurolli Kuchlarining hal qiluvchi rolini kamsitishdan iborat.

Butun urush davomida Germaniya va uning satellitlari asosiy kuchlari sovet–german frontiga jalb qilingan edi. Qizil Armiyaga qarshi Finlyandiya, Vengriya, Ruminiya, Italiya, Slovakiya va Ispaniyaning 190 tadan 286 tagacha eng jangovar diviziyalari harakat qilgan bo'lsa, ingliz–amerika qo'shinlariga Shimoliy Afrikada 9 tadan 20 tagacha, Italiyada 7 tadan 26 tagacha, G'arbiy Yevropada esa (Normandiyaga qo'shin tushirish boshlangach) 56 tadan 75 tagacha diviziya qarshilik ko'rsatgan.

Sovet–german frontida harbiy harakatlar eng shiddatli va keng ko'lamda olib borildi. Sharqiy frontning uzunligi 4–6 ming km ni tashkil etib, bu Shimoliy Afrika, Italiya va G'arbiy Yevropa frontlari umumiy uzunligidan to'rt barobar ko'p edi. Sovet–german frontidagi 1418 kundan 1320 kuni (93%) faol janglar bilan o'tdi. Shimoliy Afrika frontidagi 973 kundan 309 kuni (31%), Italiya frontidagi 663 kundan 492 kuni (74%), G'arbiy Yevropa frontidagi 338 kundan esa 293 kuni (86,7%) faol janglarga to'g'ri keldi. Sharqiy frontda sovet qo'shinlari dushmanning 607 diviziyasini tor-mor keltirdi (bu natsistlar

Germaniyasi va uning yoʻldoshlarining urush yillaridagi umumiy yoʻqotishlarining 75 foizidir). Sovet–german fronti oʻzining koʻlami va strategik ahamiyatiga koʻra butun Ikkinchi jahon urushi davomida ustuvor yoʻnalish boʻlgan. Moskva, Leningrad, Stalingrad yaqinidagi, Kursk yoyidagi, Dnepr boʻyidagi, Belorussiya va Boltiqboʻyidagi eng yirik janglarda sovet qoʻshinlari dushmanni hal qiluvchi magʻlubiyatga uchratdi. Urush yillarida Qizil Armiya dushmanning 75 foizgacha qurol-yarogʻ va harbiy texnikasini yakson qildi.

Ammo bugungi kunda bu dalillarning barchasi shubha ostiga olinmoqda. Goʻyoki bizning tarafimizdan olib borilgan urush maʼnosiz, tajovuzkorga qarshilik koʻrsatish besamar, sovet davlatining yonini olgan Gʻarb mamlakatlarining tutgan mavqeyi esa xato boʻlgan emish. Soʻnggi soʻrovnomalarga koʻra, Yevropa aholisining salmoqli qismi fashizmni tor-mor etishda asosiy xizmat AQSH va Britaniyaga tegishli, Sovet Ittifoqining urushdagi oʻrni esa arzimasi boʻlgan, deb hisoblaydi.

Uchinchi yoʻnalish – Sovet Qurolli Kuchlarining ozodlik missiyasini inkor etish.

Buni, ayniqsa, Boltiqboʻyi, Sharqiy va Markaziy Yevropa mamlakatlarida isbotlashga urinishadi va Boltiqboʻyi mamlakatlari Sovet Ittifoqi tarkibiga majburan qoʻshib olingach, bir totalitar tuzum oʻrnini boshqasi egalladi, deya daʼvo qilishadi.

Tarixni qayta koʻrib chiqish tarafdorlari (revizionistlar) Stalin SSSR hududi ozod etilgach, qoʻshinlarni chegarada toʻxtatmay, xatoga yoʻl qoʻygan, deb taʼkidlaydi. Ammo Gʻarb ittifoqchilari oʻz kuchlari bilan Yevropani ozod qila olarmidi? Nemis qoʻshinlarining Ardennessdagi amaliyotidan soʻng, Qizil Armiya ishtirokisiz buning imkoni yoʻqligi ayon boʻldi. Bundan tashqari, Yalta kelishuvlari Gitlerga qarshi koalitsiya mamlakatlari zimmasiga fashistlar Germaniyasini butunlay tor-mor etish va uning soʻzsiz taslim boʻlishiga erishish majburiyatini yuklagan edi. Hech qanday holatda ham fashizmni chala magʻlub qilib qoldirib boʻlmasdi.

7 millionga yaqin sovet jangchisi Yevropaning 11 mamlakati hududida, yaʼni 1 million kvadrat kilometrdan ortiq maydonda dushmanga qarshi shiddatli janglar olib bordi. Natijada aholisi 113 million kishidan ziyod boʻlgan Ruminiya, Polsha, Bolgariya, Yugoslaviya,

Chexoslovakiya, Vengriya, Avstriya va Germaniya hududlari to'liq yoki qisman ozod etildi.

To'rtinchi yo'nalish – ukrain millatchilari, Rus ozodlik armiyasi (vlasovchilar), Boltiqbo'yi respublikalari millatchilari, Gruziya va Turkiston legionlari safidagi xoinlarni qahramonlashtirish hamda ularning faoliyatini oqlashdir.

Bu neonatsistik kayfiyatlarning kuchayishiga olib kelmoqda. Ukraina va Boltiqbo'yi mamlakatlarida buni yashirishmayapti. U yerlarda Ulug' Vatan urushi qahramonlari o'rnini bosqinchilar tarafida jang qilgan, o'z xalqining qonini to'kkan, Xolokostda ishtirok etgan, Belorussiya, Ukraina va Polsha hududlaridagi qishloqlarni yoqib yuborganlar egalladi. Xoinlar milliy qahramonlarga aylanib, Ulug' Vatan urushi qatnashchilariga tenglashtirildi.

Turli sabablarga ko'ra, urushdan oldingi davr va Ulug' Vatan urushiga oid ko'plab hodisalar hanuzgacha arxivlarda saqlanib, o'z tadqiqotchisini kutmoqda. Bunga bir necha bor ishonch hosil qilganman.

Afsuski, Ulug' Vatan urushining og'ir sinovlaridan o'tib, yoshlarga voqelik aslida qanday bo'lganini so'zlab bera oladiganlar safi ham tobora siyraklashmoqda. Tarixni buzib ko'rsatishga urinayotgan soxtakorlar aynan shu vaziyatdan foydalanmoqda.

Tarixiy xotirani himoya qilishda tizimli ishlash zarur, bunda faqat muayyan sanalarga bag'ishlangan tadbirlar bilangina cheklanib qolmaslik kerak. Arxiv hujjatlari bilan ham tizimli ravishda ishlash lozim. Rossiyada bu ish bilan idoraviy ilmiy-tadqiqot tashkilotlari hamda Rossiya Fanlar akademiyasi institutlari shug'ullanadi.

«G'alaba diktanti» juda ommalashib ketdi. U 2019-yildan beri o'tkazib kelinadi. An'anaga ko'ra, Rossiya harbiy-tarixiy jamiyati ushbu aksiyaning hamkori hisoblanadi.

Bu yil u sakkizinchi marotaba o'tkazildi. Diktant Rossiyaning barcha hududlarini, shuningdek, 75 ta xorijiy davlatni qamrab oldi. U 37,7 mingdan ortiq maydonchada o'tkazildi va xalqaro maqomga ega. Biz tarixiy xotiramiz va umumiy tariximizni himoya qilishda sa'y-harakatlarimizni birlashtirishimiz zarur.

So'zim yakunida shuni ta'kidlamogchimanki, bugungi tadbir aynan shu maqsadga xizmat qiladi. Baxtiyor Ismoilovich, fidoyiligingiz uchun Sizga katta rahmat.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Кикнадзе В.Г., Изонов В.В. Великая Отечественная война 1941–1945 гг. Мифы и реальность: I часть / Под ред. В.Б. Зотова, И.И. Басика. – М.: Изд-во «Юго-Восток-Сервис», 2010. 60-bet.
2. Казаков А.В. Фальсификация истории и итогов Великой Отечественной войны как направление деструктивного воздействия на сознание современной российской молодежи // Власть. 2015. Том. 23. №5, 8–13-betlar.
3. Кикнадзе В. Г. Российская политика защиты исторической правды и противодействия пропаганде фашизма, экстремизма и сепаратизма: Монография. Москва: Прометей, 2021. – 800 bet.
4. Корнеев В.В. Шевелева К.В. Фальсификация исторических событий Великой Отечественной войны 1941–1945 гг. и комплекс правовых мер по ее предотвращению. // Журнал Пролог. №4, 2025.
5. Матвиенко Ю.А. Фальсификация истории Великой Отечественной войны как один из инструментов разрушения субъектности России. // Научный вестник оборонно-промышленного комплекса России. Выпуск №2. 2025
6. «Диктант Победы» в восьмой раз прошел в России // Российское военно-историческое общество. 24 апреля 2026 – <https://rvio.ru/activities/news/diktant-pobedy-v-vosmoj-raz-proshel-v-rossii>
7. Научный вестник оборонно-промышленного комплекса России Выпуск №2 (2025). 6–12-betlar

O‘ZBEKISTONDA INTERNATSIYALANGAN YAPONLAR (1945–1950-YILLAR)

*V. Kostetskiy, t.f.n.,
tarix o‘qituvchisi,
«Smart school» NTM*

«Xalqlar o‘rtasidagi abadiy do‘stlikka, urishmaslikka qasamyod qilamiz»

1945-yil 2-sentyabrda Yaponiya Tashqi ishlar vaziri Mamoru Sigemitsu va imperator armiyasi Bosh shtabi boshlig‘i general Yosidziro Umedzu Kapitulyatsiya to‘g‘risidagi dalolatnomani imzoladi. Bu sana insoniyat tarixidagi eng shafqatsiz va qonli, roppa-rosa olti yil davom etgan Ikkinchi jahon urushining yakunlangan kuni hisoblanadi.

Shartnoma imzolangach, SSSRga yuz minglab harbiy asirlar yuborildi. O‘zbekistonga ular 1945–1948-yillar davomida olib kelingan. Respublikaga sobiq Kvantung armiyasining yigirma uch mingdan ortiq askar va ofitseri internatsiya qilindi. Yaponlarning aksariyati o‘zlarini harbiy asirlar deb atamay, balki mamlakatlari rasman taslim bo‘lgandan so‘ng ixtiyoriy ravishda qurol tashlaganlari uchun o‘zlarini aynan internatsiyalanganlar deb hisoblar edi.

O‘zbekiston obyektlari qurilishidagi ishtirok

O‘zbekistonda yapon internatsiyalanganlari 1950-yillarning boshlarigacha mehnat qilib, O‘zbekiston SSRning muhim obyektlarini barpo etishda faol ishtirok etdilar. Ular ma’muriy binolar, turarjoylar, zavodlar, yo‘llar, to‘g‘onlar qurgan, elektr uzatish liniyalarini tortgan va sanoat korxonalarida ishlagan.

Ular mintaqadagi eng yirik korxonalardan biri – Toshkent to‘qimachilik kombinati qurilishiga salmoqli hissa qo‘shgan. Ayniqsa, ularning Toshkentdagi Alisher Navoiy nomidagi Davlat akademik katta opera va balet teatri (1943–1947) qurilishidagi faoliyati alohida shuhrat qozongan. Yapon askarlari pardoqlash ishlari, ganch o‘ymakorligi va sharqona uslubdagi bezak elementlarini yaratish bilan shug‘ullangan. Xalq ustasi Usta Toshpo‘lat Arslonqulov ularga o‘ymakorlik san‘atini

o'rgatgan va ayrim internatsiyalanganlar gips haykallari hamda nafis bezaklar yaratishda ajoyib qobiliyatlarini namoyon etgan. Ularning ish sifati naqadar yuqori bo'lgani 1966-yilda yaqqol tasdiqlandi: o'shanda kuchli zilzila shahardagi ko'plab binolarni vayron qilgan, biroq Navoiy nomidagi teatr deyarli shikastlanmagan edi.

Me'mor Sergo Sutyagin shunday xotirlaydi: «Ular teatrning old qismini g'isht bilan qoplab, har bir g'ishtga sayqal berayotganlarida, atrof tikanli simto'r bilan o'ralgan edi. Biz, 8, 9, 10 yoshli bolakaylar, ularga non berardik. Ulardan biri esa menga ruchka sovg'a qilgandi... Yana ular Vataniga jo'nab ketish oldidan shahar bo'ylab saf tortib o'tishgani ham esimda... Ayrimlari esa shu yerda qolib, oila qurishdi».

Yana bir yirik loyiha Bekobodagi Farhod GESi qurilishi bo'lgan, o'sha paytlarda bu inshoot «Oleg Koshevoy nomidagi zarbdor komsomol qurilishi» deb atalardi. Biroq zarbdor komsomolchilar sifatida uch ming nafar internirlangan yaponlar ishlagani ko'pchilikka ma'lum emas. Ularning qo'li bilan qurilgan Bekobod–Toshkent yuqori kuchlanishli elektr uzatish liniyasi hamon ishlab turibdi.

Ular, shuningdek, Toshkent, Angren, Bekobod, Qo'qon va Kogon shaharlaridagi obyektlarda ham ishlaganlar. Chirchiqdagi «Ximmash» va «Selmash» zavodlari qurilishida qatnashganlar. Toshkentdagi Markaziy telegraf va Madaniyat vazirligi binolari, Toshkent kabel zavodi, Shirinsoydagi katta kanal, Andijon viloyatidagi neftchilar shaharchasi, Qo'qon superfosfat zavodi, Farg'ona gidroliz zavodi hamda Samarqand ko'chasidagi ikki qavatli turarjoy binolari ular tomonidan bunyod etilgan.

Yaponlarga panoh bo'lgan o'lka

2013-yili O'zbekiston Tasviriy san'at galereyasida Ikkinchi jahon urushidan so'ng O'zbekistonda internirlangan yaponlarning xotiralari jamlangan «Yaponlarga boshpana bergan o'lka» nomli kitobning taqdimoti bo'lib o'tdi. Ushbu nashr ilk bor 2004-yilda Yaponiyada «Yaponiya–O'zbekiston» assotsiatsiyasi tomonidan chop etilgan edi. Kitobni o'zbek tiliga Bekzod Gulmetov tarjima qilgan.

Kitobning asosini Alisher Navoiy nomidagi Katta teatr qurilishida qatnashgan va ushbu noyob me'moriy obidaning bunyod etilishiga

ulkan hissa qo'shgan yaponlarning xotiralari tashkil etadi. Kitobning o'zbek tilidagi nashri «O'zbekiston–Yaponiya» do'stlik jamiyati, Tashqi iqtisodiy faoliyat milliy banki, Tashqi ishlar vazirligi hamda Fanlar akademiyasining Tarix instituti hamkorligidagi sa'y-harakatlar bilan tayyorlandi va nashr etildi. Taqdimot ishtirokchilari kitob madaniy almashinuv sohasidagi hamkorlikning yorqin namunasi ekanini ta'kidladilar.

Jumladan, sobiq internirlangan askar Ueda Tyo Toshkentdagi kanal bo'yida yashagani, yaqin atrofdagi uylarni qurishda va g'isht tayyorlashda ishtirok etgani haqida yozadi. U o'z xotiralarida o'zbek xalqining mehmondo'stligi va bag'rikengligiga, bor-yo'g'ini baham ko'rib, yordam va g'amxo'rlik ko'rsatganiga alohida o'rin ajratgan.

Qo'li gul

O'zbekistonliklar yapon quruvchilarining «qo'li gul» bo'lganini eslashadi. Ular ishdan bo'sh vaqtlarida o'zbek oilalari uchun beshik, stol va boshqa mebellar yasab berishgan. Mahalliy aholi va internirlanganlar o'rtasidagi iliq munosabatlar o'zaro sovg'alarda namoyon bo'lgan. O'zbeklar yaponlarni non, olma, mayiz va boshqa mevalar bilan mehmon qilgan, ular esa buning evaziga o'zbek bolalariga loy va yog'ochdan o'yinchoqlar yasab bergan.

Ayrim gap-so'zlarga qaramay, askarlar va aholi tomonidan asirlarga shafqatsiz munosabatda bo'linmagan. Yaponlarga, albatta, mehr qo'yishmagan, biroq insoniylik yuzasidan, ba'zan esa hatto do'stona muomala qilishgan. Oziq-ovqat ta'minoti qoniqarli darajada tashkil etilgan. Bir kishi uchun kunlik javdar noni me'yori 600 grammni tashkil etgan; ofitserlar va bemorlarga beriladigan nonning yarmi bug'doy noni bo'lgan. Bundan tashqari, sabzavotlar, go'sht, yog' va tamaki ham belgilangan edi. Yaponlarning mentaliteti inobatga olinib, ularga har kuni 300 grammdan oq non va guruch berila boshlangan.

Sobiq yapon harbiy asiri Kiuti Nobuo shunday xotirlaydi: «Yaponlar guruch yeyishni yaxshi ko'rardi, shu sababli bizga o'sha vaqtda tilla bahosida bo'lgan bu yegulikni berishardi. Biroq guruchni ancha kam berishar, shuning uchun ba'zan nemis askarlari ham o'zlarini yapondek ko'rsatib, guruch olish uchun kelishardi».

Og'ir jismoniy mehnat bilan shug'ullanganlarga beriladigan oziq-ovqat me'yori 25 foizga oshirilgan. Ular o'rtasida hatto musobaqalar ham o'tkazilgan: ishlab chiqarish rejasini 100 foiz bajarganlarga qo'shimcha ulush – non va tamaki berilgan. Internirlanganlar o'z ishlari uchun oz miqdorda bo'lsa-da, haq olgan va bu pulga lager yonidagi do'konchadan nimadir xarid qilishi mumkin edi. Ayrimlar esa metall va yog'ochdan turli buyumlar yasab, ularni mahalliy aholi bilan oziq-ovqatga almashtirgan.

Yaponlarning puli bo'lgan, shu sababli ular o'zlari istagan narsani sotib olish imkoniyatiga ega edi. Mahalliy aholining xotirlashicha, yaponlar ko'pincha non, yorma va sariyog'ni sut, qatiq, non va boshqa mahsulotlarga almashtirgan. Har kuni ertalab mahalliy ayollar o'z mahsulotlarini to'g'on devorlari oldiga qoldirib, evaziga yaponlar bo'sh shishalar ostiga qo'yib ketgan pullarni olib ketishgan.

Shunga qaramay, ularning mehnati o'ta og'ir edi – zamonaviy maxsus texnika bo'lmagan, barcha ish qo'lda, zambillar va kuraklar yordamida bajarilgan.

Yapon internirlangan shaxslar muzeyi

Toshkentning Yakkasaroy ko'chasida bir uy bor, u Yaponiyada nashr etiladigan Markaziy Osiyo bo'yicha barcha yo'lnomalarga kiritilgan. Bu – Ikkinchi jahon urushi davridagi yapon harbiy asirlarining O'zbekiston hududida bo'lganiga bag'ishlangan muzey. Muzey 1998-yil may oyida Jalil Sultonovning shaxsiy mablag'lari evaziga ochilgan. U direktor sifatida yapon internirlangan shaxslarining faoliyati bilan bog'liq materiallar va ashyolarni to'plash hamda namoyish etishni boshlagan.

Jalil Sultonov muzeyning ochilishida shunday dedi: «Hozirgi avlod Vatanidan yiroqda bo'lgan yaponlar uchun ham, o'zbeklar uchun ham og'ir damlarga qaramay, insonparvarlik, mehr-shafqat, hamdardlik, o'zaro yordam, mehnatga, tabiatga va go'zallikka muhabbat kabi umuminsoniy qadriyatlarni yo'qotmagan ota-bobolari bilan faxrlanishi va ularni yaxshi bilishi lozim. Ota-bobolarimiz o'zlaridan so'ng zilzilalarga bardosh bergan mustahkam bino va inshootlarni qoldirganlar. Eng muhimi, yaxshi nom qoldirganlar.

O'sha olis zamonlarda otalarimiz mamlakatlarimiz o'rtasidagi do'stlik poydevorini qo'yishgan, bugungi munosabatlarimiz ham ayni shu poydevorga asoslanmog'i darkor. O'ylaymanki, men barpo etgan ushbu Xotira muzeyi xalqlarimizni bir-biriga ma'nan yanada yaqinlashtirishga xizmat qiladigan o'sha Ma'naviy ipak yo'lining so'qmoqlaridan biridir. Bunda mening ham mehnatimdan bir hissa borligidan baxtiyorman!».

2024-yil 30-aprel kuni Toshkent shahrida «40-yillarda Yaponiya fuqarolarining O'zbekistonda bo'lgani xotirasiga bag'ishlangan ekspozitsiya» deb nomlangan yangi muzey binosining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi.

Fikr-mulohazalar kitobiga tashrif buyuruvchilardan biri shunday deb yozgan: «Bugun men kichik bir mehr-oqibat orolchasida bo'ldim». Yaponiyalik mehmon Koda Yumiko shunday qayd etdi: «O'sha yillarda O'zbekiston va Yaponiya xalqlari o'rtasidagi do'stlikka poydevor qo'ygan vatandoshlarim xotirasi oldida ta'zim qilaman...». Boshqa bir ziyoratchi esa quyidagi yozuvni qoldirgan: «Uzoq o'tmish haqidagi xotira saqlanib qolganidan juda hayratdamiz. Bu kichik muzeyda O'zbekistonning barcha hududlaridan keltirilgan eksponatlar o'ta sinchkovlik va yuksak tarixiy haqqoniylik bilan jamlangan. Muzeyga tashrif buyurib, urush va urushdan keyingi davrning fojiali voqealarini xotirangizda yaqqol gavdalantirasiz».

Tokiodagi Soka universiteti asoschisi Daysaku Ikeda shunday yozib qoldirgan: «Agar ota-bobolarimiz Buyuk ipak yo'lini ochgan bo'lsalar, biz bugun qalblarimizga Ma'naviy ipak yo'lini ochishimiz kerak».

Yaponiyaning O'zbekistondagi Favqulodda va muxtor elchisi Nobuaki Ito shunday dedi: «Yaponiya hukumati va xalqi Jalil Sultonovga xalqimiz tarixini asrash yo'lidagi jasorati va mashaqqatli mehnati uchun minnatdorlik bildiradi. Yaponiyalik asirlar muzeyining eksponatlari O'zbekiston hududidagi ko'plab xalq xo'jaligi obyektlari qurilishiga yordam bergan yapon askarlarining mehnatsevarligini butun qalbimiz bilan his etishimizga imkon beradi. Jalil Sultonovga o'z minnatdorligimni izhor etmoqchiman».

Xotira

Internirlangan yaponlar muzeyi ma'lumotlariga ko'ra, 1948-yilga kelib O'zbekistonda 20 mingga yaqin yapon qolgan. Respublika bo'ylab jami 8 798 nafar yapon harbiy asiri dafn etilgan. Ulardan yetmish to'qqiz nafari Toshkentdagi «Yakkasaroy» («Fozil ota») musulmon qabristonining alohida hududiga ko'milgan. O'zbekistonlik Miroqil Fozilov otasidan so'ng naq 40 yil davomida ushbu qabriston qorovuli bo'lib ishlagan. Bu oilada qabristonni obod qilish avloddan avlodga o'tib kelayotgan ezgu an'anadir. Qabrlarni qo'riqlab, tartib saqlagani uchun Miroqil Fozilov 2017-yil 1-dekabrda Yaponiya imperatorining «Kumush nurlar bilan bezalgan chiqayotgan quyosh» ordeni bilan taqdirlangan.

Bir paytlar Yaponiyaning O'zbekistondagi elchisi Kyoko Nakayama yapon qabristoniga tashrif buyurib, o'zi bilan mamlakat milliy ramzi bo'lgan sakura ko'chatini olib kelgan. Miroqil Fozilov uni qabrlar yoniga ekib, parvarishlagan. Bugungi kunda qabristonga uning o'g'illari qaramoqda, o'sha sakura daraxti esa hamon bahorda gullaydi. Yaponiyadan kelgan ko'plab sayyohlar bu yerga yurtdoshlari xotirasini yod etish, ruhlariga duo qilish va qabrlariga gul qo'yish uchun ziyoratga keladi.

Yapon harbiy asirlari Toshkentdan tashqari O'zbekistonning boshqa shahar va viloyatlarida ham dafn etilgan: Qo'qonda – 240, Kogonda – 153, Bekobodda – 146, Angrenda – 133, Chinobodda – 32, Bo'stonliqda – 13, Toshkent viloyatida – 8 va Farg'onada – 2 kishi.

1995-yilda «Yakkasaroy» qabristoniga «Abadiy tinchlik va do'stlik. Urishmaslikka qasamyod qilamiz!» degan yozuvli stela o'rnatildi. Uning yoniga O'zbekistonning yaponlar dafn etilgan barcha qabristonlaridan olingan tuproq solingan idish qo'yilgan. 1997-yilda Yaponiya elchixonasi xodimlari qabristonning yaponlarga ajratilgan qismiga o'nlab sakura daraxti ko'chatini ekdi.

Yapon an'anasiga ko'ra, sakura gullari ajdodlar ruhining maskani hisoblanadi. Milliy sinto dinining bir qismi bo'lgan ajdodlarga sig'inish yaponlar uchun juda muhim. Ular sakura gullaridan zavqlanish ajdodlar ruhini tinchlantiradi va tiriklarga farovonlik baxsh etadi,

deb ishonishadi. Sakuraga boqish – bu ajdodlarni eslash va yod etish demakdir, ular esa buning evaziga o‘z g‘amxo‘rligini ayamasdan, avlodlarini qo‘llab-quvvatlaydi.

Yapon bog‘i. Yaratilish tarixi

O‘zbekistonda yashagan 25 mingga yaqin yaponiyalik xotirasiga 2002-yilda Toshkent markazida «Yapon bog‘i» yonida yodgorlik monamenti barpo etildi va muzey tashkil qilindi.

Bog‘ tarixi 1947-yilda, huvillab yotgan bo‘sh joy o‘rnida park tashkil etilishidan boshlanadi. Ko‘l uchun poydevor, jumladan, internirlangan yapon askarlari kuchi bilan ham qazilgan.

Bog‘ning rasmiy ochilishi 2001-yil 25-avgustda bo‘lib o‘tgan. Bog‘ Yaponiyaning O‘zbekistondagi elchixonasi hamda O‘zbekiston Respublikasi Tashqi iqtisodiy aloqalar vazirligining qo‘shma tashabbusi bilan bunyod etilgan. Unga ilk tamal toshini qo‘yish marosimi 1997-yil 23-sentyabrda o‘tkazilgan. Marmar harsang ko‘rinishidagi yodgorlik tokchasiga kelajak avlodlarga atalgan xotira maktubi solingan kapsula qo‘yilgan. Marmarning silliqlangan qismiga uch tilda (o‘zbek, yapon, ingliz) «Bu yerda o‘zbek-yapon do‘stligi ramzi bo‘lgan Yapon bog‘ining barpo etilishi munosabati bilan avlodlarga yo‘llangan Murojaat saqlanmoqda» degan yozuv o‘yib bitilgan.

Maktub matni quyidagicha:

O‘zbekiston va Yaponiya kelajak avlodlariga.

Bugun, 1997-yil 23-sentyabr kuni O‘zbekiston Respublikasi poytaxti Toshkent shahrida Yapon bog‘iga asos solindi. Yapon bog‘i asrlar davomida O‘zbekiston va Yaponiyaning bog‘lab kelgan Buyuk ipak yo‘lining qayta tiklanishi ramzidir. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining e‘lon qilinishi ildizlari asrlar qa‘riga borib taqaladigan har ikki davlat o‘rtasidagi siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy munosabatlar rivojlanishining yangi bosqichini boshlab berdi.

Ushbu loyihaaning amalga oshirilishida O‘zbekiston Respublikasi va Yaponiya vakillarining ishtirok etishi har ikki mamlakatning hamkorlikning barcha sohalarida ikki tomonlama o‘zaro manfaatli aloqalarni chuqurlashtirish va kengaytirishga intilayotganidan dalolat beradi.

Kelgusi avlodlar ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro anglashuv an'alarini davom ettirishiga hamda Yapon bog'ini O'zbekiston Respublikasi va Yaponiya xalqlari o'rtasidagi so'nmas do'stlik o'chog'i sifatida avaylab-asrashiga umid bildiramiz.

O'zbekiston Respublikasi nomidan O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri O.T. Sultonov. Yaponiya nomidan Yaponiyaning O'zbekiston Respublikasidagi Favqulodda va Muxtor Elchisi K. Obata.

Internirlangan yapon askarlari O'zbekiston rivojiga salmoqli hissa qo'shgan, ularning fojiali taqdiri esa umumiy tariximizning bir qismiga aylangan. Bugungi kunda ularning xotirasi muzeylar, yodgorliklar va ular qurgan binolarda saqlanib kelmoqda. Ularning tarixi – eng og'ir sharoitlarda ham tinchlik va insonparvarlik naqadar qadrli ekanining yorqin eslatmasidir.

Toshkentdagi qabrlar uzra olis vatanining bir parchasi o'laroq Yaponiyadan ko'chat qilib keltirilgan sakuralar mangu xotira ramzi bo'lib bosh egib turadi. Kulrang marmarga o'zbek xalqi nomidan «Xalqlar o'rtasidagi abadiy do'stlik uchun, urishmaslikka qasamyod qilamiz» degan so'zlar o'yib yozilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Государственный архив Российской Федерации (ГАРФ). Фонд Р-9401 («Особые папки Сталина, Молотова, Берии...»), Фонд Р-9526. Главное управление по делам военнопленных и интернированных (ГУПВИ) НКВД-МВД СССР.
2. Джураев А.В. Ташкент: история и архитектура. – Т., 1978.
3. Воспоминания узбекских старожилов (публикации в газетах 1990–2025 годов).
4. Катасонова Е.Л. «Последние пленники Второй мировой войны: долгое возвращение домой». – М.: ИВ РАН, 2005.
5. Костецкий В. История японских пленных в Узбекистане – от Квантунской армии до мирной жизни. Спутник Узбекистан. – Т. 2025.
6. Кутаков Л. Н. Японские военнопленные в СССР: 1945–1956. – М., 1997.

7. Нозоми Шима. Японские военнопленные строили театр Навои в Ташкенте. Музей Мемориала Мира. – М., 1995.
8. Преображенский К. Как стать японцем. – М., 1989.
9. Тутов А.В. Японские военнопленные в Узбекистане. Сайт newsland. 2011.
10. «Харагири». Документальный фильм.
11. Хукова Л.И., Банников К.М. Средневековые города Казахстана на Великом шёлковом пути. Алматы, 1998.
12. Янышев С., Винокуров А. Орден Восходящего солнца. За что Япония наградила жителя Узбекистана. Сайт Общество «Россия-Япония». 2017.
13. «Япония сегодня». Журналы за 2000–2025 гг. Воспоминания бывших интернированных и интервью с ними, в том числе касающиеся их пребывания в республиках Центральной Азии.
14. «Дзару цуйсёкай» – ассоциация бывших военнопленных. Сборники воспоминаний.
15. Ўзбекистон Республикаси Марказий давлат архиви. Маҳаллий ҳокимият органларининг озиқ-овқат етказиб бериш, аниқ объектларда ишчи кучидан фойдаланиш тўғрисидаги ҳужжатлари, фавқулодда ҳодисалар ҳақидаги далолатномалар сақланади.

NATSIZM QIYOFASIGA BEZAK BERISH UNING QAYTA TUG'ILISHI BILAN BAROBAR!

*Ma'ruf Usmonov,
Mustaqil ekspert, «Институт демократии и прав человека»
NNT Boshqaruvi a'zosi*

Biz – Ulug' Vatan urushi g'oliblarining avlodlari, uzoq vaqt davomida Varshava Mudofaa shartnomasi va O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashi bilan birga tarix qa'riga singib ketgan «Tinch-totuv yashash» sovet tamoyili rivoyatlari ta'siri ostida bo'ldik. Ayni paytda, ko'p qutbli dunyo, axloqiy-tarixiy qadriyatlarining halokatli darajada tanazzulga yuz tutishi sharoitida tarixiy xotirani asrab-avaylash o'ta zarur bo'lmoqda!

Bu kabi buzilishlarning barchasiga chek qo'yib, avvalo, o'z xalqlarining haqqoniy tarixidan deyarli bexabar qolgan, madaniyat va axloqdagi «global vayronkorlik illatlari» ta'siriga tushib qolgan yoshlarning ko'zini ochish lozim.

Butun dunyo yoshlarining Ikkinchi jahon urushi yakunlari haqidagi o'ta savodsizlarcha javoblarini eshitish biz uchun achinarlidir. Shu bois, ijozatingiz bilan, o'sha davrda german fashizmiga ko'rsatilgan yordam haqida uzoq vaqt sukut saqlab kelingan faktlarni aytib o'tsam. Men Gitlarga qarshi koalitsiya mamlakatlari bo'lmish «ROA», Boltiqbo'yi, Kavkazorti yoki Turkiston legionlari kabi kollaboratsionistlar haqida emas, balki «bolshevizmga qarshi umumyevropa yurishi»da ongli ravishda qatnashgan mamlakatlar va xalqlar haqida gapirmoqchiman.

1943-yilgacha sovet-german frontida tirik kuchlar borasidagi son jihatdan ustunlik doimo fashistlar bloki davlatlari tarafida bo'lgani rad etib bo'lmas tarixiy haqiqatdir!

«O'q» davlatlaridan tashqari, bizga qarshi mohiyatan uchinchi reyx homiyligidagi o'sha davrning butun «yevroittifoqi» chiqdi. Italiya Gitlarning ittifoqchisi bo'lgani uchun Sovet Ittifoqiga 1941-yil 22-iyunda Germaniya bilan bir vaqtda urush e'lon qildi. U yerga «Rossiyadagi Italiya ekspeditsion korpusi» jo'natildi. O'sha yilning iyuliga kelib, uning tarkibi 62 ming askarni tashkil etgan bo'lsa, 1942-yil sentyabriga kelib 230 mingga yetdi. Italian fashistlari 1941-yilning oktyabr va noyabr oylarida sovet Donbassini bosib olib, Stalino (hozirgi Donetsk) shahriga,

shuningdek, Gorlovka va Orjonikidzega (hozirgi Yenakiyev) hujum qildi. Shundan so'ng ular Odessa viloyati hududini istilo qildi. 1942-yil iyuliga kelib, italyanlarning halok bo'lgan, yaralangan va bedarak yo'qolgan askarlari soni 15 mingga yetdi. Mussolini harbiy guruhni kuchaytirishga qaror qildi (endi u «8-italyan armiyasi» deb nomlangan) va Sharqiy frontdagi 3 ta italyan diviziyasiga yordamga yana 7 ta diviziya bilan birga 3 mingga yaqin to'p va minomyot, 4400 ta pulemyot, 74 ta tank va o'ziyurar artilleriya qurilmasi hamda 100 ga yaqin samolyot yetib keldi. 1942-yil dekabrda «Kichik Saturn» operatsiyasi (Stalingrad yaqinidagi qarshi hujum doirasidagi sovet hujumkor amaliyoti) davomida Qizil Armiya 6 ta italyan diviziyasini butunlay yakson qildi, 43-yilning yanvarida esa ularning Alp korpusi ham tor-mor etildi. Umuman olganda, Italiyaning qaytarib bo'lmaz yo'qotishlari qariyb 93 ming kishini tashkil etdi va bu Sofi Loren hamda Marcello Mastroianni ishtirokidagi daho sovet–fransuz–italyan filmi «Kungaboqarlar»da yorqin ko'rsatib berilgan!

Vermaxt bilan birga SSSR hududiga Ruminiya, Finlyandiya, Vengriya, Slovakiya, Xorvatiya va Avstriya qo'shinlari ham bostirib kirgan. Masalan, Brest qal'asiga (vatanparvarlik ruhidagi sovet adabiyotida yozilganidek yoki rus va belarus filmlarida ko'rsatilganidek) nemislar emas, balki avstriyaliklar hujum qilgan! 1938-yilda Avstriya Germaniyaga qo'shib olinganidan (anshlus) so'ng, Avstriyaning 4-diviziyasi Vermaxtning 45-piyoda diviziyasi deb qayta nomlangan va aynan shu diviziya 1941-yil 22-iyunda Sovet – Germaniya chegarasini kesib o'tgan.

Ruminiya SSSRga 1941-yil 22-iyunda hujum qilgan. Uning bombardimonchi samolyotlari Qrim, Moldova va Ukraina SSRning aholi punktlarini bombalagan. Ruminiya qo'shinlari Germaniya ittifoqchilari orasida eng ko'p sonlisi edi. Birgina 1941-yilda Bessarabiya uchun kechgan janglarga ular qariyb 420 ming askarini safarbar etgan. Aynan ruminlar nemislar bilan birgalikda Odessa, Qrim va Sevastopolni bosib olgan. Vengerlar bilan birga Xarkov yaqinida jang qilgan, Stalingrad, Kavkaz va Azov dengizi sohillarini qamal qilgan. Shu bilan birga, Ruminiya armiyasi oddiy aholi va asirlarga nisbatan shafqatsizligi bilan «nom chiqargan». Birgina Odessa yaqinida o'n minglab tinch aholini qirib tashlagan, Moldovada esa 65 ming kishini o'ldirgan, yuz minglab

odamlarni qullikka haydab ketgan. Bu jangchilarning yana bir o'ziga xos jihati – yahudiy va lo'lilarga bo'lgan nafrati edi. Buxarest yaqinidagi konslagerlardan biriga joylashtirilgan 25 ming lo'lidan 11 ming nafari yo'q qilingan, yahudiylar uchun mo'ljallangan konslagerda esa ruminlar bir necha kun ichida 40 mingga yaqin kishini otib tashlagan. Ayni paytda ruminlar ham anchagina talafot ko'rgan, biroq eng og'ir yo'qotishlar Stalingrad jangida yuz bergan – 104 ming askardan 57 mingdan ortig'i halok bo'lgan, yaralangan yoki bedarak yo'qolgan. Umuman, urush yillarida Ruminiyaning qaytarib bo'lmas yo'qotishlari 475 ming kishidan oshgan.

Vengriya fashistlar Germaniyasining eng sodiq ittifoqchilaridan biri sifatida harakat qilgan. Vengerlar o'z mamlakatlaridagi «1919-yilgi inqilob» uchun bolsheviklardan qasos olayotganliklarini aytishgan. 1941-yil 27-iyunda urushga kirgan mamlakat 1945-yil 12-aprelgacha nemislar tarafida jang qilishni davom ettirgan va urush davomida 205 ming askar safarbar qilgan. Urushning boshidanoq frontga 44 ming askardan iborat 5 ta brigada yuborilgan, 1942-yil may oyiga kelib esa ularning Sharqiy frontdagi soni 205 mingga yetgan. 1942-yilning avgustidan dekabrigacha venger armiyasi Voronej yaqinida janglar olib borgan, ammo jiddiy muvaffaqiyatga erisha olmagan: 1943-yil yanvaridayoq Voronej fronti bosqinchilarni tor-mor keltirib, qarshi hujumga o'tgan. O'shanda madyarlar halok bo'lgan, yaralangan va asirga tushganlar hisobidan jami 148 mingga yaqin odamidan ayrilgan. 1944-yil bahorida venger tank diviziyasi Kolomiya (Ukraina) yaqinida sovet tankchilariga qarshi hujum qilishga uringan, biroq 38 ta tankidan ayrilib, chekinishga majbur bo'lgan. Shundan so'ng venger armiyasi Qizil Armiyaga SSSR chegaralaridan tashqarida – Transilvaniya va Sharqiy Vengriyada qarshilik ko'rsatgan. Shuningdek, SSning 22-ko'ngilli venger otliq diviziyasi ham sovet qo'shinlariga qarshi jang qilgan. Bu diviziya o'z vahshiyligi bilan nemislardan ham o'tib tushgani uchun sovet askarlari jazolovchi vengerlarni asir olishmagan (xuddi Fuqarolar urushida o'zlarini yirtqichlarcha tutganlari kabi).

Slovakiya (Chexoslovakiya) Sovet Ittifoqiga birinchilardan bo'lib urush e'lon qilgan mamlakatlar qatorida edi. Feldmarshal Guderianing tanklarida deyarli har ikkinchi haydovchi chex bo'lgan. Slovakiya qo'shinlari Ukraina, Kavkaz va Qrimda Qizil Armiyaga qarshi jang qildi.

Slovakiya Ukraina va Belarusga ikkita piyoda diviziyasi, uchta artilleriya polki, bitta tank batalyoni hamda bitta aviatsiya polki, ya'ni 41 ta qiruvchi va 30 ta bombardimonchi samolyot yubordi. Biroq slovaklar o'zlarini qo'mondonlik istaganidek tutmadilar: ular o't ochishdan qochishga harakat qilar, Qizil Armiya va partizanlarga tez-tez asir tushardilar. Masalan, bir safar butun bir piyodalar batalyoni, gaubitsa batareyasi va aviaxizmat ko'rsatish diviziyasi qurol-yarog'i bilan birga dushman tomoniga o'tib ketgan. 1943-yil fevraliga kelib esa, ko'plab askar va ofitserlar, ya'ni kamida 4600 kishi sovetlar tomoniga o'tgan edi. Slovakiya tomonining qaytarib bo'lmas yo'qotishlari qariyb 7 ming kishini tashkil etdi. Lekin slovaklarning jangovar qobiliyati boshidanoq past darajada bo'lgan: ular Reyx manfaatlari uchun kurashishga alohida ishtiyoq ko'rsatmaganlar. Shu munosabat bilan 1944-yil boshida Gitlarning buyrug'i bilan slovak diviziyalari qurolsizlantirilib, istehkomlar qurilishiga jalb etildi. Sovet Ittifoqi hududida qolgan slovaklar esa general, keyinchalik ushbu mamlakat prezidenti bo'lgan Lyudvik Svoboda qo'mondonligidagi Chexoslovakiya armiya korpusini shakllantirish uchun asos bo'ldi. Slovakiya muntazam armiyasining bu qismlaridan tashqari, 1944-yil oktyabr oyida ko'ngilli chex va slovaklardan alohida «Bogemiya va Moraviya» nomli SS diviziyasi tuzildi. U 1945-yil mart oyida Chexiya Sileziyasida Sharqiy frontdagi janglarda qatnashdi va 1945-yil 5-mayda Keningrats yaqinida yo'q qilindi. Urush yillarida jami 70 000 ga yaqin chexoslovakiyalik asir olindi.

Daniya 1940-yil 9-aprelda gitlerchilar tomonidan bosib olindi, shundan so'ng mamlakat iqtisodiyoti o'z mustaqilligini yo'qotib, butunlay natsistlar reyxiga qayta yo'naltirildi. Jumladan, 1941-yil 29-iyunda Daniya gazetolari «bolshevizmga qarshi kurash uchun» «Danmark» SS ko'ngillilar korpusi tuzilganini e'lon qildi va unga 6 mingga yaqin daniyalik yozildi. Korpus ilgari mustaqil Daniya kuch tuzilmalarida xizmat qilgan jangchilardan iborat bo'lib, Daniya hukumati esa ularning harbiy unvonlari saqlab qolinishini kafolatlagan edi. SS qo'shinlari tarkibida daniyaliklar Leningrad qamalida ishtirok etib, 2 ming nafar askar va ofitser halok bo'ldi. 1942-yil may oyida Daniyalik SS a'zolari SSning «O'lik bosh» nomli 3-tank diviziyasi tarkibiga kiritildi. O'sha paytda ular Demyansk qurshoviga tushib, shaxsiy tarkibning 80 foizigacha qismidan ayrildi. Daniyaliklar Qizil Armiyaga qarshi Velikiye Luki, Nevel, Leningrad yaqinida, shuningdek, Latviya,

Pomeraniya va Berlin ostida jang qildilar. Umuman olganda, SSSRga qarshi 10 mingga yaqin daniyalik jang qilgan.

Ispaniya: Germaniya va Italiyaning g'oyaviy hamda tashqi jihatdan yaqinligiga qaramay, kaudilo F.Franko 1939-yil 4-sentyabrda betarafflik e'lon qildi. Uning mamlakati urush oxirigacha rasman shu siyosatga amal qilgan bo'lsa-da, Franko 1936-yilgi Interbrigadalar uchun SSSRdan qasos olmoqchi bo'ldi. Shu sababli u «bolshevizmga qarshi salib yurishi»ga ehtiyoj yoki fuqarolar urushidan qolgan eski adovatlar tufayli otlanganlarga to'sqinlik qilmadi. Shunday qilib, ko'ngillilardan iborat «Moviy diviziya» paydo bo'ldi. U asosan mamlakat qurolli kuchlarining eng sara vakillaridan tashkil topmagan edi. Dastlab uning safiga fuqarolar urushi davridanoq «qizillar»ga nisbatan «sinfiy nafrat» tuygan fanatik antikommunistlar qo'shildi. Biroq tez orada diviziya saflari Ispaniya o'lchovlari bo'yicha yuqori maoshga hamda mamlakatda qolgan oilalari bevosita Germaniya hukumatidan nafaqa olishiga uchgan kambag'allar va ishsizlar hisobiga ancha kengaydi. 1941-yil 4-oktyabrda 19 ming askar va ofitserdan iborat ushbu diviziya Novgorod hududiga yetib keldi. Butun urush davomida bu harbiy qismni to'ldirish uchun Pireney yarim orolidan har birida 1200–1300 kishidan iborat 27 ta marsh batalyoni jo'natildi. Shunday qilib, Sharqiy frontda jami 50 mingdan ortiq ispan jang qildi. Diviziya jiddiy jangovar ahamiyatga ega bo'lmay, 1941-yil oktyabridan 1943-yil oxirigacha qamaldagi Leningrad yaqinida joylashib oldi va vaqti-vaqti bilan ichkilikbozlik qilib, janjal ko'tarib turdi. Urush davomida SSSR hududida 5000 ga yaqin ispan halok bo'ldi, 1500 dan ortig'i esa sovet asirligiga tushdi. Shunga qaramay, 1945-yilda qurshovdagi Berlinda 7 ming nafargacha ispan jang qilgan, ikki rota esa Reyxstagni mudofaa qilgan.

1917-yildan keyin Rossiya Federatsiyasidan mustaqillikka erishgan Finlyandiya buning uchun minnatdorchilik bildirish o'rniga, 1941-yil iyun oyi oxirida urushga kirib, «Qishki urush»dan so'ng deyarli barcha hududlarini qaytarib oladi va Gitler Germaniyasining muhim ittifoqchisiga aylanadi. Hali 1940-yilning dekabridayoq Berlinda Finlyandiyaning Sovet Ittifoqiga qarshi urushda ishtirok etishi to'g'risida kelishuvga erishilgan edi. Gitler uni o'zining eng ishonchli ittifoqchisi deb bilardi, chunki fin armiyasi uning barcha ittifoqchilari orasida eng yaxshi tayyorgarlikka ega, yaxshi qurollangan va mafkuraviy jihatdan eng bardoshli edi. Ular 1939–1940-yillardagi

«Qishki urush»ning davomi sifatida qasos urushini kutib, unga puxta hozirlik ko'rgan va 530 000 kishini safarbar qilgan edi. Masalan, fin deputati Salmiala mamlakat parlamentida nutq so'zlab, shunday degan edi: «Biz Buyuk Finlyandiya g'oyasini amalga oshirishimiz va ruslarni Ladoga bilan Oq dengizni to'g'ri chiziq bilan bog'laydigan marraga surishimiz kerak». Finlyandiya parlamenti 1941-yil 25-iyunda SSSR bilan urush holatida ekanini tan oladi va 1941-yil iyun oyi oxiridan 1944-yil sentyabrigacha Sharqiy frontda mamlakatning o'n oltita piyoda diviziyasi, ikkita yeger va bitta otliq brigadasi – jami 340 ming askar va ofitser, 2047 ta to'p va minomyot, 86 ta tank va 307 ta samolyoti ishtirok etadi. Bir zamonlar Pyotr davridan beri Rossiya imperiyasining tarkibida bo'lgan viloyat – Finlyandiya o'z ajdodlari vataniga qarshi Leningrad yaqinidagi Gitler qo'shinlarining zarbdor guruhi tarkibida 200 minggacha sara fin askarini safarbar qiladi. Tan olish kerakki, finlar «Qishki urush»da yo'qotilgan sobiq hududlarini ancha tez qaytarib olib, avvalgi chegaralariga chiqdilar, Leningraddan 30 km masofada to'xtadilar va hatto Petrozavodsk joylashgan sovet Sharqiy Kareliyasini egallab oldilar. Ammo front shu yerda to'xtab qoldi: finlar Leningradni qurshab olishda qatnashgan bo'lsalar-da, shaharga shimoldan qat'iy hujum uyushtirmadilar. Ayrim sara fin bo'linmalari boshqa hududlarda, xususan, Smolensk va Tula yaqinidagi jangovar harakatlarda ham ishtirok etib, rus fuqarolariga shafqatsizlarcha munosabatda bo'lganlar. Fin harbiylarining vahshiyliklari haqida ko'plab guvohliklar saqlanib qolgan. Ularni rus aholisiga qarshi jinoyatlarga qo'mondonlikning o'zi undagan: «Sovet harbiy xizmatchilarini asir olayotganda, darhol qo'mondonlik tarkibini oddiy askarlardan, shuningdek, karellarni ruslardan ajrating. Rus aholisi hibsga olinsin va konslagerlarga jo'natilsin. Karel aholisiga qo'shilishni istagan fin va karel millatiga mansub rusiyzabon shaxslar ruslar qatoriga kiritilmaydi», – deyilgan edi Rossiya imperiyasining sobiq podsho generali, fin generali Gustav Mannergeymning maxfiy buyrug'ida. (Bu o'sha rusofob bo'lib, bir necha yil avval Sankt-Peterburg hukumati shaharda uning sharafiga yodgorlik lavhasi ochishga ruxsat bergan edi. Faqat lavhaga bir necha bor bo'yoq sepilganidan keyingina amaldorlar o'z xatolarini tushunib, bu sharmandali yodgorlik belgisini olib tashlashgan.)

O'shanda ham, hozir ham gumanitar huquq tarafdori bo'lgan finlarning son-sanoqsiz dahshatli vahshiyliklari sodir etilgan. Finlar partizanlarga xayrixohlikda gumon qilingan odamlarni gulxanda yoqib yuborishgan. Fin asirligidan qochib qutulgan oddiy askar Sergey Terentyev Kareliyaning Pitkyaranta shaharchasi yaqinidagi konslagerda saqlanayotgan askarlarimizning azob-uqubatlari haqida shunday deydi:

«Bu lagerda yarador qizil armiyachilar saqlanadi. Ularga umuman tibbiy yordam ko'rsatilmaydi. Bir kecha-kunduzda ovqatga bir kosa unli sho'rva berishardi. Fin jallodlari biz uchun dahshatli bir qiynoq o'ylab topishgan: asirning beliga tikanli sim o'rab, yerda sudrab yurishardi».

Kareliya frontida sovet armiyasi qismlari hujumga o'tganda, harbiylarimiz fin fashistlari tomonidan qiynab o'ldirilgan o'nlab qizil armiyachilarning jasadlarini topishdi. Masalan, finlar oddiy askar Satayevning lablarini kesib, tilini sug'urib olishgan, qizil armiyachi Grebennikovning esa qulog'ini kesib, ko'zlarini o'yib, o'rniga bo'sh gilzalar tiqib qo'yishgan. Harbiy Lazarenkoni uzoq qiynoqlardan so'ng, finlar uning bosh suyagini yorib, ichiga qotgan non to'ldirishgan, burun teshiklariga patronlar tiqishgan va ko'kragiga besh qirrali yulduzni kuydirib chizishgan.

Fin jallodlari tinch aholini ham aql bovar qilmas qiynoqlarga solishgan. Petrozavodsklik Boris Novikov finlarning 30 kishini qo'lga olib, tovonlarini qizdirilgan temir bilan kuydirgani, rezina tayoqlar bilan urib, so'ng otib tashlaganiga guvoh bo'lgan.

Umuman olganda, finlar ancha malakali jang qildilar va urush davomida quyidagi talafotlarga uchradilar: halok bo'lganlar – 58 000, yaradorlar – 158 000, asirga tushganlar esa bor-yo'g'i 2377 kishini tashkil etdi. Sovet qo'shinlari hujumga o'tib, finlar bosib olgan barcha hududlarni qaytarib olgach, 1944-yil 19-sentyabrda Moskvada sulh tuzildi va Finlyandiya urushdan chiqdi. Finlyandiyaning SSSRga qarshi urushdagi qaytarib bo'lmas yo'qotishlari qariyb 85 ming kishiga yetdi. Urush davomida ular SSSRga ikki armiyani – qariyb 530 ming askar, 159 ta qiruvchi samolyot, 22 ta bombardimonchi va ko'plab kemalarni yubordilar. 1941-yilning yozi va kuzida finlar Kareliyani bosib olib, Leningradni shimoldan qamal qildilar. Finlar tomonidan ishg'ol qilingan Kareliya hududida «vakuum-zona» tashkil etilib, u yerga karel millatiga mansub bo'lmagan barcha tinch sovet fuqarolari konslagerlarga tashlandi.

Shu tariqa, millati tufayligina «aybdor» bo'lgan 6 mingdan 10 minggaacha yurtdoshimiz halok bo'ldi.

Xorvatlar Ukraina uchun jang qilganlar. Xorvatiyadagi etnik tozalash mafkurasi va amaliyoti fashistlar qarashlariga yaqin edi, shu sababli 22-iyun kuni Xorvatiya hukumati «bolshevizmga qarshi umumyevropa yurishi»ga qo'shilgani ajablanarli emas. Iyul oyidayoq motorlashtirilgan brigada va tarkibida 2200 nafar askari bo'lgan «Xorvat legion» piyodalar polki tuzilib, sharqqa jo'natiladi. Ular Ukraina hududida, Dneprning sharqiy sohilida jang qiladilar (urush davomida Qizil Armiyaga qarshi jami 10 ming nafarga yaqin xorvat jang qilgan). Bundan tashqari, xorvatlar nemislar yordamida dengiz legionini ham tashkil etgan bo'lib, u Genichesk va Mariupolda joylashgan edi. SSSRga qarshi urushda Xorvatiya havo eskadronlari ham qatnashib, 300 ga yaqin sovet samolyotini urib tushirgani bilan maqtanadi (buni harbiy mutaxassislar va tarixchilar inkor etadilar). 1944-yilga kelib Qizil Armiya Vengriyada xorvatlar bilan to'qnash keladi – u yerda SSning 13-tog'li xorvat diviziyasi «Xanjar» jang qilgan va shu yerda tor-mor etilgan.

Fransuzlar Moskva ostonalarida ikkinchi marta yer tishladi. Tarixchilarning qayd etishicha, «ma'rifatli Yevropa»ning bir qator mamlakatlari aholisi SSSRga hujum qilinganini eshitib, yangi «rus yurishi»ga ko'ngilli bo'lib yozilish uchun oshiqishgan. Masalan, rasman mustaqil, biroq to'liq natsistlar nazoratida bo'lgan Vishi Fransiyasida shunday bo'lgan. Shu sababli 1941-yil avgustida Gitler ulardan «Bolshevizmga qarshi fransuz ko'ngillilar legion»ni tuzishni buyuradi. Avgustning o'zidayoq dastlabki ikki yarim ming ko'ngilli SSSRga jo'natiladi, biroq ular unchalik «shuhrat qozonish»ga ulgurmaydi – 1941-yil dekabrda legion sovet qo'shinlarining kuchli artilleriya zarbasiga uchraydi. Legionning qolgan qismi keyinchalik olib ketilib, safiga yangi askarlar qo'shiladi va soni 7 ming jangchiga yetkaziladi hamda Ukrainadagi partizanlarga qarshi kurashish uchun jalb etiladi. Sovet armiyasi esa Gitler tarafida jang qilgan fransuzlar bilan so'nggi bor 45-yilning bahorida to'qnash keladi – «Sharleman» SS diviziyasining 500 ga yaqin ko'ngillisi uning inini – Reyxstagni himoya qilgan edi.

Niderlandiya: Gollandiya bizga qarshi frontga SSning 23-«Nederland» tank-grenader diviziyasini qo'ydi. SSning «Nederland» golland diviziyasi legion sifatida 1942-yil yanvar oyida Leningrad ostonalarida Sharqiy

frontdagi jangovar harakatlarga kirishgan va u yerda, jumladan, general Vlasovni asirga olishda qatnashgan. Keyinroq golland ko'ngillilari brigada sifatida 1944-yilda yana Sharqiy frontga jo'natilib, Leningrad va Narva yaqinidagi janglarda ishtirok etgan. So'ngra, 1945-yil fevralida tarkibida belgiyaliklar ham bo'lgan va 5200 kishigacha yetgan SS diviziyasi sifatida tuzilgan ushbu golland ko'ngilli qo'shilmasi 1945-yil aprel oyida Pomeraniyada hujumga o'tgan Qizil Armiya tomonidan yo'q qilingan. Urush yillari davomida jami 4729 nafar golland sovet asirligiga tushgan.

5-SS «Viking» tank diviziyasi («Viking» SS diviziyasi G'arbiy Yevropadan kelgan ko'ngillilar – taxminan 1000 nafar golland, belgiyalik va skandinaviyalik yuborilgan ilk harbiy bo'linma edi. Ular diviziya tarkibida urushning birinchi kunlaridanoq Sovet-Germaniya frontida – Janubiy Ukraina, Don va Xarkov yaqinida janglarda qatnashgan. Keyin Kavkaz uchun jangda, Kursk jangida, Varshava yaqinidagi va Balaton uchun bo'lgan janglarda ishtirok etgan. 1945-yilning may oyida diviziyaning tirik qolgan qoldiqlari amerikaliklarga taslim bo'ldi (uning tarkibiga gollandlardan tashqari Skandinaviya mamlakatlari va Belgiya fuqarolari kirgan) va 11-SS «Nordland» tank-grenaderlar diviziyasi [«Nordland» SS diviziyasi 1943-yilning kuzida skandinaviyalik va qisman gollandiyalik ko'ngillilardan tuzilgan. U 1944-yil yanvar–fevral oylarida Leningrad yaqinida, mart–aprel oylarida esa Narva yaqinidagi janglarda qatnashgan. 1945-yilning bahorida bu skandinav otryadlarining barchasi avvaliga Kurlandiya qamaliga tushib qolgan, 1945-yil may oyida esa Berlin yaqinida tormor etilgan. Urush yillari davomida jami 7006 nafar daniyalik, 5878 nafar norvegiyalik va 601 nafar shvetsiyalik asir olingan] (bu diviziya tarkibiga daniyaliklar, norveglar, latishlar, ispanlar va fransuzlar kirgan. Oxir-oqibat, diviziya Reyxstag devorlari oldida Qizil Armiya tomonidan yakson qilingan). Shuningdek, «Valloniya» SS vallon diviziyasi [«Valloniya» SS diviziyasi 1944-yil oktyabr oyida 4000 nafargacha ko'ngilli flamandlardan (belgiyaliklar, lyuksemburgliklar, fransuzlar, ispanlar) tashkil etilgan. Legion va brigada sifatida 1943-yilda Sharqiy frontdagi janglarda qatnashgan. SS diviziyasi sifatida esa 1945-yil aprel oyida Shverin va Brandenburg yaqinida yo'q qilingan. Sovet asirligiga 6033 nafar flamand va 2812 nafar vallon tushgan] va «Langermak»

SS flamand diviziyasi [«Langermak» Belgiya (flamand) SS diviziyasi 1944-yil oktyabr oyida 7000 nafargacha ko'ngillidan tuzilgan. 1945-yil bahorida hujumga o'tayotgan Qizil Armiya qismlariga qarshi janglarda foydalanilgan va 1945-yil 5-mayda Meklenburg yaqinida sovet qo'shinlari tomonidan yo'q qilingan. 2010 nafar belgiyalik va 1652 nafar lyuksemburglik asir olingan] ham bo'lgan. Nemislar tarafida albanlar, hindlar va hatto arablar ham jang qilgan.

Yana bir jihat: hammasi ko'ngilli tarzda bo'lgan. Bu mamlakatdan «bolshevizmga qarshi salib yurishi»ga Gollandiya armiyasi bosh shtabining sobiq boshlig'i general Zeyffardt boshchilik qilgan. Ushbu maxsus tank diviziyalari Leningrad va Kurlandiya yaqinidagi janglarda qatnashgan. Skandinaviyalik eseschilar eng katta talafotni Narva yo'nalishida ko'rib, shundan so'ng Boltiqbo'yi mamlakatlari va Germaniyaga chekingan, 1945-yil may oyida esa tirik qolganlari inglizlarga taslim bo'lgan.

SSSRga qarshi urushda Norvegiya va Daniya fuqarolaridan tashkil topgan ko'ngilli harbiy bo'linmalar ham ishtirok etganini unutmash lozim. Ta'kidlash joizki, ushbu SS diviziyalarining saflari nafaqat butlangan, balki yo'qotishlar o'rni ham doimiy ravishda to'ldirib borilgan. Norvegiyaliklar bilan ham xuddi shunday bo'lgan. Leningrad qamali paytida SS bo'linmalarida 1200 nafar norvegiyalik halok bo'lgan. Keyin deyarli butun urush davomida qo'shni mamlakat Germaniya uchun nemis askarlari Sharqiy front dahshatlaridan dam oladigan bir kurort vazifasini o'tagan. Daniyadagi istilochi qo'shinlar safiga tushib qolish baxt sanalgan. Ayni paytda, minglab yosh daniyaliklar «bolsheviklar»ga qarshi jang qilish uchun SS qo'shinlariga katta ishtiyoq bilan otlangan.

1941-yil 22-iyundan so'ng darhol Norvegiyada Germaniya qo'shinlari tarkibida Rossiyaga borib jang qilish uchun ko'ngillilarni to'plash e'lon qilingan. 1942-yilning iyul oyidayoq Leningrad yaqiniga «Norvegiya» eseschi legionining ilk bo'linmalari yetib kelgan. Sharqiy frontda jami olti ming nafargacha norvegiyalik jang qilgan. Norvegiyaning o'sha vaqtdagi bosh vaziri Vidkun Kvisling esa SSSRga qarshi urushni ancha kech, ya'ni 1943-yil 16-avgustda rasman e'lon qilgan.

Hatto Mussolinichilar Italiyasi tomonidan bosib olingan kichik Albaniyaning o'zi ham SSSRga qarshi jang qilish uchun «Skanderbeg» nomli SS diviziyasini yuborgan ekan, yana nima deyish mumkin.

Gitlerning Yevropadagi ittifoqchilarining aksariyati majburan jang qilgan degan gaplarni tez-tez eshitamiz. Aslo unday emas, axir Yevropaning turli mamlakatlarida tuzilgan milliy SS diviziyalari, ko‘rinib turibdiki, asosan ko‘ngillilardan iborat bo‘lgan, chunki u yerga chaqiruv emas, balki yozilish bo‘lgan!

Bu davrda SSSRga qarshi kurashning yana bir jihati bor edi – bu Vermaxtni jihozlash va front ortidan ta‘minlash!

Masalan, bolgar «birodarlar» SSSRga urush e‘lon qilmagan, biroq Bolqonda faol jangovar harakatlar olib borib, nemis qo‘shinlarini ta‘minlagan. Bolgariya yuz minglab tonna tamaki, sabzavot va meva, millionlab litr spirtli ichimliklar, ruda, ko‘mir yetkazib bergan. Go‘yoki betaraf bo‘lgan Portugaliya ham shu yo‘ldan borgan.

Misol uchun, Chexiyaning «Shkoda» zavodi nemis armiyasini bronetransportyorlar, tanklar va boshqa qurol-yarog‘lar bilan ta‘minlagan – har beshinchi nemis tanki aynan «Shkoda»da ishlab chiqarilgan. Nemislar qamaldagi Leningradni o‘sha «Shkoda» va Fransiyaning «Le Krezo» kompaniyalari yasagan o‘ta og‘ir gaubitsalardan o‘qqa tutgan. Aniqlikni va mehnatni sevadigan chex va fransuz ishchilari sexlarda snaryadlar tayyorlagan, bu snaryadlar esa keyinchalik Leningrad bolalari va ayollari, Moskvani himoya qilgan askarlar, sovet partizanlari hamda Yevropa Qarshilik harakati ishtirokchilarining umriga zomin bo‘lgan. Shu bilan birga, bu ishchilar o‘z mehnati uchun maosh, (nemislar bilan bir darajada) oziq-ovqat payoklari va o‘z yurtidan tashqarida dam olish imkoniyatini ham olgan (keyinchalik, sotsializm davrida, bu ishchilarni harbiy jinoyatlarning ishtirokchilari emas, balki «bosqin qurbonlari» deb atashgan). Vaholanki, ularga «Fashistlar Germaniyasi fronti ortining xizmat ko‘rsatgan xodimi» unvonini bersa arziydi.

Gollandiya o‘z sanoat mahsulotlarining yarmini Reyx buyurtmasi asosida ishlab chiqargan, Daniya esa baliqqa bo‘lgan ehtiyojning 90 foizini qoplagan.

Go‘yoki betaraf sanalgan Shvetsiya Reyxga shunchalik ko‘p temir rudasi yetkazib berganki, har bir nemis tankining 30 foizi shved metallidan iborat bo‘lgan. Fransiya 1944-yilning yanvarigacha Germaniyaga 4000 ta samolyot, 10 mingga yaqin aviadvigatel va 52 mingta yuk mashinasi yetkazib bergan. Boshqacha aytganda, bu «betaraf» mamlakatlar na Germaniya bilan, na gitlerchilarga qarshi

koalitsiya bilan iqtisodiy aloqalarni bir daqiqaga ham uzmagani! Masalan, Shvetsiya 1941–1945-yillarda rasman betaraflikni saqlagan bo'lsa-da, amalda o'zining og'ir sanoati bilan Gitlerga yordam berib turgan – hatto 1944-yilda ham Shvetsiya eksportining qariyb 80 foizi Germaniyaga, ya'ni po'lat va sharikli podshipniklar jo'natilgan. Hammaga ma'lum statistik ma'lumotlarga ko'ra, nemis qurol-aslahalarining uchdan bir qismigacha bo'lgan miqdori shved xomashyosidan tayyorlangan.

Shuningdek, a) 1942-yilgacha Uchinchi reyxs tomonida turishga tayyor bo'lgan Turkiyadan temir rudasi; b) Ispaniya va Lotin Amerikasi mamlakatlaridan Germaniyaga yoqilg'i va yonilg'i-moylash materiallari kabi kelib chiqishi noma'lum manbalardan kelgan mahsulotlar haqida ham uzoq gapirish mumkin.

Bundan tashqari, Shveysariya betaraf davlat sifatida Gaaga konvensiyasiga muvofiq urishayotgan mamlakatlar bilan savdo qilish huquqiga ega edi – u boshqa tovarlar qatorida qurol-yarog' ham yetkazib bergan, 1939–1944-yillarda Germaniyaga qilingan eksport hajmi esa ittifoqchi mamlakatlarga yetkazib berilganidan oshib ketgan.

Shunday ekan, bugun kim nima demasin, fashistlar qilichini Yevropa birgalikda yasagan va afsuski, oradan sakson yil o'tib, bu qit'ada ko'plab mudhish voqealar yana takrorlanayotganini ko'rib turibmiz...

Har yili Yevropa kunida o'tgan jahon urushi yakunlari astoydil sayqallanadi va fashizmning vahshiyliklari pardoatlanadi. Bu esa gohida bema'nilik darajasiga yetib, revansh, chegaralarni qayta belgilash va tarixni qayta yozish kabi g'oya va xomxayollarni uyg'otadi.

Menimcha, ma'ruzamning aksariyat qismi Osiyodagi harbiy harakatlar maydoniga, Gitlerga qarshi koalitsiyaning boshqa a'zolari hamda xalqaro gumanitar tashkilotlarning bu davrdagi parda ortidagi va separat harakatlariga to'xtalmasdan, retrospektiv ruhda o'tdi. Shu sababli, boshlangan suhbatimiz davom etishiga, biz esa hali ko'plab muhim va ibratli ma'lumotlardan xabardor bo'lishimizga umid bildiraman!

SSSR XALQLARINING BUYUK G'ALABASI HAQIDAGI XOTIRA – YEVROSIY BOG'LIQLIGINING FUNDAMENTAL ASOSI SIFATIDA

*Borisov Denis Alekseyevich, «Rossiya – Markaziy Osiyo»
mintaqaviy qiyosiy tadqiqotlar laboratoriya-markazi
mudiri, Novosibirsk shahri.*

SSSR xalqlarining Ulug' Vatan urushidagi Buyuk G'alabasi haqidagi xotira zamonaviy Yevrosiyo munosabatlari tizimida alohida o'rin egallaydi. Uning ahamiyati faqatgina tarixiy-madaniy yoki yodgorlik vazifasi bilan cheklanib qolmaydi. Bu yerda gap barqaror xotira amaliyotlari, rasmiy marosimlar, ta'lim dasturlari, oilaviy hikoyalar, muzey ko'rinishlari, xotira aksiyalari va ommaviy ramzlar orqali davlatlararo munosabatlarda takrorlanib turuvchi ancha murakkab ijtimoiy-siyosiy hodisa haqida bormoqda. Shu ma'noda, G'alaba xotirasini Yevrosiyo bog'liqligini saqlab qolish mexanizmlaridan biri sifatida ko'rish mumkin.

Xalqaro hokimiyat konsepsiyasi doirasida ushbu hodisani «tarix kuchi» kategoriyasi orqali tahlil qilish maqsadga muvofiqdir. Mafkuraviy xalqaro hokimiyatning aksiologik jihatida kengroq ma'noda muallif tomonidan avvalroq Yaponiyaning Markaziy Osiyodagi xalqaro hokimiyatini tahlil qilish misolida ko'rib chiqilgan edi [1]. Tarix kuchi – o'tmishni talqin etish, umumiy tarixiy tajribani ramziy ifodalash va jamoaviy xotirani qayta tiklashga asoslangan mafkuraviy xalqaro hokimiyatning aksiologik turidir.

Bunday yondashuvning nazariy asosini M. Mannning makrosotsiologik mantiqiy tashkil etadi. U mafkuraviy hokimiyatni ijtimoiy hokimiyatning asosiy manbalaridan biri sifatida ajratib ko'rsatgan. Bu nuqtayi nazardan, mafkuraviy hokimiyat nafaqat g'oyalarni tarqatish, balki ijtimoiy tartibning barqaror kognitiv va ramziy asoslarini shakllantirish bilan ham bog'liqdir [2]. Xalqaro munosabatlarga nisbatan bu yondashuv tarixiy xotirani o'zlikni shakllantirish, siyosiy harakatlarni legallashtirish hamda «o'zimizniki» va «begona» haqidagi tasavvurlarni mustahkamlash mexanizmi sifatida qarash imkonini beradi.

K. Payl davlatlarning tashqi siyosatdagi o'rnini belgilashda tarix va madaniyatning ahamiyatini tahlil qilar ekan, tarixiy narrativlar xalqaro siyosatning strategik resursi bo'la olishini ta'kidlaydi. Bu,

ayniqsa, o'tmish ma'naviy yetakchilik uchun kurash maydoniga aylangan mintaqaviy sharoitlarda yaqqol namoyon bo'ladi [3]. Bu mantiq Buyuk G'alaba xotirasining ahamiyatini anglash uchun g'oyat muhimdir: u faqat o'tmishni muhrlabgina qolmay, balki siyosiy xulq-atvorning maqbul shakllarini, axloqiy baholarni va zamonaviy xalqaro tartibning ramziy chegaralarini belgilashda ham ishtirok etadi.

G'alaba xotirasini, shuningdek, B. Andersonning jamoaviy narrativlar va tasavvurdagi hamjamiyatlarga oid yondashuvi orqali ham tushunish mumkin. Umumiy tarixiy syujet bevosita shaxsiy aloqalar bilan bog'lanmagan ko'plab odamlarga o'zlarini kengroq ramziy hamjamiyatning bir qismi sifatida idrok etish imkonini beradi [4]. Yevrosiyo kontekstida buning asosi sifatida o'tmish haqidagi mavhum g'oya emas, balki urush, fidoyilik, fashizmga qarshilik ko'rsatish va umumiy G'alabaning aniq tarixiy tajribasi xizmat qiladi. B. Gizen zafar va jarohat tushunchalarini ko'rib chiqar ekan, aynan shunday hadli tarixiy kechinmalar siyosiy legitimlik va jamoaviy o'ziga xoslikning barqaror me'morchiligini shakllantirishini ko'rsatib beradi [5].

Biroq tarixiy voqeaning umumiyligi o'z-o'zidan Yevrosiyo yaxlitligining saqlanib qolishini kafolatlamaydi. Muhimi, bu voqeaning ommaviy maydonda muntazam yangilanib turishidir. Tarixiy fakt arxivlar, darsliklar va rasmiy hujjatlarda saqlanishi mumkin, biroq jonli ijtimoiy amaliyotlar susaysa, o'zining integratsion salohiyatini yo'qotadi. Aksincha, agar biror xotira sanasi davlat marosimlari, davlat rahbarlarining murojaatlari, ommaviy tadbirlar, ta'lim dasturlari, muzey loyihalari, yoshlar tashabbuslari hamda oilaviy xotira an'analari bilan qo'llab-quvvatlab turilsa, u ramziy bog'lovchilik vazifasini bajarishda davom etaveradi.

Markaziy Osiyo kontekstida O'zbekiston misoli ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. 1999-yilda Toshkent 9-mayning rasmiy maqomini institutsional jihatdan o'zgartirgan mintaqadagi yagona davlat bo'ldi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 2-martdagi PF-2243-sonli Farmoni bilan ushbu sana Xotira va qadrlash kuni deb e'lon qilindi [6]. Tarix kuchini tahlil qilish mantiqidan kelib chiqilsa, bunday qarorni O'zbekiston va MDHning boshqa davlatlari o'rtasidagi avvalgi ramziy o'zaro bog'liqlikni qisqartirishga qaratilgan yo'l sifatida talqin qilish mumkin, zero, asosiy urg'u G'alabaning umumiy sovet voqeligidan xotira

va ehtiromning milliy modeliga ko'chirilgan edi. Biroq Sh.M. Mirziyoyev prezidentligi davrida ushbu sanaga nisbatan davlat yondashuviga jiddiy o'zgartirishlar kiritildi. 2025-yilga mo'ljallangan rasmiy hujjatlarda Xotira va qadrlash kuni Ikkinchi jahon urushidagi G'alabani 80 yilligi bilan bevosita bog'lanib, 1941–1945-yillardagi urush va mehnat fronti faxriylarining qo'shgan hissasi, shuningdek, 9-mayni keng umumxalq bayrami sifatida nishonlash zarurligi ta'kidlanadi [7]. Bundan tashqari, O'zbekiston Prezidenti 2019-yildagi nutqida 9-mayni «G'alaba kuni», «xalqimiz chekkan zahmatlar evaziga qo'lga kiritilgan bayram» va «bizning umumiy buyuk tariximiz» deya ta'riflagan edi [8]. Demak, zamonaviy O'zbekiston yondashuvini milliy xotira doirasidan voz kechish emas, balki uni G'alabani birlashtiruvchi Yevrosiyo voqeligi bilan qayta bog'lash sifatida ko'rish mumkin. Bu esa O'zbekistonning hozirgi davlat siyosatida Ulug' G'alaba xotirasi Yevrosiyo makonidagi mamlakatlar o'rtasidagi munosabatlarda yaqinlashtiruvchi omil sifatida yana ahamiyat kasb etayotgani haqida xulosa chiqarish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo mamlakatlarida ham G'alaba xotirasi o'zining yaqqol ifodalangan davlat va jamoatchilik ahamiyatini saqlab qolmoqda. Qozog'istonda G'alabani 80 yilligi munosabati bilan ikki mingga yaqin xotira, ilmiy tadqiqot, ma'rifiy va boshqa tadbirlarni ko'zda tutgan «Ұлы Жеңіс: ерлікке тағзим, ұрпаққа үлгі» maxsus rejasi amalga oshirildi [9]. O'zbekistonda Prezident qarori bilan 9-may – Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tadbirlarga tayyorgarlik ko'rish va ularni o'tkazish dasturi tasdiqlandi; rasmiy bayonotda urush va mehnat faxriylariga hurmat-ehtirom ko'rsatish, G'alabaga hissa qo'shgan ajdodlar xotirasini yod etish, shuningdek, yosh avlodni tinchlikni asrash ruhida tarbiyalash muhimligi ta'kidlandi [7]. Bishkekda 2025-yilga Abadiy olov poyiga gul qo'yish marosimi bilan o'tadigan miting-rekviyem, «O'lmas polk» aksiyasi, «G'alaba qo'shiqlari» nomli bayram konserti hamda qirg'iz va rus xalqlarining jasoratiga bag'ishlangan interaktiv maydonchalar rejalashtirilgan edi [10]. Tojikistonda 2025-yil 8-may kuni Prezident E. Rahmon Dushanbe shahridagi G'alaba bog'ida Ulug' Vatan urushidagi G'alabani 80 yilligi sharafiga o'tkazilgan gulchambar qo'yish marosimi va harbiy paradda ishtirok etdi; tadbirda oliy hokimiyat organlari, kuch tuzilmalari, diplomatik korpus, Rossiya Federatsiyasining 201-harbiy bazasi vakillari, urush va mehnat faxriylari qatnashdi [11].

Turkmanistonda 2025-yil 9-may kuni G'alabaning 80 yilligi katta umumxalq bayrami sifatida nishonlandi: «Halk hakydasy» yodgorlik majmuasidagi monumentlar poyiga gul qo'yish marosimi bo'lib o'tdi va unda davlat vakillari, faxriylar, front orti mehnatkashlari, yoshlar hamda jamoat tashkilotlari ishtirok etdi [12]. Umuman olganda, bu misollar Buyuk G'alaba xotirasi nafaqat milliy xotira amaliyotlari darajasida, balki MDH doirasidagi gumanitar hamkorlikning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida ham o'z ahamiyatini saqlab qolayotganini ko'rsatadi: 2025-yil Hamdo'stlikda Ulug' Vatan urushidagi G'alabaning 80 yilligi – Natsizmga qarshi kurashda tinchlik va birlik yili deb e'lon qilindi [13].

Bu misollar G'alaba xotirasi ijtimoiy munosabatlar infratuzilmasi sifatida mavjud bo'lishda davom etayotganini ko'rsatadi. U quyidagilarni o'z ichiga oladi: rasmiy qarorlar, tadbirlar rejalari, bayram taqvimlari va yetakchilarning murojaatlari shakllantiriladigan davlat darajasi; xotira aksiyalari, faxriylar tashkilotlari, madaniy tashabbuslar va media loyihalar amalga oshiriladigan jamoatchilik darajasi; front orti mehnatkashlari, evakuatsiya qilinganlar, halok bo'lganlar va bedarak yo'qolganlar haqidagi hikoyalar saqlanadigan oila darajasi. Bu darajalarning o'zaro bog'lanishi xotiraning qayta jonlanishini ta'minlaydi va uni barqaror ijtimoiy amaliyotga aylantiradi.

Konstruktivistik yondashuv nuqtayi nazaridan, G'alaba xotirasining ahamiyati shundaki, u siyosiy o'ziga xoslikning ramziy chegaralarini shakllantirishda ham ishtirok etadi. A. Vendt davlat va jamiyat o'ziga xosligi oldindan belgilab qo'yilmasligini, aksincha, intersub'yektiv muloqot jarayonida vujudga kelishini ko'rsatib beradi [14]. I. Noyman, D. Kempbell va B. Rumelili «o'ziniki – begona» va «muhiim o'zga» kabi kategoriyalarni tahlil qilar ekan, jamoaviy o'ziga xoslik nafaqat o'zlikni anglash, balki tashqi «o'zga»ga nisbat berish orqali ham shakllanishini namoyon qiladi [15; 16; 17]. Buyuk G'alaba xotirasi misolida bunday ramziy «o'zga» sifatida tarixiy yovuzlikning eng so'nggi ko'rinishi bo'lgan natsizm maydonga chiqadi. Unga qarshi kurashish esa sobiq SSSR xalqlariga umumiy tarixiy taqdir va mushtarak jasoratning ma'naviy haqligi to'g'risidagi tasavvurni qayta tiklash imkonini beradi.

G'alaba xotirasining Yevrosiyo integratsiyasining ramziy infratuzilmasi sifatidagi vazifasi aynan shunda namoyon bo'ladi. U qahramonlik timsollarining umumiy tizimini, umumiy ma'naviy-tarixiy asosni, birga-

likdagi fidoyilik va mushtarak G'alaba haqidagi tasavvurni yaratadi. Muvaqqat siyosiy loyihalardan farqli o'laroq, tarixiy xotira uzoq muddatli va takrorlanuvchan xususiyatga egadir. U avloddan avlodga o'tib, ta'lim dasturlari, muzey ko'rgazmalari, yodgorliklar, oilaviy arxivlar, ommaviy marosimlar va har yilgi an'analarda mustahkamlanib boradi.

Shu bilan birga, tarixning qudrati o'zgarmas miqdor emas. Uning salohiyati xotiraga oid ijtimoiy amaliyotlarning shiddatiga bog'liq. Agar ommaviy ishtirok qisqarsa, davlat marosimlari yo'qolsa, ma'rifiy ishlar susaysa, yoshlar kamroq jalb etilsa va xotira mavzusining ommaviy ifodasi kamaysa, tarixiy xotiraning integratsiya vazifasini bajarish qobiliyati ham zaiflashadi. Biror sananing taqvimda saqlanib qolishi uning xalqaro ahamiyati saqlanib qolishini hali kafolatlamaydi. O'zaro bog'liqlik taqvimdagi bir eslatma bilan emas, balki muntazam, ommaviy, institutsional darajada qo'llab-quvvatlanadigan va hissiy jihatdan muhim bo'lgan xotira amaliyotlari orqali vujudga keladi.

Jahon siyosatining parchalanishi va tarixiy qarashlar raqobati kuchayib borayotgan bir sharoitda bu masalaning ahamiyati yanada ortadi. Ikkinchi jahon urushi tarixi tobora nafaqat akademik tadqiqot obyekti, balki siyosiy talqinlar maydoniga ham aylanib bormoqda. Bunday vaziyatda G'alaba xotirasi uchun kurash nafaqat o'tmish uchun, balki kelajakdagi xalqaro munosabatlarning ramziy me'morchiligi uchun ham kurashishni anglatadi. Agar umumiy xotira barbod bo'lsa, jamiyatlar o'rtasidagi ishonchning ma'naviy-tarixiy poydevori zaiflashadi. Bordi-yu, u takrorlanuvchi ijtimoiy amaliyotlar orqali qo'llab-quvvatlansa, ijtimoiy jipslik vazifasini bajarishda davom etaveradi.

Shunday qilib, Yevrosiyo bog'liqligini faqat iqtisodiy yo'laklar, savdo aloqalari, migratsiya oqimlari, xavfsizlik institutlari yoki hukumatlararo kelishuvlar orqali tushunib bo'lmaydi. Bu unsurlarning barchasi muhim ahamiyatga ega, biroq ular bog'liqlik mohiyatini to'la ochib bera olmaydi. Davlatlararo hamkorlikning barqaror makoni nafaqat tovarlar, sarmoya va odamlar harakati infratuzilmasini, balki ma'nolar infratuzilmasini ham talab qiladi. Buyuk G'alaba xotirasi Yevrosiyo makonining salmoqli qismini davlat, jamiyat va oila darajasida bog'lab turishda davom etayotgan sanoqli ramziy asoslardan biridir.

Demak, SSSR xalqlarining Buyuk G'alabasi haqidagi xotirani jamoaviy xotira, ramziy qardoshlik va umumiy tarixiy lavhalarni takror

ishlab chiqarishga asoslangan mafkuraviy xalqaro hokimiyatning aksiologik turi – tarix kuchining mustaqil bir ko‘rinishi sifatida ko‘rib chiqish lozim. Uning ahamiyati nafaqat o‘tmish merosini saqlashda, balki Yevrosiyo bog‘liqligining ijtimoiy zaminini qo‘llab-quvvatlashda ham namoyon bo‘ladi. Xotira amaliyotda takror ishlab chiqarilar ekan, o‘sha yerda axloqiy o‘zaro anglashuv makoni saqlanib qoladi. Xotira amaliyotlari zaiflashgan joyda esa tarixiy bog‘liqlik salohiyati pasayadi. Shu bois G‘alaba xotirasini saqlash nafaqat gumanitar vazifa, balki Yevrosiyo munosabatlari barqarorligining eng muhim shartidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Борисов Д.А. Осмысление роли идеологии в современных международных отношениях: аксиологический аспект международной власти Японии в Центральной Азии // Вестник Томского государственного университета. Философия. Социология. Политология. 2023. № 75. 253–266-betlar. DOI: 10.17223/1998863X/75/21.
2. Mann M. The Sources of Social Power. Vol. I: A History of Power from the Beginning to 1760 A.D. New York: Cambridge University Press, 1986. 540 p.
3. Pyle K. B. Reading the New Era in Asia: The Use of History and Culture in the Making of Foreign Policy // Asia Policy. 2007. № 3. P. 1–11.
4. Anderson B. Воображаемые сообщества: размышления об истоках и распространении национализма / пер. с англ. В. Николаева; вступ. ст. С.П. Баньковской. – М.: КАНОН-пресс-Ц; Кучково поле, 2001. 288 b.
5. Giesen B. Triumph and Trauma. Boulder, CO: Paradigm Publishers, 2004. 206 b.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 2-martdagi «9-mayni Xotira va qadrlash kuni deb e‘lon qilish to‘g‘risida»gi PF-2243-son Farmoni // O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma‘lumotlari milliy bazasi. URL: <https://lex.uz/ru/docs/212471> (murojaat sanasi: 18.05.2026).
7. Ikkinchi jahon urushida qozonilgan g‘alabaning 80 yilligi hamda Xotira va qadrlash kuniga tayyorgarlik ko‘rish va munosib nishonlash to‘g‘risida // O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/7893> (murojaat sanasi: 18.05.2026).

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xotira va qadrlash kuniga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // O'zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://president.uz/ru/lists/view/2564> (murojaat sanasi: 18.05.2026).
9. Davlat rahbari Qosim-Jo'mart Toqayevning Qozog'iston xalqi Assambleyasining XXXIV sessiyasidagi nutqi // Qozog'iston Respublikasi Prezidentining rasmiy veb-sayti. URL: <https://www.akorda.kz/ru/vystuplenie-glavy-gosudarstva-kasym-zhomarta-tokaeva-na-hhhiv-sessii-assamblei-naroda-kazahstana-2435140> (murojaat sanasi: 18.05.2026).
10. Bishkek Ikkinchi jahon urushidagi G'alabani 80 yilligini qanday nishonlaydi // Bishkek shahri meriyasining rasmiy veb-sayti. URL: <https://www.bishkek.gov.kg/ru/post/31278> (murojaat sanasi: 18.05.2026).
11. Davlat rahbari Emomali Rahmon G'alaba bog'ida gulchambar qo'yish marosimi va harbiy paradda ishtirok etdi // «Xovar» MAA. URL: <https://khovar.tj/rus/2025/05/glava-gosudarstva-emomali-rahmon-prinyal-uchastie-na-tseremonii-vozlozheniya-venkov-i-v-voennom-parade-v-parke-pobedy/> (murojaat sanasi: 18.05.2026).
12. Turkmanistonda G'alaba kuni nishonlandi // Turkmaniston: oltin asr. URL: <https://turkmenistan.gov.tm/index.php/ru/post/94779/v-turkmenis-tane-otmechaetsya-den-pobedy> (murojaat sanasi: 18.05.2026).
13. 2025-yil MDHda – Ulug' Vatan urushidagi G'alabani 80 yilligi – Natsizmga qarshi kurashda Tinchlik va Birlik yili // MDH Ijroiya qo'mitasi. URL: <https://cis.minsk.by/thematic/64/2025/0> (murojaat sanasi: 18.05.2026).
14. Wendt A. Social Theory of International Politics. Cambridge: Cambridge University Press, 1999. 429 b.
15. Neumann I.B. Uses of the Other: «The East» in European Identity Formation. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1999. 281 b.
16. Campbell D. Writing Security: United States Foreign Policy and the Politics of Identity. Minneapolis: University of Minnesota Press, 1992. 269 b.
17. Rumelili B. Constructing Identity and Relating to Difference: Understanding the EU's Mode of Differentiation // Review of International Studies. 2004. Vol. 30, № 1. 27–47-b. DOI: 10.1017/S0260210504005819.

ISHCHI-DEHQON QIZIL ARMIYASI HAQIDAGI UYDIRMALAR

Akbarshoh Shodiyev, mustaqil ekspert

Zamonaviy axborot makonida SSSR va Germaniya Ikkinchi jahon urushi boshlarida ittifoqchi bo'lgan, degan qarash keng tarqalgan. Bu qarash asosan 1939-yil 23-avgustda imzolangan Molotov-Ribbentrop pakti daliliga tayanadi.

Biroq 1930-yillar oxiridagi xalqaro vaziyat tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur kelishuvning imzolanishi Yevropada samarali jamoaviy xavfsizlik tizimi mavjud bo'lmagan sharoitdagi majburiy tashqi siyosiy chora edi. Bundan oldingi voqealar, jumladan, 1938-yilgi Myunxen kelishuvi Yevropa davlatlarining fashistlar Germaniyasiga qarshi birgalikda qarshilik ko'rsatishni tashkil eta olmasligini namoyon qilgan edi.

Sovet Ittifoqi Buyuk Britaniya va Fransiya bilan shartnoma tuzishga uringan, biroq muzokaralar jarayoni harbiy-siyosiy ittifoqning tuzilishi bilan yakunlanmadi. Natijada SSSR rahbariyati davlat va qurolli kuchlarni ehtimoliy harbiy to'qnashuvga tayyorlash uchun qo'shimcha vaqt yutishga harakat qildi.

Sovet-nemis munosabatlari vaqtinchalik tusga ega bo'lishiga qaramay, 1940–1941-yillardayoq har ikki tomon qurolli to'qnashuv ehtimolini ko'zda tutib, urushga tayyorgarlik ko'rayotgan edi.

Shu tariqa, SSSR va Germaniya o'rtasidagi ittifoqchilik munosabatlari haqidagi da'vo ko'rib chiqilayotgan davrdagi xalqaro vaziyatning butun murakkabligini aks ettirmaydi va keng qamrovli tarixiy tahlilni talab qiladi.

Ikkinchi uydirma: «Qizil armiya texnik jihatdan qoloq, tayyorgarliksiz va g'ayrat-shijoatsiz bo'lgan».

Jamoatchilik va axborot makonida Ikkinchi jahon urushi boshlangan paytda Qizil armiya o'ta zaif ahvolda bo'lgan, Germaniyadan texnik va tashkiliy jihatdan ortda qolgan, shaxsiy tarkibi esa go'yoki qarshilik ko'rsatishga ishtiyoqi bo'lmagan, degan fikr keng tarqalgan.

Bunday yondashuv 1941-yildagi og'ir mag'lubiyatlar, katta yo'qotishlar, shuningdek, qurol-yarog' tanqisligi va armiya qo'mondonlik tarkibidagi qatag'onlar oqibatlarini haqidagi da'volarga tayanadi.

Biroq tarixiy sharoitni tahlil qilar ekanmiz, Qizil armiya urush olib borishning yangi bir usuli, ya'ni hujumning yuqori sur'ati, tank

bo'linmalari va aviatsiyaning ommaviy qo'llanishi hamda dushman qo'shinlarining tezkorlik bilan qurshab olinishiga asoslangan blitzkrig taktikasiga duch kelganini inobatga olish zarur.

Shuni ta'kidlash joizki, bu strategiya nafaqat SSSRga qarshi samarali bo'lgan. 1939-yilda Polsha bir necha hafta ichida mag'lubiyatga uchragan, Yevropaning eng qudratli davlatlaridan biri bo'lgan Fransiya esa 1940-yilda ikki oydan kamroq vaqt ichida taslim bo'lgan edi.

Urush boshidagi og'ir vaziyatga qaramasdan, Sovet Ittifoqi davlat boshqaruvini saqlab qolishga, sanoatni evakuatsiya qilishga, qurol-yarog'ni ommaviy ishlab chiqarishni yo'lga qo'yishga va keyingi qarshilikni uyushtirishga muvaffaq bo'ldi.

1942-yilga kelib SSSR sanoati o'qotar qurollar, tanklar va artilleriyani ommaviy ishlab chiqarishni ta'minladi. Jumladan, T-34 tanki Ikkinchi jahon urushi davridagi eng samarali zirhli texnika namunalaridan biri sifatida tan olingan.

Bundan tashqari, qo'mondonlik tarkibining urushning yangi sharoitlariga moslashishi ham muhim omil bo'ldi. Urushning ikkinchi yarmida Qizil Armiya Stalingrad jangi, Kursk jangi va «Bagration» operatsiyasi kabi yirik miqyosli strategik amaliyotlarni o'tkazish qobiliyatini namoyon etdi.

Shunday qilib, 1941-yilgi muammolar Qizil Armiyaning urush olib borishga butunlay qobiliyatsizligidan dalolat bermaydi, aksincha, Germaniyaning to'satdan bergan zarbasi oqibatlarini hamda o'sha davr harbiy strategiyasining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettiradi.

Uchinchi uydirma: «G'alabada hal qiluvchi rolni g'arblik ittifoqchilar o'ynagan»

Ikkinchi jahon urushi tarixiga oid keng tarqalgan qarashlardan biri fashistlar Germaniyasi ustidan qozonilgan g'alabada asosiy rolni g'arblik ittifoqchilar, birinchi navbatda AQSH va Buyuk Britaniya o'ynagan, degan da'vodir. Bu yondashuv doirasida asosiy e'tibor ittifoqchilarning Shimoliy Afrikadagi operatsiyalariga, Normandiyaga qo'shin tushirishiga, shuningdek, lend-liz dasturi bo'yicha ta'minotga qaratiladi.

Biroq jangovar harakatlar ko'lamining tahlili Germaniyaga qarshi asosiy harbiy harakatlar maydoni Sharqiy front bo'lganini ko'rsatadi. Germaniya o'z qurolli kuchlarining asosiy qismini aynan shu yerga jamlagan va eng katta talafotlarni ham shu yerda ko'rgan.

Ikkinchi jahon urushining eng yirik janglari, jumladan, Moskva, Stalingrad va Kursk janglari aynan Sharqiy frontda bo'lib o'tgan. Ushbu operatsiyalarning miqyosi boshqa yo'nalishlardagi jangovar harakatlardan ancha ustun edi.

1944-yil iyun oyida ittifoqchilarning Normandiyaga qo'shin tushirishi urushning muhim bosqichi bo'ldi, biroq bu vaqtga kelib Germaniya Sharqiy frontda bir qator strategik mag'lubiyatlarga uchrab bo'lgan edi.

Lend-liz dasturi alohida e'tiborga loyiqdir. Texnika, oziq-ovqat, yonilg'i va transport vositalarining yetkazib berilishi sovet qo'shinlarining harakatchanligi va ta'minotini oshirishda haqiqatan ham muhim rol o'ynadi. Ayni paytda, qurol-yarog' va harbiy texnikaning asosiy qismi bevosita SSSR sanoati tomonidan ishlab chiqarilgan.

Shu bois, G'arb ittifoqchilarining hissasi salmoqli bo'lsa-da, Germaniya qurolli kuchlariga qarshi hal qiluvchi jangovar harakatlar asosan Sharqiy frontda kechgan.

To'rtinchi uydirma: «Germaniyaning faqat iqlim va «General Ayoq» yenggan». Germaniyaning SSSRga qarshi urushdagi mag'lubiyati asosan qahraton iqlim sharoitlari va nemis armiyasining qishga tayyor bo'lmagan bilan izohlanadi, degan keng tarqalgan nuqtayi nazar mavjud.

Bu qarash 1941–1942-yillar qishidagi voqealarga, xususan, nemis qo'shinlarining Moskva yaqinidagi mag'lubiyatiga asoslanadi.

Haqiqatan ham, olmon qo'mondonligi harbiy yurishni sovuq tushguniga qadar yakunlashni rejalashtirgan edi. Armiyaning moddiy-texnik ta'minoti va qo'shinlarning jihozlanishi uzoqqa cho'ziladigan qishki urushga mo'ljallanmagan edi.

Biroq Germaniya mag'lubiyati sabablarini faqat iqlim omili bilan izohlash tarixiy manzarani soddalashtirishdan iboratdir.

Og'ir ob-havo sharoitlariga qaramay, jangovar harakatlar qishda ham davom etgan. Nemis qo'shinlari jangovar qobiliyatini saqlab, front chizig'ini ushlab turgan va turli yo'nalishlarda harbiy amaliyotlarni davom ettirgan.

Shuni hisobga olish kerakki, qishki sharoitlar nemis armiyasiga ham, Qizil armiyaga ham bir xilda ta'sir ko'rsatgan. Sovet qo'shinlari ham ta'minot, moddiy-texnik vositalar bilan ta'minlanish va yo'qotishlar bilan bog'liq jiddiy qiyinchiliklarga duch kelgan.

Bundan tashqari, SSSRning g'alabalari faqat qishda qo'lga kiritilmagan. Qizil Armiyaning eng yirik hujum amaliyotlari yoz oylarida ham, jumladan, 1943-yilgi Kursk jangi va 1944-yilgi «Bagration» amaliyoti o'tkazilgan.

Stalingrad jangi ham nafaqat iqlim sharoitlari oqibati, balki nemis qo'shinlari guruhini qurshovga olish, ta'minot yo'llarini uzib qo'yish va strategik rejalashtirishni o'z ichiga olgan keng ko'lamli harbiy amaliyot natijasi bo'lgan.

Shunday qilib, iqlim urushning muhim omili bo'lgan, biroq SSSRning g'alabasi harbiy, iqtisodiy va tashkiliy omillarning majmuyi bilan ta'minlangan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Исаев А.В. Антисуворов. Большая ложь маленького человека. – М.: «Яуза», «Эксмо», 2004.
2. Исаев А.В. Краткий курс истории Великой Отечественной войны. Наступление маршала Шапошникова. – М.: «Яуза», 2005.
3. Исаев А.В. От Дубно до Ростова. – М.: АСТ, Транзиткнига, 2004.
4. Исаев А.В. Когда внезапности уже не было. История ВОВ, которую мы не знали. – М.: «Эксмо», 2006.
5. Самсонов А.М. Сталинградская битва. – М.: «Наука», 1989.
6. Жуков Г.К. Воспоминания и размышления. – М.: «АПН», 1987.
7. Василевский А.М. Дело всей жизни. – М.: «Политиздат», 1978.
8. Рокоссовский К.К. Солдатский долг. – М.: «Воениздат», 1988.
9. Гареев М.А. Правда о Великой Отечественной войне. – М.: «Алгоритм», 2005.
10. Великая Отечественная война 1941–1945 годов: в 12 томах / Министерство обороны РФ. – М.: «Кучково поле», С. 2011–2015.
11. История Второй мировой войны 1939–1945 гг.: в 12 томах. – М.: «Воениздат», 1973–1982.
12. Мельтюхов М.И. Упущенный шанс Сталина. – М.: «Вечер», 2000.
13. Уткин А.И. Вторая мировая война. – М.: «Алгоритм», 2003.
14. Нарочницкая Н.А. Великие войны XX столетия. – М.: Вече, 2007.
15. Пыхалов И.В. Великая оболганная война. – М.: «Яуза», 2005.
16. Боевой и численный состав Вооружённых Сил СССР в период Великой Отечественной войны. Статистический сборник Министерства обороны РФ.
17. Россия и СССР в войнах XX века: Потери вооружённых сил. Статистическое исследование / Под ред. Г.Ф. Кривошеева. – М.: «Олма-Пресс», 2001.
18. Великая Победа: в 15 томах / под ред. С.К. Шойгу. – М.: «МГИМО», 2015.
19. История России. XX век / под ред. А.Н. Сахарова. – М.: «АСТ», 2010.
20. Орлов А.С., Георгиев В.А. История России. – М.: «Проспект», 2012.

YOSH AVLOD XOTIRASIDAGI BUYUK G‘ALABA

*Alimjonov Damir Ilhomovich
Siyosatshunos, mustaqil ekspert*

Ulug‘ Vatan urushidagi G‘alabadan bizni 81 yillik vaqt ajratib turibdi. Bu endi shunchaki tarixiy masofa emas, balki jonli xotira yakunlanib, madaniyat, ta‘lim va shaxsiy idrok orqali avloddan avlodga o‘tadigan xotira boshlanadigan o‘ziga xos bir marradir. Biz noyob bir davrda yashayapmiz: yaqin-yaqingacha urush tarixi yonimizda – uning ishtirokchilari siymosida, ovozi va xotiralarida yashagan bo‘lsa, bugunga kelib u tobora jamoaviy bilimlarning bir qismiga aylanib bormoqda. Aynan shuning uchun xotira masalasi alohida dolzarblik kasb etadi: o‘zing boshdan kechirmagan voqeani qanday xotirlash mumkin va vaqt o‘tgani sari bizdan uzoqlashib borayotgan hodisalarning asl mohiyatini qanday saqlab qolish kerak?

Biz, yosh avlodning Buyuk G‘alaba haqidagi xotirasi g‘oliblar yoxud katta avlod xotirasidan tubdan farq qiladi: u urushdan keyingi davrning shaxsiy tajribasiga emas, balki ongli tanlov natijasiga tayanadi. Yosh inson urushni tasavvur qila olmaydi, lekin unga o‘z munosabatini belgilashi – uni olis tarixiy voqea yoki o‘z shaxsiyatining bir qismi sifatida qabul qilishi mumkin. Asosiy jihat ham shunda: bugungi kunda xotira shunchaki meros emas, balki mas‘uliyat hamdir va u o‘z-o‘zidan keyingi avlodga o‘tishi shart. Shu bilan birga, hozirgi yosh avlod misli ko‘rilmagan axborot oqimi sharoitida yashamoqda, bunda tarix e‘tibor uchun minglab boshqa mavzular bilan raqobatlashishga majbur bo‘lmoqda. Shu bois urush haqidagi xotirani asrash tabiiy jarayon emas, balki ichki tanlov hamda oila, ta‘lim, davlat va ommaviy axborot vositalari kabi tashqi ta‘sir natijasiga aylanmoqda. Shunga qaramay, yoshlar Buyuk G‘alaba haqidagi xotirani yo‘qotmoqda, degan da‘vo o‘ta jo‘n tuyuladi, zero, amalda biz xotiraning yo‘qolishini emas, balki uning o‘zgarishini kuzatmoqdamiz. Avvalo, oilaviy jihat saqlanib qolmoqda: ko‘plab yoshlar uchun Ikkinchi jahon urushi – bu o‘z oilasining tarixi, bobokalonlarining taqdiri, frontdan kelgan xatlar, suratlar va mukofotlardir. Aynan mana shu shaxsiy bog‘liqlik orqali o‘tmish idrok

etiladi va buning sharofati bilan tarix mavhumlikdan xalos bo'lib, aniq insoniy mohiyat kasb etadi.

Bu mantiq «O'lmas polk» singari ijtimoiy tadbirlarda ham namoyon bo'ladi. Mazkur harakatning o'ziga xosligi shundaki, u quyi tashabbus sifatida yuzaga kelib, tarixiy xotirani asrashda shaxsiy ishtirok etishning bir ko'rinishiga aylandi. Yoshlarni tadqiqot va ko'ngillilik faoliyatiga jalb etish ham muhim yo'nalishga aylanmoqda: arxivlar bilan ishlash, qidiruv ekspeditsiyalarida qatnashish, halok bo'lganlarning nomlarini tiklash tarixga faol munosabatni shakllantiradi. Bu jarayonda yoshlar axborotning shunchaki iste'molchisi bo'lib qolmay, tarixiy haqiqatni tiklash jarayonining bevosita ishtirokchisiga aylanadilar. Shu bilan birga, xotiraning raqamli jihati ham rivojlanmoqda: zamonaviy yoshlar onlayn makonda yashaydi va tarixiy ishlarning salmoqli qismi aynan shu muhitga ko'chirilmoqda. Natijada elektron ma'lumotlar bazalari yaratilmoqda, arxivlar raqamlashtirilmoqda, ta'limiy loyihalar, hujjatli materiallar hamda (shorts va reels kabi) qisqa videoformatlar paydo bo'lmoqda. Bu esa axborotni idrok etishning yangi sharoitlariga moslashish demakdir.

Biroq yangi imkoniyatlar bilan birga jiddiy muammolar ham yuzaga kelmoqda: tarixiy xotira tobora siyosiy va axborot ta'sir obyektiga aylanib boryapti, xalqaro maydonda Ikkinchi jahon urushi yakunlarini qayta ko'rib chiqish, urg'ularni o'zgartirish va turli ishtirokchilarning rolini qayta baholashga urinishlar bo'lmoqda. Natijada yoshlar bir xil voqealarning o'zaro raqobatdosh talqinlariga duch kelmoqda. Bunday sharoitda tanqidiy tafakkurni shakllantirish ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, faktlarning o'zini bilish kifoya qilmaydi – manbalarni tahlil qila olish, faktlarni talqinlardan ajrata bilish hamda u yoki bu bayonot zahirida qanday maqsadlar yotishi mumkinligini anglash zarur. Shu bilan birga, xotiraning rasmiyatchilikka aylanib qolishi bilan bog'liq ichki xavf ham mavjud: muhim sanalar yildan yilga bir xil andozada nishonlanaversa, ko'nikish hissi paydo bo'ladi. Oqibatda xotira o'z-o'zidan ayon haqiqatdek qabul qilinib, o'zining hissiy teranligini yo'qotadi va shakl saqlanib qolganu, asl mohiyatidan ayrilgan marosimga aylanib qoladi.

Avlodlar o'rtasidagi uzilish ham yana bir jiddiy muammoga aylanmoqda. Chunki urushning so'nggi guvohlari hayotdan o'tishi bilan

o'sha voqealarga nisbatan bevosita hissiy bog'liqlik yo'qolib boradi. Agar bu bog'liqlik o'rnini ongli bilim va shaxsiy ishtirok egallamasa, xotira mavhumlashib, yodga aylanishi mumkin. Bunday sharoitda asosiy vazifa xotirani shunchaki saqlab qolish emas, balki uni yosh avlod uchun shaxsiy va mazmunli qilishdan iborat. Bunga esa oila tarixiga murojaat qilish, o'z ajdodlari taqdirini o'rganish orqali erishish mumkin. Bu urushni uzoqdagi voqea sifatida emas, balki shaxsiy tarjimai holning bir qismi sifatida qabul qilish imkonini beradi. Shuningdek, zamonaviy uslublardan foydalanish ham muhim. Ular yordamida tarix o'z davri tilida so'zlashi, ya'ni kino, raqamli loyihalar va interaktiv platformalar orqali murakkab mavzularni o'z teranligini yo'qotmagan holda tushunarli tarzda yetkazishi mumkin. Va nihoyat, yoshlarning o'zi ham faol bo'lishi zarur. Zero, xotira ishtiroksiz mavjud bo'la olmaydi: u nafaqat bilimni, balki harakatni – loyihalarda, tadqiqotlarda qatnashishni va o'tmishni anglashga intilishni talab qiladi.

Binobarin, yosh avlodning Buyuk G'alaba haqidagi xotirasi endilikda shunchaki eslash emas, balki tarixiy haqiqatni asrash, bu xotirani keyingi avlodlarga yetkazish hamda uning buzilishiga yoki yo'qolishiga yo'l qo'ymaslik uchun ongli mas'uliyatdir. Garchi sakson bir yil uzoq muddat bo'lsa-da, xotira vaqt bilan o'lchanmaydi, u biz berayotgan ahamiyat bilan o'lchanadi. Yosh avlod bu xotirani bilish, anglash va asrashni tanlar ekan, Buyuk G'alaba nafaqat o'tmish hodisasi, balki bugungi kun va kelajakning muhim qismi bo'lib qolaveradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ассман А. Длинная тень прошлого: Мемориальная культура и историческая политика. – М.: «Новое литературное обозрение», 2014. 328 б.
2. Нора П. Между памятью и историей: Проблематика мест памяти // Франция-память. – С-Пб.: Изд-во СПбГУ, 1999. 17–50-betlar.
3. Хальбвакс М. Коллективная и историческая память // Неприкосновенный запас. 2005. №2–3. 8–27-betlar.
4. Миллер А.И. Политика памяти в посткоммунистической Европе и её воздействие на европейскую культуру памяти // Полития. – 2016. № 1. 11–121-betlar.

5. Зерубавель Я. *Recovered Roots: Collective Memory and the Making of Israeli National Tradition*. – Chicago: University of Chicago Press, 1995. 320 p.
6. Левада Ю.А. Память о войне: поколенческий срез // Мониторинг общественного мнения: Экономические и социальные перемены. 2005. №2. 7–14-бетлар.
7. Сениявская Е. С. Психология войны в XX веке: исторический опыт России. – М.: РОССПЭН, 1999. 383 б.
8. Копосов Н.Е. Память строгого режима: История и политика в России. – М.: «Новое литературное обозрение», 2011. 320 б.

**СБОРНИК СТАТЕЙ ПО ИТОГАМ
МЕЖДУНАРОДНОГО КРУГЛОГО СТОЛА
«ОБЩАЯ ПОБЕДА – ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ»
(Ташкент, 5 мая 2026 года)**

ТАШКЕНТ – 2026

СОДЕРЖАНИЕ

ВСТУПИТЕЛЬНОЕ СЛОВО	89
РОЛЬ УЗБЕКИСТАНА В ДОСТИЖЕНИИ ПОБЕДЫ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ	94
ОСВОБОЖДАЯ ЗАПАД И ВОСТОК: ПОДВИГИ ГЕРОЕВ-УЗБЕКИСТАНЦЕВ	108
ГЕНЕРАЛЫ-УЗБЕКИСТАНЦЫ: ВКЛАД В ОБЩУЮ ВЕЛИКУЮ ПОБЕДУ	112
ОТ ДНЯ ПОБЕДЫ КО ДНЮ ПАМЯТИ И ПОЧЕСТЕЙ: ТРАНСФОРМАЦИЯ ИСТОРИЧЕСКОГО НАРРАТИВА	121
НА ПЕРЕДОВОЙ БЕЗ ОРУЖИЯ: ПОДВИГ ВОЕННЫХ ПОВАРОВ В ГОДЫ ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ	126
КАКИЕ ЦЕЛИ ПРЕСЛЕДУЮТ ФАЛЬСИФИКАТОРЫ ИСТОРИИ И ИТОГОВ ВЕЛИКОЙ ОТЕЧЕСТВЕННОЙ ВОЙНЫ	132
ИНТЕРНИРОВАННЫЕ ЯПОНЦЫ В УЗБЕКИСТАНЕ (1945–1950 гг.)	137
РЕТУШИРОВАНИЕ ОБЛИКА НАЦИЗМА ЧРЕВАТО ЕГО ВОЗРОЖДЕНИЕ!	146
ПАМЯТЬ О ВЕЛИКОЙ ПОБЕДЕ НАРОДОВ СССР КАК ФУНДАМЕНТАЛЬНЫЙ ЭЛЕМЕНТ ЕВРАЗИЙСКОЙ СВЯЗАННОСТИ	159
МИФЫ О РАБОЧЕ-КРЕСТЬЯНСКОЙ КРАСНОЙ АРМИИ	167
ПАМЯТЬ МОЛОДОГО ПОКОЛЕНИЯ О ВЕЛИКОЙ ПОБЕДЕ	172

ВСТУПИТЕЛЬНОЕ СЛОВО

*Эргашев Бахтиёр Исмаилович,
директор Центра исследовательских инициатив «Ма'но»*

Уважаемый читатель,

5 мая 2026 года в Ташкенте состоялся международный круглый стол «Общая победа – взгляд в будущее». Организаторами данного мероприятия выступили Центр исследовательских инициатив «Ма'но» и Школа молодых политологов. В работе круглого стола приняли участие историки, политологи, общественные деятели, журналисты из Узбекистана, России, Кыргызстана.

Для организаторов и участников международного круглого стола празднование Дня Победы – это вопрос не только и не столько истории. Это попытка на общей исторической основе понять и выстроить траектории дальнейшего развития наших народов.

Из примерно пяти с половиной миллионов жителей Узбекистана по состоянию на 1941 год было призвано и мобилизовано около полутора миллионов узбекистанцев. Если учесть, что мужское население составляло около трёх миллионов человек, и вычесть из этого числа детей и стариков, становится очевидным, что почти каждый взрослый мужчина Узбекистана был призван или мобилизован. Исходя из этого, можно с полным основанием утверждать, что практически каждая семья в современном Узбекистане имеет своего участника войны или труженика тыла.

В чём же заключается значение великой Победы народов Советского Союза над фашистской Германией в Великой Отечественной войне 1941–1945 годов? Это не просто военная победа одного государства над другим. Это победа сил добра и

света над абсолютным злом, воплощённым в человеконенавистнической идеологии нацизма, которая официально, на государственном уровне, делила людей на высшую расу и на расово неполноценных недочеловеков. Эта идеология ставила своей целью не только военное покорение, но и физическое уничтожение и порабощение целых народов, включая народы Советского Союза. Победа 1945 года остановила эту идеологию и спасла человечество от угрозы расового господства и геноцида в планетарном масштабе. Поэтому память о ней является не узконациональной, а общечеловеческой ценностью, и относиться к ней нужно соответственно.

Свой весомый и неотъемлемый вклад в эту общую Победу внёс и узбекский народ. Почти полтора миллиона мобилизованных из Узбекистана сражались на всех фронтах войны: от обороны Москвы и Сталинградской битвы до штурма Берлина. Десятки тысяч из них были удостоены боевых орденов и медалей, сотни стали Героями Советского Союза. Но вклад Узбекистана этим не ограничивался. Ташкент и другие города республики приняли и разместили сотни эвакуированных промышленных предприятий, вывезенных из прифронтовой зоны, что позволило в кратчайшие сроки наладить выпуск военной продукции вдали от линии фронта. Узбекистан принял сотни тысяч эвакуированных людей, в том числе детей, оставшихся без родителей, и в каждой узбекской семье находилось место и хлеб для чужого ребёнка, ставшего своим. Труженики тыла обеспечивали фронт продовольствием, хлопком для производства пороха и обмундирования, работали на полях и заводах день и ночь. Это был единый, монолитный вклад фронта и тыла, вклад, без которого общая Победа была бы невозможна. Поэтому попытка отделить Узбекистан от общей Победы, представить его вклад как второстепенный или тем более как навязанный извне – это не только историческая ошибка, но и неуважение к памяти наших предков.

В настоящее время, к сожалению, в общественное и информационное пространство активно продвигается целый ряд лживых тези-

сов, направленных на пересмотр итогов войны и принижение роли Советского Союза и Узбекистана в общей Победе.

Первый тезис о том, что фашистская, нацистская Германия и Советский Союз несут равную ответственность за развязывание войны, что это были два родственных тоталитарных режима со схожей идеологией. Это ложь, с которой нужно бороться. Как можно сравнивать человеконенавистническую нацистскую идеологию, разделявшую людей на расу сверхлюдей-арийцев (юберменши) и остальные народы, объявленные расово неполноценными унтерменшами, недочеловеками, с советской идеологией, основанной на идеях пролетарского интернационализма, равенства народов и людей независимо от расы и национальности? Это абсолютно кардинально противоположные идеологии. Но сегодня активно продвигается нарратив о том, что нацистская идеология расового превосходства и советская идеология братства народов якобы схожие политические системы. Это ложь, и с этой ложью нужно бороться.

Второй тезис, который сегодня продвигает часть псевдоисториков, о том, что воины из Центральной Азии, из Узбекистана, были насильно мобилизованы в Красную Армию и воевали чуть ли не из-под палки, не понимая целей войны. Но это ложь. Наши деды и прадеды прекрасно понимали, за что они воюют. Они знали, что воюют за бесплатное школьное образование для своих детей, за бесплатное высшее образование для своих детей и внуков, за социальную справедливость. Они знали, что защищают тот строй, который даёт их детям и внукам возможность жить и развиваться, учиться, получать профессии, становиться специалистами, пользоваться возможностями социальных лифтов, которые советская власть открывала для всех трудящихся, независимо от национальности.

Третий тезис связан с активной информационной кампанией по реабилитации участников Туркестанского легиона, в который входили коллаборационисты и предатели. Этот процесс идёт не только в Узбекистане, но и в других странах Центральной Азии, в частности в Казахстане. Но Туркестанский легион – это коллаборационисты, предатели и изменники Родины, перешедшие на сторону фашистской Германии и воевавшие на её стороне. Как мож-

но ставить на одну доску красноармейца – узбекистанца, который в 1941 году пошёл воевать в Красную Армию, был несколько раз ранен и в 1945 году дошёл до Берлина, Вены и Кёнигсберга, – и человека, который предал Родину, стал изменником и служил Гитлеру в составе Туркестанского легиона? Это невозможно, и любая попытка уравнивать их – это предательство памяти наших предков, честно и мужественно воевавших в составе победоносной Красной Армии.

Четвёртый тезис, который также набирает силу – попытка представить мобилизацию народов Центральной Азии как форму колониальной эксплуатации, а сам регион – не как соучастника Победы, а исключительно как жертву имперской политики центра. Это лукавая подмена понятий. Она игнорирует тот факт, что миллионы узбекистанцев сражались и трудились не по принуждению извне, а осознанно защищая общую страну и общее будущее, а после войны именно советская модернизация дала Узбекистану индустрию, систему всеобщего образования и здравоохранения, кадры инженеров и учёных. Сводить эту сложную и во многом созидательную историю к одному только образу жертвы, значит вычёркивать из памяти подвиг и труд собственного народа.

Пятый тезис – это утверждение о том, что победа Советского Союза была куплена якобы исключительно ценой бессмысленных, ничем не оправданных потерь, а сама Победа обесценивается указанием на просчёты и цену войны. Никто не отрицает, что война была страшной и потребовала колоссальных жертв. Но подмена памяти о Победе разговором исключительно о её цене – это тоже форма ревизионизма, уводящая от главного: от того, что именно эта Победа остановила нацизм и спасла от уничтожения десятки народов, включая узбекский народ. Помнить о цене Победы нужно, но нельзя подменять этим память о самой Победе и о том, за что и против чего воевали наши предки.

Нам необходимо противостоять этому ревизионизму и лжи. Закон информационной войны прост: против чужих нарративов нужны свои нарративы и свои тексты. И настоящий международный круглый стол, объединивший историков, политологов, общественных деятелей

и журналистов Узбекистана, России и Кыргызстана, – это наш, пусть и небольшой, вклад в эту информационно-идеологическую борьбу за историческую правду.

Эта работа нужна не нашим предкам, она нужна нам самим. От того, сможем ли мы отстоять правду о войне, зависит, кем мы останемся в истории: манкуртами, предавшими память своих предков-победителей нацизма ради сиюминутного комфорта и спокойствия, или людьми, способными отстоять светлую память предков и светлый образ Победы. Во Второй мировой войне народы Советского Союза, в том числе узбекский народ, сражались на стороне добра и света против абсолютного зла. Это нужно помнить, этим нужно гордиться и это нужно защищать от любых попыток пересмотра и лжи.

РОЛЬ УЗБЕКИСТАНА В ДОСТИЖЕНИИ ПОБЕДЫ ВО ВТОРОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЕ: КОМПЛЕКСНЫЙ АНАЛИЗ

*Ишанходжаева Замира Райимовна,
д.и.н., профессор,
Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека
ORCID: 0000-0002-8495-8122
E-mail: zamira.i@rambler.ru*

С началом Великой Отечественной войны Узбекистан занял важное место в системе советского тыла, обеспечивая фронт людскими, промышленными и продовольственными ресурсами. В исследовании рассматриваются основные направления участия Узбекской ССР в приближении Победы – мобилизация населения, развитие военного производства, поддержка сельского хозяйства и гуманитарная помощь эвакуированным.

Участие народов СССР во Второй мировой войне относится к давно разрабатываемым историческим сюжетам [Безугольный, Бородкин, 2022, с. 2]. Подведение итогов и определение перспектив изучения истории Великой Отечественной войны нашли отражение в работах ряда исследователей и материалах международных конференций [Сорокин, 2021, с. 4].

Исследование основано на анализе статистических и демографических материалов периода войны, а также сопоставлении довоенных и военных экономических показателей. Особое внимание уделено данным о мобилизации населения, развитии производства, эвакуации и человеческих потерях, что позволило определить место Узбекистана в системе советского тыла.

Значительный вклад в изучение социально-экономических аспектов военного периода, функционирования тыла и мобилизационных процессов внесли как отечественные, так и зарубежные исследователи, среди которых следует отметить работы М.Н. Потемкиной [Потемкина, 2024], В.А. Юрьева [Юрьев, 1995], Г.А. Куманева [Куманев, 2006], А.Е. Батырова [Батыров, 2015], а также М.И. Лихоманова, Л.Т. Позиной и Е.И. Финогенова [Лихоманов и др., 1985]. В их исследованиях раскрываются вопросы трансфор-

мации советского общества, роль трудовых ресурсов и особенности функционирования экономики в условиях военного времени.

Отдельное внимание проблемам участия Узбекистана в обеспечении победы во Второй мировой войне уделено в статье З.Р. Ишанходжаевой, В.К. Хазова и А.Б. Алмазовой-Ильиной, где рассматриваются ключевые аспекты вклада республики в общесоюзные процессы [Ишанходжаева и др., 2020].

С началом Великой Отечественной войны народы Советского Союза были мобилизованы на защиту страны, а лозунг «Всё для фронта, всё для Победы!» стал выражением общенародного единства. В кратчайшие сроки экономика переводилась на военные рельсы, создавались новые воинские соединения, разворачивалось производство для нужд армии в восточных регионах страны. В Узбекистане уже в первые часы после правительственного сообщения прошли массовые патриотические митинги. На собрании работников Ташкентского текстильного комбината было заявлено о готовности самоотверженно трудиться ради защиты Родины. Рабочие завода «Ташсельмаш» также выразили решимость выполнить любые задания для обеспечения Победы.

23 июня 1941 года в Ташкенте состоялся многотысячный городской митинг, в котором участвовали представители предприятий, учебных заведений, студенты и преподаватели. Подобные мероприятия прошли в Самарканде, Бухаре, Андижане, Намангане, Фергане и ряде сельских районов республики. В годы войны особенно ярко проявились такие качества населения Узбекистана, как патриотизм, взаимопомощь, мужество и гостеприимство. Республика принимала эвакуированное население и предприятия, обеспечивала фронт продовольствием, денежными и материальными средствами. Уже в первые дни войны тысячи жителей добровольно обращались в военкоматы с просьбой отправить их на фронт. Только в Ташкентской области за четыре дня было подано 7600 заявлений, из которых 2503 принадлежали женщинам. В Каракалпакстане поступило 399 заявлений, а в Хорезмской области – 1725. В декабре 1941 года добровольцами в воздушно-десантные войска из Узбекистана были направлены 7718 человек, среди которых 4122 составляли комсомольцы, что потребовало создания специальных комиссий по распреде-

лению людских ресурсов между фронтом и тылом. [Книга памяти. Республика Узбекистан 1941 – 1945; 1995:55]

Особую активность в годы войны проявила молодежь Узбекистана: десятки тысяч юношей и девушек прошли военную подготовку через систему всеобуча и Осоавиахима. В декабре 1941 года 600 молодых работников республики были направлены в национальные части заместителями политруководителей. В 1941–1943 годах только из Ташкентской области на фронт отправили 37 тыс. юношей и девушек, из них 10 тыс. вошли в состав национальных частей.

Представители Узбекистана активно участвовали в сражениях на Курской дуге, где особенно отличились 5-я и 162-я стрелковые дивизии, последняя дала стране 70 Героев Советского Союза. В республике были сформированы и подготовлены 258-я стрелковая дивизия, 69-я Краснознамённая стрелковая дивизия, 128-я гвардейская Туркестанская горнострелковая дивизия, 14-я кавалерийская дивизия, а также 90-я и 94-я отдельные узбекские стрелковые бригады. [Книга памяти. Республика Узбекистан 1941 – 1945; 1995:112].

Широкую известность получил подвиг 316-й Панфиловской дивизии, оборонявшей подступы к Москве. У разъезда Дубосеково 28 панфиловцев вступили в бой с 50 немецкими танками, уничтожив около двух десятков боевых машин и не допустив прорыва противника. В битве за Москву активно участвовала дивизия под командованием подполковника М.В. Зимины, сформированная в Узбекистане. Воины Шариф Пулатов и Хасан Турсунов в этих боях уничтожили 9 танков и 4 автомашины противника с пехотой. За оборону Москвы 1758 уроженцев Узбекистана были награждены орденами и медалями.

В Сталинградской битве отличились 2738 воинов-узбекистанцев. В марте 1945 года дивизия генерал-майора Сабира Рахимова участвовала во взятии крепости Грауденц в Германии, где было пленено более 5 тыс. солдат и офицеров противника. За мужество и успешное руководство войсками Сабир Рахимов был посмертно удостоен звания Героя Советского Союза. [Ким П., Ташкентская правда, 2000].

В годы Великой Отечественной войны Узбекистан потерял около 538 тыс. человек. За проявленное мужество 302 уроженца республики получили звание Героя Советского Союза, 70 стали полными кавалерами ордена Славы, а более 200 тыс. военнослужащих были награждены орденами и медалями.

С первых месяцев войны экономика республики была переведена на военные рельсы. Узбекистан принял и ввёл в действие 151 эвакуированное промышленное предприятие, прибывшие из западных районов страны, несмотря на нехватку кадров – многие заводы имели лишь около 20% необходимой рабочей силы. К производству активно привлекались женщины и старшекласники, при этом многие работницы перевыполняли нормы в 2–3 раза.

Одновременно республика обеспечивала фронт продовольствием и сельскохозяйственным сырьём. Наряду с хлопководством расширялись посевы зерновых, овощных и технических культур. Уже в 1943 году было заготовлено 415,6 тыс. тонн зерна, что в 1,5 раза превышало показатели 1940 года. За самоотверженный труд в тылу орденами и медалями были награждены 60 тыс. жителей республики. За годы войны Узбекистан поставил фронту 2104 самолёта, около 17 тыс. авиамоторов, миллионы снарядов, мин и авиабомб, а также обеспечивал ремонт боевой техники и снабжение её запасными частями. [Книга памяти Республика Узбекистан 1941–1945.1995:22].

Кроме самолётов и танков, жителями республики на собственные средства был приобретён бронепоезд «УЗБЕКИСТАН», экипаж которого не раз показывал в боях мужество, доблесть и героизм.

В республике широко была поставлена шефская работа над частями, соединениями и боевыми кораблями. Трудящиеся Узбекистана шефствовали над 12-ой гвардейской стрелковой дивизией, линкором «МАРАТ», 5-ой стрелковой Орловской дивизией, 162-ой стрелковой Среднеазиатской Новгород-Северской Краснознаменной дивизией и др.

Одновременно с развитием шефской помощи фронту в республике развернулись масштабные мероприятия по организации эвакуации населения и промышленности из прифронтовых районов.

С началом военных действий на территории СССР Государственный комитет обороны, созданный в июне 1941 года, 5 июля 1941 года принял постановление «О порядке эвакуации населения в военное время» [РГАСПИ. Ф. 17. Оп. 166. Д. 660. Л. 120–125]. В соответствии с данным постановлением началась эвакуация населения, а также промышленных предприятий из прифронтовых районов.

Организация и управление эвакуационным процессом первоначально осуществлялись Отделом переселения при Народном комиссариате Узбекистана (создан в 1939 году), а с 26 сентября 1941 года – Управлением по эвакуации населения, образованным на основании постановления Государственного комитета обороны №7150 [Путеводитель НА Уз. 1988:14].

Основные сведения о структуре и деятельности данного органа в 1941–1945 годах сосредоточены в фонде Р-314 Национального архива Узбекистана – «Управление эвакуации населения при Совете Народных Комиссаров УзССР» (1938–1953 гг.).

В развёртывание данных мероприятий, согласно постановлению Совета Народных Комиссаров Узбекской ССР №1687 от 13 ноября 1941 года, в республике был разработан конкретный план размещения эвакуированного населения [НА Уз, Ф. Р-314, Оп.1, Д.39, Л.279]. В архивном документе определялась территориальная структура распределения лиц, эвакуированных из различных прифронтовых районов.

В соответствии с планом предусматривалось размещение в республике в общей сложности 525 тыс. эвакуированных. Наибольшие показатели приходились на Самаркандскую (81 тыс.), Бухарскую (84 тыс.) и Ферганскую (79 тыс.) [НА Уз, Ф. Р-314, Оп.1, Д.39, Л.279] области, которые рассматривались как ключевые центры приёма благодаря наличию развитой сельскохозяйственной базы, производственного потенциала и транспортной инфраструктуры.

Одновременно Ташкентская область и город Ташкент также выступали важными пунктами приёма, где планировалось разместить более 102 тыс. эвакуированных, что объясняется значением столицы как промышленного, транспортного и административного центра.

Вместе с тем практическая реализация данного плана сопровождалась значительными отклонениями от первоначально намеченных показателей. Так, Самаркандская область являлась одним из ключевых центров приёма эвакуированных. Согласно докладной записке о состоянии размещения эвакуированного населения в области, предусматривалось расселение 70 тыс. человек по районам и городам, 5 тыс. – в совхозах и 4–5 тыс. – в других организациях, что в целом составляло около 80 тыс. человек. Однако фактические показатели оказались значительно выше: по состоянию на 1 января 1942 года в области было размещено 113 310 эвакуированных [НА Уз, Ф. Р-314, Оп.1, Д.56, Л.147–154].

Данный факт свидетельствует о том, что эвакуационные мероприятия в регионе осуществлялись в более широких масштабах по сравнению с первоначальными планами.

Узбекистан принял в годы войны более миллиона эвакуированных из прифронтовых районов, среди которых было около **250** тысяч детей. Дети нашли приют не только в детских домах, но и в семьях трудящихся республики. Многие семьи воспитывали по несколько сирот различных национальностей, а широко известная семья Шамахмудовых взяла на воспитании 14 детей.

Особое место в эвакуационных процессах занимало размещение детских учреждений, эвакуированных из прифронтовых районов. В частности, Самаркандская область стала одним из центров приёма детских домов и интернатов. В результате сюда были эвакуированы шесть детских домов и один интернат.

По состоянию на январь 1942 г. в Самаркандскую область было эвакуировано семь детских учреждений [Буриева Х. 2017:237], среди которых: Житомирский детский дом (140 воспитанников), детский дом из Сумской области (52 ребёнка), два детских дома из Ворошиловградской области (основной контингент – 130 человек, из ст. Баранская – 142 человека), детский дом Курской области со станции Кароча (115 человек), детский дом из Сталинской области (130 человек), а также интернат для испанских детей (170 человек).

Проявляя подлинный интернационализм, узбекский народ оказал большую помощь освобождённым от советской оккупации районам России, Украины, Белоруссии и других республик. Две тыся-

